



# FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH



TOSHKENT






615  
F 250

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARMATSEVTIKA ISHINI  
TASHKIL QILISH

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

I QISM



TOSHKENT – 2016

**UO‘K: 615(075)**

**KBK 35.66**

**F-25**

**F-25      Farmatsevtika ishini tashkil qilish (O‘quv qo‘llanma).** –T.: «Barkamol fayz mediya», 2016, 252 bet.

**ISBN 978–9943–11–373–2**

O‘quv qo‘llanmada «Farmatsevtika ishini tashkil qilish» fanini o‘qitish bo‘yicha o‘quv va ishchi dasturlari, normativ hujjatlari, ta’lim texnologiyalari, ularni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ko‘rsatilgan.

O‘quv qo‘llanma o‘qituvchilar va Farmatsiya yo‘nalishi talabalari uchun Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda qo‘llash uchun tuzilgan.

**UO‘K: 615(075)**

**KBK 35.66**

*Mualliflar:*

**Sh.Z.Umarova, Z.Sh.Xidoyatova, M.N.Ziyayeva,  
M.Z.Islamova, M.YA.Saidova**

*Taqribchilar:*

**U.X.Usmonov** – Farmatsevtlar malakasini oshirish fakulteti «Farmatsiya» kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.n.;

**A.A.Ashurov** – O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi, DVESDM TTU va TB SNQ laboratoriysi mudiri, f.f.n.

**ISBN 978–9943–11–373–2**

**© «Barkamol fayz mediya» nashriyoti, 2016.**

## KIRISH

«Farmatsevtika ishini tashkil qilish» fanidan ta’lim texnologiyasi «Farmatsevtika» oliv ta’lim muassasalarida ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarni o’qitish texnologiyasi» o’quv qo’llanmasida bayon etilgan dars mashg’ulotlarida yangi texnologiyalarni qo’llash qonun-qoidalariga tayangan holda ishlab chiqilgan.

Talabalarga bilim berishda zamонави та’лим texnologiyalarning аhamiyati тоғ’рисида соғ’з борганды О’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning «О’кув jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashga jonbozlik ko’rsatadigan o’qituvchi va murabbiyya e’tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta’lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko’tarish diqqatimiz markazida bo’lishi darkor» degan соғ’ларни та’kidlash о’ринlidir. Bu masala «Barkamol avlod-yili» Davlat dasturida ham asosiy yo’nalishlardan biri sifatida e’tirof etilgan.

Ta’lim texnologiyasida keltirilgan ta’lim texnologiyalarning har biri о’зиза о’кув mashg’ulotini о’tkazish shart-sharoiti тоғ’рисида axborot materiallarini, pedagogik maqsad, vazifa va ko’zlangan natijalarni, о’кув mashg’ulotining rejasi, о’qitishning usul va vostalarini mujassamlashtirgan. Shuningdek, bu о’кув mashg’ulotining texnologik kartasini, ya’ni о’qituvchi va о’quvchining mazkur о’кув mashg’ulotida erishadigan maqsadi bo’yicha hamkorlikdagi faoliyatining bosqichma-bosqich ta’riflanishini ham о’з ichiga oladi.

Ta’lim texnologiyasi tarkibiga kirish, ta’lim texnologiyasining konseptual asoslari, har bir mavzu bo’yicha ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarida о’qitish texnologiyasidan iborat. Ma’lumotlar maksimal darajada umumlashtirilgan va tartibga solingan. Ularni о’zlashtirish va yodda saqlab qolishni kuchaytirish uchun jadval va chizmalardan foydalaniilgan.

Ta’lim texnologiyasi konseptual asoslari qismida dastlab «Farmatsevtika ishini tashkil qilish» fanning dolzarbliji va ahamiyati, mazkur o‘quv fanining tarkibiy tuzilishi, kommunikatsiyalar, axborotlar berilib, so‘ngra loyihalashtirilgan, o‘qitish texnologiyalari taqdim qilingan.

**SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**  
**FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH KAFEDRASI**

**«FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH» FANIDAN  
TA'LIM TEKNOLOGIYASI**

**«Farmatsevtika ishini tashkil qilish» fanidan ma'ruza, amaliy  
mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyasi**

Kelajagi buyuk O'zbekistonga malakali va bilimdon mutaxassislarini yetkazib berish, ya'ni talabalarga O'zbekiston Respublikasida Sog'lioni saqlash ishlari va Farmatsevtika xizmatini rivojlantirish asoslari, dorixonalarda retseptlarni qabul qilish va ular asosida dori vositalarini berish, zaxiralar, tayyor dorilar va retseptsiz savdo bo'limlari, dorixona sharoitida dori vositalarini tayyorlash va sifatini nazorat qilish ishlarni tashkil etish; hujjatlarni rasmiylash-tirish va belgilangan tartibda dori vositalarini berish, bepul dori vositalarini berish tartibi, shifoxona-dorixona ishlarni tashkil etish, dorixona xodimlarining dorixonadagi lavozim nomenklaturasi bo'yicha olib boriladigan ishlarga oid hujjatlar va boshqa bozor iqtisodiyoti sharoitidagi dorixonalar ishlariغا oid O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirligining buyruqlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarini talabalarga o'rgatadi. Bu masalalar esa jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloq qilishda FITQ fanining ahamiyatini ochib beradi.

Yuqorida ta'kidlangan masalalardan tashqari dorixona muassasalariga farmatsevtik faoliyat uchun litsenziya berish, zaxiralar bo'imi ishini tashkil qilish, farmatsevtika xizmatini nazorat ruxsatnomalar tizimi, davolash-profilatiqa muassasasining dorixonasi, dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj va talab istiqbolini aniqlash, farmatsevtika bozorida ulgurji savdo faoliyatini tashkillashtirish, giyohvand dori vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar muomalasi va Markaziy Osiyo hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida

farmatsiyaning rivojlanish tarixi kabi dolzarb muammolarni talabalarga o'rgatish.

Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion - pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy ko'rsatmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, «O'zbekiston Respublikasi dori vositalari reyestri» va «Asosiy dori vositalari ro'yxati» elektron dasturlaridan foydalaniladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lif tizimidagi islohotlarning asosini shakllantiruvchi qator me'yoriy hujjatlar qabul qilingan va amalga oshirilib kelinmoqda. Bular asosida «Ta'lif to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlashni milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlar alohida o'rinn tutadi. Bu qonunlardan kelib chiqadigan vazifa ta'lif dasturlari mazmunining yuqori sifatiga erishish va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilishdir.

Davlat ta'lif standartida bakalavrning tayyorgarlik darajasiga quyidagi talablar qo'yilgan:

### **Mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlar taqsimoti**

№	<b>Fanning bo'limi va mavzusi, ma'ruza mazmuni</b>	<b>Soatlar</b>		
		Jami	Ma'- ruza	Amaliy mashg'ulotlar
1	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va farmatsevtika xizmatini rivojlantirish asoslari	6	2	4
2	Dorixona muassasalariga farmatsevtik faoliyat uchun litsenziya berish.	6	2	4
3	Turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar ishini tashkil qilish	6	2	4
4	Dori vositalari retseptsiz savdosini tashkil qilish	6	2	4

5	Dorixonalarda retseptura ishlab chiqarish bo'limi ishini tashkil qilish	6	2	4
6	Dorixonalarda retseptlarni qabul qilish va ular asosida dori vositalarini berish	6	2	4
7	Dorixonalarda retseptlarni taksirovka va ekspertiza qilish	6	2	4
8	Dorixona sharoitida dori vositalarini tayyorlash	6	2	4
9	Dorixona sharoitida dori vositalarini tayyorlash va sifatini nazorat qilish ishlarini tashkil qilish	6	2	4
10	Dorixona zaxiralar bo'limi ishini tashkil qilish.	6	2	4
11	Farmatsevtika xizmatini nazorat ruxsatnomasi tizimi.	6	2	4
12	Davolash profilaktika muassasasining dorixonasi	6	2	4
13	Dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj va talab istiqbolini aniqlash.	6	2	4
14	Farmatsevtik logistika.	6	2	4
15	Farmatsevtika bozorida ulgurji savdo faoliyatini tashkillashtirish.	6	2	4
16	Giyohvand dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar muomalasi	6	2	4
17	Markaziy Osiyo va MDH davlatlarida farmatsiyaning rivojlanish tarixi	6	2	4
18	Seminar	6	2	4
	Jami	108	36	72

## **«Farmatsevtika ishini tashkil qilish» fani bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida ta'lif texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari**

Ta'lif texnologiyasi insoniylik tamoyillariga tayanadi. Falsafa, pedagogika va psixologiyada bu yo'nalishning o'ziga xosligi talabaning individualligiga alohida e'tibor berish orqali namoyon bo'ldi.

Shulardan kelib chiqqan holda «Farmatsevtika ishini tashkil qilish» kursining ta'lif texnologiyalarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlarga e'tibor berish kerak:

- **Muammolli yondashuv.** Ta'lif jarayonini muammoli holatlar orqali namoyish qilish asosida o'quvchi bilan birgalikdagi hamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning obyektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilishning dialektik tafakkurni rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo'llash ta'minlanadi.

- **Axborot berishning eng yangi vosita va usullaridan foydalanish,** ya'ni o'quv jarayoniga kompyuter va axborot texnologiyalarini jalb qilish.

Yuqorida konseptual yondashuv va «Farmatsevtika ishini tashkil qilish» fanining tarkibi, mazmuni, o'quv axborot hajmidan kelib hiqqan holda o'qitishning quyidagi usul va vositalari tanlab olindi.

- **O'qitish usullari va texnikasi:** muloqot, muamtovariusul, «aqliy hujum», insert, ma'ruza (kirish ma'ruzasi, vizual ma'ruza, tematik, aniq holatlarni yechish, avvaldan rejalashtirilgan, sharhlovchi, yakuniy).

- **O'qitishni tashkil qilish shakllari:** jamoaviy, guruhiy.

- **O'qitish vositalari:** odatdag'i o'qitish vositalari (darslik, ma'ruza matni, tayanch konspekti)dan kompyuter va axborot texnologiyalarini.

- **Boshqarishning usuli a vositalari.** O'quv mashg'ulotini texnologik karta ko'rinishida rejalashtirish o'quv mashg'ulotining bosqichlarini belgilab, qo'yilgan maqsadga erishishda o'quvchi va o'qituvchining hamkorlikdagi faoliyatini talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini aniqlab beradi.

- **Monitoring va baholash.** O'quv mashg'uloti va butun kurs davomida o'qitish natijalarini kuzatib borish, o'quvchi faoliyatini har bir mashg'ulot va yil davomida reyting asosida baholash.

### **Ma'ruba mashg'ulotini tashkil etishning shakl va xususiyatlari:**

<b>Nº</b>	<b>Ma'ruba shakllari</b>	<b>O'ziga xos tavsiylovchi xususiyatlari</b>
1	Kirish ma'ruzasi	Fan to'g'risida yaxlit tasavvur hamda ma'lum yo'nalishlar beradi. Pedagogik vazifasi: o'quvchini ushbu fanning vazifalari va maqsadi bilan tanishtirish, kasbiy tayyorgarlik tizimida uming o'rni va rolini belgilash, kursning qisqacha sharhini berish. fanning yutuqlari va taniqli olimlar nomlari bilan tanishtirib, kelajakdag'i izlanishlarning yo'nalishini belgilash, tavsiya qilingan o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini berish, hisobot va baholashning muddatlari va shakllarini belgilash.
2	Ma'ruba axborot	Ma'ruzaning odatdag'i an'anaviy turi. Pedagogik vazifasi: o'quv ma'lumotlarini bayon qilish va tushuntirish.
3	Sharhlovchi ma'ruba	Bayon qilinayotgan nazariy fikrlarning o'zagini, ilmiy tushunchalar va butun kurs yoki bo'limlarining konseptual asosini tashkil etadi. Pedagogik vazifasi: ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish, fanlarning o'zaro aloqadorligini ochish.
4	Muammoli ma'ruba	Yangi bilimlar qo'yilgan savol, masala, holatning muammoligi orqali beriladi. Bunda o'quvchining o'qituvchi bilan birlgilidagi bilish jarayoni ilmiy izlanishga yaqinlashdi.

		Pedagogik vazifasi: yangi o'quv axborotining mazmunini ochish, muammoni qo'yish va uni yechimini topishni tashkil etish, hozirgi zamon nuqtayi nazarlarini tahlil qilish
5	Vizual ma'ruza	<p>Ma'ruzaning mazkur shakli vizual materiallarni namoyish etish hamda ularga aniq va qisqa sharhlari berishga qaratilgan.</p> <p>Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarini o'tqitishning texnik vositalari va audio, videotexnika yordamida berish.</p>

# 1-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH ISHLARI VA FARMATSEVTIKA XIZMATINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

## Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti- 2 soat	Talabalar soni: 45-60 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Kirish, vizual, ma'ruza
<i>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi:</i>	<p>1. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanining predmeti haqida ma'lumot.</p> <p>2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyatini muvofiq lashtiruvchi qonun hujjatlari.</p> <p>3. Sog'liqni saqlash va farmatsevtika faoliyati xizmatini boshqaruvchi tashkilotlarning asosiy vazifalari va funksiyalari.</p> <p>4. O'zbekiston farmatsevtika sanoati Davlat aksionerlik konserni.</p>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> «Farmatsevtika ishini tashkil qilish» fanining predmeti, Sog'liqni saqlash va farmatsevtika faoliyati xizmatini boshqaruvchi tashkilotlarning asosiy vazifalari va funksiyalari va O'zbekiston farmatsevtika sanoati Davlat aksionerlik konserni,	
Ular haqidagi boshqa ma'lumotlar to'g'risida bilimlarni shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>-Farmatsevtika ishini tashkil qilish tushunchasi bilan tanishtirish, fanning predmetini tushuntirish;</li> <li>-O'zbekiston Respublikasida Sog'liqni saqlashni himoya qilishda qonunchilikning konstitutsion asos-</li> </ul>	<i>Talaba:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanining predmetini izohlaydi;</li> <li>-O'zbekiston Respublikasida Sog'liqni saqlashni himoya qilishda qonunchilikning konstitutsion asos-</li> </ul>

qilishda qonunchilikning konstitutsion asoslari bilan tanishtirish;	larini aytib beradi;
-O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining, «Dori-Darmon» AKning, «O'zfarmsanoat» DAKning tuzilishi, vazifalari va funksiyalarini o'rganish:	-O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining, «Dori-Darmon» AKning, «O'zfarmsanoat» DAKning tuzilishi, vazifalari va funksiyalariga tavsif beradi.
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Vizual ma'ruza, bayon qilish.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, proektor, tarqatma materiallar.
<i>O'qitish shakllari</i>	Ommaviy
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya.

### Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar yetkaziladi; mashg'ulot axborotli, vizual ma'ruza shaklida borishini ma'lum qilinadi.	1.1. Tinglaydi, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy (65min)	2.1. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. (Illova 1,2,3,4,5) 2.2. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.	2.1. Eshitadi. Illovalar mazmunini muhokama qiladi.  2.2. Eshitadi va yozib oladi.
3-bosqich.	3.1. Talabalar e'tiborini jalb	3.1. O'yaydi,

Yakuniy (10 min)	<p>etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi.</p> <p>(Illova 6)</p> <p>3.2. Mavzuni yakunlaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi.</p> <p>Faoq ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.</p>	<p>javob beradi.</p> <p>3.2. Eshitadi, aniqlashtiradi.</p>
---------------------	--	--

### Vizual materiallar

*1-ilova*

#### 1. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanining predmeti haqida ma'lumot

**Farmatsevtika ishini tashkil qilish fani** – dorixona muassasalarida ishni tashkil qilish, dorixonadagi asosiy bo'limlar, ya'ni retseptura zahiralar, tayyor dorilar bo'limlari, ularda olib boriladigan ishlar, rasmiylashtiriladigan hujjatlar, turli mulkchilik shaklidagi dorixonalardagi shtatlar, shifoxona dorixonalari, ulardagi olib boriladigan ishlarga oid hujjatlar va boshqa bozor iqtisodiyoti sharoitidagi dorixonalar ishlariga oid O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining buyruqlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarini talabalarga o'rgatadi.

*2-ilova*


#### 2.O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonun hujjatlari

1. *Fuqarolar Sog'lig'ini Saqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (1996-yil 29-avgust).*
2. *Dori vositalar va farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni(1997-yil 25-aprel).*

- 3. O'zbekiston farmatsevtika sanoti Davlat aksionerlik konsernini tashkil etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (1993-yil 2-iyundagi 290-sonli) farmoni.**
- 4. Dorixona muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (1994-yil 11-martdagи 132-sonli) qarori.**
- 5. («Dori-darmon» Davlat aksiyadorlik uyushmasining «Dori-darmon» aksiyadorlik Kompaniyasiga aylantirish to'g'risida) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (2005-yil 20-maydagи 131-sonli) qarori.**
- 6. Dorivor vositalar, tibbiy buyumlar va davolash profilaktik oziq-ovqatlar ustidan davlat nazoratini tashkil etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (1995-yil 25-maydagи 181-sonli) qarori.**

### 3-ilova

#### **3.Sog'liqni saqlash va farmatsevtika faoliyati xizmatini boshqaruvchi tashkilotlarning asosiy vazifalari va funksiyalari**



#### 4. «Dori-Darmon» Akning vazifalari



#### 3. O'zbekiston farmatsevtika sanoati Davlat aksionerlik konserni



**Tezkor so‘rov savollar**

1. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanining predmeti nimani o‘rgatadi?
2. Sog‘liqni saqlash ishlarining asosiy prinsiplari nimadan iborat?
3. O‘zbekiston Respublikasi farmatsevtika sohasiga tegishli bo‘lgan qonun va qarorlarni aytib bering.
4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining vazifalariga nimalar kirdi?
5. Dori-darmion AKning vazifalari nimalardan iborat
6. O‘zlarmsanoat Davlat aksionerlik konserni haqida ma’lumotlar bering.

<b>1-MAVZU</b>	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash ishlari va farmatsevtika xizmatini rivojlantirish asoslari.
<b>AMALIY MASHG‘ULOTNI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI</b>	
O‘quv soatlari: 4 soat	Talabalar soni: 10-12ta
O‘quv mashg‘ulotning shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot
Amaliy mashg‘ulotning rejasi	<p>1. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanining predmeti haqida ma’lumot, Sog‘liqni saqlash ishlarini tashkil qilish prinsiplari.</p> <p>2. O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonun hujjatlari.</p> <p>3. Sog‘liqni saqlash vazirligining tuzilishi, funksiyalariva vazifalari.</p> <p>4. Farmatsevtika faoliyati xizmatini boshqaruvchi tashkilotlarning asosiy vazifalari va funksiyalari. «Dori-darmon» AK haqida ma’lumot.</p>

5.O'zbekiston farmatsevtika sanoati  
Davlat aksionerlik konserni.

*O'qiv mashg'ulotining maysadi:* Talabalarni Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanining predmeti, Sog'liqni saqlash ishlarini tashkil qilish prinsiplari, Sog'liqni saqlash vazirligining farmatsevtika faoliyati xizmatini boshqaruvchi tashkilotlarning asosiy vazifalari va funksiyalari, «Dori-darmon»AK, O'zbekiston farmatsevtika sanoati DAK haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish.

*Pedagogik vazifalar:*

- Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanining predmeti haqida ma'lumot, Sog'liqni saqlash ishlarini tashkil qilish prinsiplarini o'rnatish;
- O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonun hujjatlari bilan tanishtirish;
- O'zbekiston Sog'liqni saqlash va farmatsevtika faoliyati xizmatini boshqaruvchi tashkilotlarning asosiy vazifalari va funksiyalari haqida ma'lumot berish;
- O'zbekiston farmatsevtika sanoati Davlat aksionerlik konserni, Dori-darmon davlat aksiyadorlik kompaniyasi haqidagi ma'lumotlarni internet saytidan o'rGANISH.

*O'qiv faoliyatining natijalari:*

Talaba:

- Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanining predmeti haqida ta'rif beradi;
- Sog'liqni saqlash ishlarini tashkil qilish prinsiplarini tavsiflaydi;
- O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonun hujjatlarini tavsiflaydi;
- Sog'liqni saqlash va farmatsevtika faoliyati xizmatini boshqaruvchi tashkilotlarning asosiy vazifalari va funksiyalarini o'rGANADI;
- Dori-darmon davlat aksiyadorlik uyushmasining Dori-darmon aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirish to'g'risidagi qaror bilan tanishadi;
- «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasining bo'llimlari haqidagi ma'lumotlarni internet orqali [www.doridarmon.uz](http://www.doridarmon.uz) saytiga

	kirib o'rganadi; – <a href="http://www.uzpharmsanoat.uz">www.uzpharmsanoat.uz</a> saytiga kirib, «O'zfarmsanoat» DAKga tegishli bo'lgan korxonalar ro'yxatini va ularning faoliyati haqidagi ma'lumotlarni oladi va o'rgandi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Munozara «Bumerang» usuli, test
O'qitish vositalari	Darslik, ma'ruza matni, o'quv ko'rsatmalar, ko'rgazmali materiallar, qaror va buyruqlar
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, guruh bo'yicha o'qitish sharoitlari.
O'qitish sharoitlari	Amaliy mashg'ulotga moslashtirilgan xona

## AMALIY MASHG'ULOTNING TEKNOLOGIK KARTASI

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (20 daq)	<p>1.1. Mashg'ulot mavzusi, rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Dars mashg'uloti guruhlarda ishlash texnologiyasi foydalangan holda amalga oshirilishini e'lon qiladi.</p> <p>Guruhda ishlash qoidalarini eslatadi. Ish tartibi va reglamentni aniqlashtiradi.</p>	<p>1.1. Eshitadilar va mavzuni yozadilar, savollarga javob beradilar va aniqlashtiradilar.</p>

2-bosqich. Asosiy (110 daq)	<p>2.1. Talabalarni 3 ta guruhga bo'linadi va (Illova 2,3). Guruhga «Bumerang» usullari bo'yicha topshiriqni va test savollarini tarqatadi. Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (Illova 1).</p> <p>2.2. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (darslik, ma'ruza matni, o'quv uslubiy ko'rsatma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi.</p> <p>2.3 Vazifani tugallagan talaba ish natijalarini to'g'riligini tekshirib va kamchiliklarini to'g'rilab turadi.</p>	<p>2.1. O'quv topshiriqlarini, baholash mezonlari bilan tanishadi. Savollarga javob beradi</p> <p>2.2. Vazifani bajarishda o'quv materiallаридан foydalanadi.</p> <p>2.3. Vazifalarni tugallagan talaba natijalarini to'g'-riligini o'qituvchi nazorati ostida daftарига rasmiy lashtiradi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (30 daq)	<p>3.1. Mavzuni yakunlaydi. Talabalar diqqatini asosiy jihatlarga qaratadi. Muammoni hal qilish jarayonida g'olib bo'lgan guruhni aniqlaydi va baholaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi.</p>	<p>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi</p>

## Vizual materiallar

Sog'liqni saqlash tizimi va farmatsevtika xizmati ustidan umumiy rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi amalga oshiradi. Sog'liqni saqlash sohasini har tomonlama rivojlantirish, Sog'liqni saqlash muassasalari tarmog'ini va moddiy texnika bazasini rivojlantirish tibbiyot va farmatsevtik kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish, tibbiyot va farmatsevtikaning turli sohalarida ilmiy izlanishlar o'tkazishni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining asosiy vazifalariga kiradi. Bu vazifalarni bajarish uchun vazirlik qoshida

maxsus Bosh boshqarmalar, ilmiy tadqiqot institutlari va boshqa bo‘limmalar faoliyat ko‘rsatadi.

Dorixonalar Bosh boshqarmasi negizida 1994-yilda tashkil qilingan «Dori-darmon» davlat aksiyadorlik uyushmasi 2005-yil may oyida respublika hukumatining qarori bilan aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirildi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20-may 2005-yildan 131-sonli qarori «Dori-darmon» davlat aksiyadorlik uyushmasining «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirish to‘g‘risida).

«Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasining vazifalari:

– O‘zbekiston Respublikasi aholisini sifatli dori-darmon va tibbiyot buyurnlari bilan ta’minlash;

– Marketing tadqiqotlari o‘tkazish hamda hayotiy muhim bo‘lgan asosiy dori-darmonlar va tibbiyot buyumlariga shu jumladan narkotik va hisobda turadigan psixotrop preparatlarga buyurtmalarni shakllantirish hamda tuziladigan shartnomalar asosida Respublika Sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarining ularga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha davlat rezervining dori-darmonlar va tibbiyot buyumlariga ehtiyojlarini qondirishni ta’minlash;

– «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiradigan dorixona muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish mavjud farmatsevtika mahsulotlari resurslari to‘g‘risidagi yagona Respublika axborotlar tizimini yaratish;

– Dori-darmonlar va farmatsevtika preparatlari bilan ta’minlashni tashkil etishga investitsiyalarni jalb qilish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish.

Aholi va davolash-profilaktika muassasalarining dori vositalariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, dori-darmonlar ta’minoti boshqarishini markazlashtirish farmatsevtika sanoatini barpo etish va rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 17-iyuldaggi 296-qarori bilan «O‘zfarmsanoat» Davlat aksiyadorlik konserni tuzildi.

Konserning vazifalari quydagilardan iborat:

– dori-darmonlarni yaratish va ishlab chiqarish jarayonini yo‘lga qo‘yish, aholi va davolash-profilaktika muassasalarini dori vositalari va tibbiyot buyumlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish;

– hukumatning Respublika va mahalliy organlari bilan hamkorlikda farmatsevtika sanoati kompleksini rivojlantirish bu tarmoq korxonalarni hududiy joylashtirishni takomillashtirish, tabiatni muhofaza qilish siyosatini o‘tkazish;

– Sog‘liqni saqlash vazirligi boshqa vazirliklar va tashkilotlar bilan birgalikda yuqori samarali dori vositalarini va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish sohasida yagona siyosatini amalga oshirish;

– dorivor preparatlarni respublikaning o‘zida ishlab chiqarishni keng yo‘lga qo‘yish hisobiga ularning importini kamaytirish, xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy hamkorlikni takomillashtirish va kengaytirish dasturini ishlab chiqish hamda uni izchil amalga oshirish.

Konsern o‘z vazifalarini bajarish uchun unga berilgan vakolatlarga muvofiq, quyidagi tadbirlarni amalga oshiradi:

– konsern tarkibiga kiravchi birlashmalar, korxonalar, tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faoliyatini ma’lum maqsadga yo‘naltirish;

– tarmoqni iqtisodiy ijtimoiy rivojlantirish uzoq muddatsiz istiqbol rejalarini, korxonalarni rivojlantirish, qayta ko‘rish va texnika bilan qayta jihozlash vazifalarini hal qilish uchun investitsiya sohasida yagona strategiyani amalga oshirish;

– boshqarish jarayonining xo‘jalik usullarini va shakllarini takomillashtirish korxona hamda tashkilotlarda xo‘jalik hisobini rivojlantirish;

– ishlab chiqarishning oqilona ixtisoslashuvini va kooperatsiyalashuvini o‘tkazish, bozor konyunkturasini o‘rganish hamda uning asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar ko‘rsatiladigan xizmatlar tarkibini takomillashtirish, iqtisodiy aloqalarning yangi shakllarini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni yo‘lga qo‘yish.

Hozirgi paytda konsern tarkibida 23 ta korxona va tashkilotlar (ishlab chiqarish, ilmiy, tijorat), faoliyat ko‘rsatmoqda. Ulardan «Universalfarm», «Sarbonteks», «Novo farma plus», «Farm

Glass», «Yunimed», «Treydingfarm», «Nobel Farmsanoat», Buyuk Britaniya, Chexiya, Turkiya, Rossiya va boshqa chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etilgan qo'shma korxonalardir.

Konsern korxonalari tomonidan respublika aholisini va davolash-profilaktika muassasalarini dori-darmon va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash masalalari hal qilinmoqda.

Soha faoliyatining ilk davrida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlari doimo yangilanib va kengayib bormoqda.

Konsern korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan dori vositalari va tibbiy buyumlar turlari bir necha baravardan ziyod oshgan: 1993-yildagi 81 nomdan 2006-yilga kelib 400 nomga ortgan.

Tizimdagi korxonalar tomonidan 10 dan ziyod (ampula, tabletka, kapsula, eritma, tomchilar, tindirma va ekstraktlar, sutmalar, liniment, infuzion eritmalar, dorivor o'simliklar, bakteriotsid va tashxis preparatlar, vaksinalar, zardoblar va boshqalar, bog'lov vositalari, tibbiy momiq, tibbiy ehtiyojdagi buyumlar), ko'rinishidagi dori-darmon va tibbiyot vositalari ishlab chiqarilmoqda.

70 ga yaqin farmakologik guruhlar bo'yicha dori vositalari ishlab chiqarilmoqda, bular yurak qon-tomir preparatlari, vitaminlar va biostimulatorlar, analgetik va anestetiklar, antibiotik va sil kasalliklariga qarshi preparatlar, antiseptik, parazitlarga qarshi vositalar, tashxis preparatlari, vaksinalar, zardoblar, bakteriotsid va boshqa preparatlar.

Korxonalarni tashkil etish va qayta tashkil etishda mahsulot sifatini kafolatlaydigan, zamonaviy xalqaro talablarga javob bera oladigan, eng yangi jihoz va texnologiyalar ishlatilmoqda.

Akademik institutlar bilan tabiiy preparatlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

2006-yil 14-iyulda 'Dori vositalari va tibbiy maqsaddagi buyumlarni ishlab chiqaradigan mamlakatimizning korxonalarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PK-416-soni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilayotgan va sotilayotgan dori vositalari va tibbiy maqsaddagi buyumlar qo'shimcha qiymat solig'ini to'lashdan ozod etildi. Ushbu qaror ijrosi natijasida mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar

rivojlanib, aholining sifatli va nisbatan arzon dori-darmonlar bilan ta'minlash imkonini beradi.

### ***1-ilova***

#### **Guruh bilan ishlash qoidalari (pedagogik texnologiya «Bumerang» usulidan foydalananiladi)**

**Guruhning har bir a'zosi:**

- o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar to'g'risida faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhnini baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- «Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz» qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

### ***2-ilova***

#### **Guruhlar uchun topshiriqlar**

##### ***I guruh vazifasi***

1. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanining predmeti nimani o'rgatadi?
2. Sog'liqni saqlash ishlarini tashkil qilish prinsiplari nimadan iborat?

##### ***II guruh vazifasi***

1. O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika sohasiga tegishli bo'lgan qonun va qarorlarni aytib bering
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining vazifalariga nimalar kiradi?

##### ***III guruh vazifasi***

1. «Dori-darmon» AK ning vazifalari.
2. O'zfarmsanoat Davlat aksionerlik konserni haqida ma'lumotlar

## **Mavzu to‘g‘risidagi test savollari**

**1. «Dori - darmon» Davlat aksiyadorlik uyushmasi qachon va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi qaroriga binoan aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirildi?**

A. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20-may 2005-yildagi 131-sonli qaroriga binoan.

B. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2-dekabr 1997-yildagi 532-sonli qaroriga binoan.

C. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 181-sonli qaroriga binoan.

D. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 296-sonli qaroriga binoan.

**2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining asosiy vazifalari.**

A. Sog‘liqni saqlash sohasini har tomonlama rivojlantirish, tibbiyot va farmatsevtik kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish.

B. Shifoxona dorixonalarini dori vositalari bilan ta‘minlash.

C. Aholini dori vositalari bilan ta‘minlash.

D. Dori vositalari sifatini tekshirish.

**3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi qaroriga binoan «O‘zfarmsanoat» Davlat aksiyadorlik konserni tuzilgan?**

A. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20-may 2005-yildagi 131-sonli qaroriga binoan.

B. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2-dekabr 1997-yildagi 532-sonli qaroriga binoan.

C. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 181-sonli qaroriga binoan.

D. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 17-iyuldaggi 296-sonli qaroriga binoan.

**4. «O‘zfarmsanoat» Davlat aksiyadorlik konsernining vazifalarini ko‘rsating.**

A. Jamoa dorixonalarini dori vositalari bilan ta‘minlash.

B. Dori-darmonlarni yaratish va ishlab chiqarish jarayonini yo'lga qo'yish, Aholi va DPMlarni dori vositalari va tibbiyot buyumlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

- C. Xususiy dorixonalarini dori vositalari bilan ta'minlash.
- D. Aksiyador dorixonalarini dori vositalari bilan ta'minlash.

**5. Konsern ilmiy muassasalar tomonidan qanday preparatlarni yaratish bo'yicha ishlar olib bormoqda?**

- A. Yangi dorivor preparatlarni yaratish to'g'risida.
- B. Immunobiologik preparatlarni yaratish to'g'risida.
- C. A va V javoblar to'g'ri.
- D. Biologik preparatlarni yaratish to'g'risida.

**6. Qaysi qaror ijrosi natijasida mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar rivojlanib Aholini sifatli va nisbatan arzon dori vositalari bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi?**

A. 2006-yil 14-iyuldagagi «Dori vositalari va tibbiy maqsaddagi buyumlarni ishlab chiqaradigan mamlakatimizning korxonalarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi» PK-416-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori ijrosi natijasida.

B. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 17-iyuldagagi 296-sonli qaroriga binoan.

C. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20-may 2005-yildagi 131-sonli qaroriga binoan.

D. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2-dekabr 1997-yildagi 532-sonli qaroriga binoan.

**7. «Dori-darmon» AK tarkibiga nechta aksiyadorlik jamiyatি kiradi?**

- A. 8 ta.
- B. 12 ta.
- C. 10 ta.
- D. 5ta.

**8. «Dori-darmon» AK tarkibidagi ulgurji omborxonalar soni nechta?**

- A. 15 ta.
- B. 9 ta.
- C. 2 ta.
- D. 5 ta.

**9. «Dori-darmon» AK tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘limining vazifasi.**

- A. Qo‘sni Respublikalarini narxlarini hisobga olgan holda tibbiyot Preparatlarining narxlari bo‘yicha varaqalar, shartnomalar tuzadi va muzokaralar olib boradi.
- B. dori vositalarini yaratadi.
- C. dori vositalari sifatini nazorat qiladi.
- D. dori vositalari nojo‘ya ta’sirini o’rganadi.

**10. «Dori-darmon» AK Marketing va axborot bo‘limining vazifasi.**

- A. O‘zbekiston Respublikasi tibbiy amaliyotida ishlatishga ruxsat etilgan medikamentlarni qayd etilganligini tekshiradi, preparatlarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlaydi.
- B. dori vositalari narxini tekshiradi.
- C. dori vositalari sifatini nazorat qiladi.
- D. dori vositalarini guruhlarga ajratadi.

### **BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI VA MEZONLARI**

No	Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball «5» a’lo
1	Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanining predmeti nimani o‘rgatadi? Sog‘liqni saqlash ishlarini tashkil qilish prinsiplari nimadan iborat?	1
2	O‘zbekiston Respublikasi farmatsevtika sohasiga tegishli bo‘lgan qonun va qarorlarni aytib bering	1
3	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining vazifalari.	1
4	«Dori-darmon» AKning vazifalari.	1
5	O‘zfarmsanoat Davlat aksionerlik konserni haqida ma’lumotlar	1

## **Mustaqil bajarish uchun vazifalar**

1. «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasining bo‘limlari haqidagi ma'lumotlarni internet orqali [www.doridarmon.uz](http://www.doridarmon.uz) saytiga kirib o‘rganing.
2. «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiradigan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatini daftaringizga yozing (2-ilova).
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20-may 2005-yildagi «Dori-darmon» Davlat aksiyadorlik uyushmasining «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirish to‘g‘risidagi 131-sonli qarori bilan tanishing va daftaringizga qisqacha konspekt qiling.
4. [www.uzpharmsanoat.uz](http://www.uzpharmsanoat.uz) saytiga kirib, «O‘zfarmsanoat» DAK ga tegishli bo‘lgan korxonalar ro‘yxatini va ularning faoliyati haqidagi ma'lumotlarni oling va o‘rganing.

***3-ilova***

### **«Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiradigan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati**

No	«Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiradigan tashkilotlar	Korxonalar va tashkilotlar tarkibiga kiradigan tuzilmalar ro‘yxati
<b>I. Aksiyadorlik jamiyatları</b>		
1	«Andijon dori-darmon» ochiq, aksiyadorlik jamiyati	Ulgurji omborxona 16 dorixona, 10 filial
2	«Qashqadaryo dori-darmon» ochiq aksiyadorlik jamiyati	Ulgurji omborxona 15 dorixona, 16 filial
3	«Namangan dori-darmon» ochiq aksiyadorlik jamiyati	Ulgurji omborxona 16 dorixona, 78 filial
4	«Navoiy dori-darmon» ochiq aksiyadorlik jamiyati	Ulgurji omborxona, 8 dorixona, 8 filial
5	«Samarqand dori-darmon» ochiq aksiyadorlik jamiyati	Ulgurji omborxona 16 dorixona, 39 filial
6	«Toshkent viloyati dori-	Ulgurji omborxona

	darmon» ochiq aksiyadorlik jamiyati	20 dorixona, 2 filial
7	«Farg‘ona dori-darmon» ochiq aksiyadorlik jamiyati	Ulgurji omborxona 9 dorixona, 38 filial
8	«Toshkent shahar dori-darmon» ochiq aksiyadorlik jamiyati	Ulgurji omborxona 12 dorixona
<b>II «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasiga birlashtiriladigan korxonalar va tashkilotlar</b>		
9	«Qoraqalpoq dori-darmon»	Ulgurji omborxona, 13 dorixona 1 filial
10	«Buxoro dori-darrnon»	Ulgurji omborxona, 13 dorixona 49 filial
11	«Jizzax dori-darmon»	Ulgurji omborxona, 13 dorixona 10 filial
12	«Sirdaryo dori-darmon»	Ulgurji omborxona, 17 dorixona 32 filial
13	«Surxon dori-dannon»	Ulgurji omborxona, 16 dorixona 69 filial
14	«Xorazm dori-darmon»	Ulgurji omborxona, 12 dorixona 2 filial
15	«O‘zbekiston dori ta’minoti»	Ulgurji omborxona, 1 dorixona
16	Dori-darmon garant	

### **Adabiyotlar:**

1. E.R.Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, Ye. B. Juravlyova, M.Z Islomova. Farmatsevtika ishini tashkil qilish(lotin alifbosida darslik) Professor A.N. Yunusxo‘jayevning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, 2007, 224b.
2. E.R.Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, Ye. B. Juravlyova, M.Z Islomova. Farmatsevtika ishini tashkil qilish (kiril alifbosida darslik) Professor A.N. Yunusxo‘jayevning umumiy tahriri osida. – Toshkent, 2007, 223b.

3. E.R.Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, Ye. B. Juravlyova, M.Z.Islomova. Farmatsevtika ishini tashkil qilish. – Toshkent, «Moliya», 2008, 192 b.
4. A.N.Yunusxo'jayev. tahriri ostida X.S.Zaynudinov. va boshq. Farmatsevtika ishini tashkil etish: Elektron o'quv darslik. – T., 2005.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20-may 2005-yildagi 131-sonli «Dori-darmon» Davlat aksiyadorlik uyushmasining «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirish to'g'risidagi qarori.
6. Z.Sh.Hidayatova Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan ma'ruza matnlari. – Toshkent, 2014.

## 2-MAVZU. DORIXONA MUASSASALARIGA FARMATSEVTIKA FAOLIYATI UCHUN LITSENZIYA BERISH

### Ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi

<b>O‘quv soati:</b> 2 soat	Talabalar soni: 45-60 ta
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli</b>	Axborotli, vizualma’ruza.
<b>Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi:</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyatini litsenziyalanadigan turlari.</li> <li>Litsenziya talablari va shartlari.</li> <li>Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash jarayoni.</li> <li>Litsenziya olish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar to‘plami, litsenziya bitimi.</li> </ol>
<b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyatini litsenziyalanadigan turlari, talablari va shartlari. Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash jarayoni. Litsenziya olish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni rasmiylashtirishni o‘rgatish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyatini litsenziyalanadigan turlarini tavsiflash;</li> <li>Litsenziya talablari va shartlariga ta’rif berish;</li> <li>Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash jarayonini o‘rgatish;</li> <li>Litsenziya olish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar to‘plami, litsenziya bitimi haqida ma’lumotlar berish.</li> </ul>	<b>O‘quv faoliyatining natijalari:</b> <i>Talaba:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyatini litsenziyalanadigan turlarini tavsiflaydi;</li> <li>Litsenziya talablari va shartlariga ta’rif beradi;</li> <li>Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash jarayonini o‘rganadi;</li> <li>Litsenziya olish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar to‘plami, litsenziya bitimi haqida ma’lumotlar oladi.</li> </ul>

<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Axborotli, vizual ma'ruza.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, proektor, tarqatma materiallar
<i>O'qitish shakllari</i>	Ommaviy
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

### **Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi**

<b>Bosqichlar, vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>Talaba</b>
	1.1. Mashg'ulot mavzusi va maqsadini aytadi, talabalarning kutilayotgan natijalar yetkaziladi; Mashg'ulot axborotli, vizual ma'ruza shaklida borishini ma'lum qilinadi.	1.1. Tinglaydilar, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy (65 min.)	2.1.O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. (Illova 1,2,3) 2.2.Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi	2.1.Eshitadi. Illovalar mazmunini muhokama qiladi. 2.2.Eslab qoladi, yozadi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min)	3.1.Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.	3.1.Eshitadi, aniqlashtiradi.

## **O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyatini litsenziyalanadigan turlari**


Dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari ishlab chiqarish  
 Dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari tayyorlash  
 Dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari yaratish bo'yicha  
 ilmiy tadqiqot ishlari  
 Dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari sifatini nazorat qilish  
 Dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini chakana sotish  
 Dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini ulgurji sotish  
 Dorivor o'simliklar, hayvonot va mineral asosga ega bo'lgan xomashyoni yetishtirish, yig'ish, tayyorlash, qadoqlash va ulgurji sotish

## **Litsenziya talablari va shartlari**

Farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioxal etish.  
 Litsenziya bitimiga muvofiq manzil bo'yicha faoliyatgni amalgaloshirish  
 Qonuniy asosda tegishli sanitariya normalari va qoidalalariga  
 muvofiq binolarga ega bo'lish.  
 Moddiy-texnika bazasidan, asbob-uskunalaridan foydalanish  
 Tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar talablariga rioxal qilish

### *Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:*

- Guvochnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi.*
- SES xulosasi va chizma.*
- Moddiy-texnika bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalar va xodimlarning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi.*
- To'lov hujjati.*



<b>2-MAVZU</b>	<b>Dorixona muassasalariga farmatsevtika faoliyati uchun litsenziya berish</b>
<b>AMALIY MASHG'ULOTNI O'QITISH TEXNOLOGIYASI</b>	
<i>O'quv soati:</i> 4 soat	<i>Talabalar soni:</i> 10-12 ta
<i>O'quv mashg'u-lotining shakli</i>	Bilimlarni chugurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
<i>Amaliy mashg'u-lotning rejasি</i>	<p>1. Tibbiy faoliyatni va farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi nizom.</p> <p>2. Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida.</p> <p>3. Farmatsevtika faoliyatining litsenziyalanadigan turlari. Litsenziya talablari va shartlari.</p> <p>4. Litsenziya olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar to'plami.</p> <p>5. Litsenziya bitimi talablariga rioya etilishini nazorat qilish.</p> <p>6. Litsenziya berishni rad etish haqida qaror qabul qilish.</p> <p>7. Litsenziyanı qayta rasmiylashtirish.</p>
<i>O'quv mashg'u-lotining maqsadi:</i>	Talabalarni O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyatini litsenziyalanadigan turlari, talablari va shartlari. Litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar, arizalarni ko'rib chiqish, qayta rasmiylashtirish, litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish, dublikat berish. Litsenziya bitimi talablariga rioya etilishini nazorat qilish bilan tanishtirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tibbiy faoliyatni va farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi nizomni o'rgatish;</li> <li>- Farmatsevtika faoliyatini litsenzi-</li> </ul>
<i>O'quv faoliyatining nati-jalari:</i>	
<i>Talaba:</i>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tibbiy faoliyatni va farmatsevtika faoliyatini lit-</li> </ul>

<p>yalash tartibini yanada takomillashirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ma‘lumot berish.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Farmatsevtika faoliyatining litsenziyalanadigan turlari bilan tanishtirish.</li> <li>– Litsenziya talablari va shartlarini o‘rgatish.</li> <li>– Litsenziya olish uchun taqdim etiladigan hujjatlarni to‘plami haqida ma‘lumot berish.</li> <li>– Litsenziya bitimi talablariga rioya etilishini nazorat qilishni o‘rgatish.</li> <li>– Litsenziya berishni rad etish haqida qaror qabui qilish to‘g‘risida tushuncha berish.</li> <li>– Litsenziyani qayta rasmiylashirish ma‘lumotlarini o‘rgatish.</li> </ul>	<p>senziyalash to‘g‘risidagi nizomni o‘rganadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ma‘lumot oladi.</li> <li>– Farmatsevtika faoliyatining litsenziyalanadigan turlari bilan tanishadi.</li> <li>– Litsenziya talablari va shartlarini o‘rganadi.</li> <li>– Litsenziya olish uchun taqdim etiladigan hujjatlarni tavsiflaydi.</li> <li>– Litsenziya bitimi talablariga rioya etilishini nazorat qilish haqida axborot oladi;</li> <li>– Litsenziya berishni rad etish haqida qaror qabul qilish to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladi.</li> <li>– Litsenziyani qayta rasmiylashtirish bo‘yicha axborot oladi.</li> </ul>
<p><i>O‘qitish uslubi va texnikasi</i></p>	<p>Munozara, «Blits» va «Bumerang» usullari, test.</p>
<p><i>O‘qitish vositalari</i></p>	<p>Darslik, ma‘ruza matni, o‘quv ko‘rsatmalar, ko‘rgazmali materiallar, qaror va buyruqlar</p>
<p><i>O‘qitish shakllari</i></p>	<p>Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, guruh bo‘yicha o‘qitish sharoitlari.</p>

**AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK KARTASI**

<b>Bosqich-lar, vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>		<b>Talaba</b>
	<b>O'qituvchi</b>		
1-bosqich. Kirish (20 daq)	<p>1.1. Mashg'ulot mavzusi, rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Dars mashg'uloti guruhlarda ishlash texnologiyasidan foydalangan holda amalga oshirilishini e'lon qiladi. Guruhda ishlash qoidalarini eslatadi. Ish tartibi va reglamentni aniqlashtiradi.</p>		<p>1.1. Eshitadilar, mavzuni yozadilar, savollarga javob beradilar va aniqlashtiradilar.</p>
2-bosqich. Asosiy (110 daq)	<p>2.1. Bilimlarni faollashtirish maqsadida asosiy tushunchalar borasida blits so'rov o'tkazadi (2-ilova).</p> <p>2.1. Talabalarni 3 ta guruhga bo'linadi va (3,4,5-ilova). Guruhga «Bumerang» usullari bo'yicha topshiriqnı va test savollarini tarqatadi. Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova).</p> <p>2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (darslik, ma'ruza matni, o'quv uslubiy ko'rsatma) lardan foydalinish mumkinligini eslatadi.</p> <p>2.4. Vazifani tugallagan talaba ish natijalarini to'g'rilingini tekshirib va kamchiliklarini to'g'rilib turadi.</p>		<p>2.1. O'quv topshiriqlarini, baholash mezonlari bilan tanishadi. Savollarga javob beradi</p> <p>2.2. Guruhda ishlaydilar taqdimotga tayyorlanadilar.</p> <p>2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallidan foydalishadi.</p> <p>2.4. Vazifa-larni tekshirrib, daftarga rasmiylashadir.</p>

3-bosqich. Yakuniy (30 daq)	3.1. Mavzuni yakunlaydi. Talabalar diqqatini asosiy jihatlarga qaratadi. Muammoni hal qilish jarayonida g‘olib bo‘lgan guruuhnani aniqlaydi va baholaydi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beriladi.	3.1. Tinglay-dilar, aniqlash-tiradilar. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.
-----------------------------------	---	--

## Vizual materiallar

O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati litsenziyalanadigan faoliyat turlariga kiradi. Ushbu faoliyatni litsenziyalashtirish jarayoni O‘zR «Alohiba faoliyat turlarini litsenziyalash-tirish to‘g‘risidagi qonuniga muvofiq holda ishlab chiqilgan Vazirlar Mahkamasining 13.05.2010 y. 91-son qarorida belgilangan tartibga asosan o‘tkaziladi.

Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash litsenziatlar tomonidan ushbu sohada yagona davlat siyosatini ta’minlash uchun belgilangan qonunchilik talablarini bajarilayotganligining davlat nazoratidir.

Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi (litsenziyalovchi organ) tomonidan amalga oshiriladi. Litsenziyalar berish to‘g‘risida hujjatlarni ko‘rib chiqish, ularning muddatlarini uzaytirish, ular yuzasidan xulosalar tayyorlash uchun litsenziyalovchi organda ekspert komissiya tuziladi, Ekspert hay’ati tarkibi va nizomini litsenziyalovchi organ tomonidan tasdiqlanadi. Bunda ekspert komissiya tarkibiga majburiy tarzda tegishli ixtisosliklar bo‘yicha mutaxassislar kiritiladi. Ekspert komissiya majlislari kamida oyiga ikki marta o‘tkaziladi.

Farmatsevtika faoliyatining litsenziyalanadigan turlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 1) dori vositalari va tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarish;
- 2) dori vositalari va tibbiyot buyumlarini tayyorlash;
- 3) dori vositalari va tibbiyot buyumlarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari;
- 4) dori vositalari va tibbiyot buyumlarining sifatini nazorat qilish;

- 5) dori vositalari va tibbiyot buyumlarini chakana sotish;
- 6) dori vositalari va tibbiyot buyumlarini ulgurji sotish;
- 7) dorivor o'simliklar, hayvonot va mineral asosga ega bo'lgan xomashyoni yetishtirish, yig'ish tayyorlash, qadoqlash va ulgurji sotish.

«1»-«6» bandlarida ko'rsatilgan farmatsevtika faoliyatini turlarini amalga oshirishga litsenziyalar faqat yuridik shaxslarga berilishi mumkin, bunda «2» va «5» bandlarida ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishga litsenziya faqat dorixona muassasalariga beriladi.

«1» va «2» bandlarida ko'rsatilgan farmatsevtika faoliyatini turlarini amalga oshirish uchun olingan litsenziya litsenziatlarga ular ishlab chiqargan va tayyorlagan dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini sotish huquqini beradi.

Farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun namunaviy (oddiy) litsenziya beriladi.

Yuridik va jismoniy shaxslarga litsenziya 5-yil muddatga beriladi. Litsenziya 5-yildan kam muddatga litsenziya talabgorining arizasiga ko'ra berilishi mumkin.

Yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan farmatsevtika faoliyatini faqat litsenziyada belgilangan faoliyat turi (uning bir qismi) bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

### **Litsenziya talablari va shartlari**

#### **Farmatsevtika faoliyatini amalga oshirishda litsenziyat quyidagilarga majbur:**

- faoliyatni farmatsevtika to'g'risidagi qonun hujjatlarga qat'iy roya etgan holda olib borish;
- faoliyatni litsenziyada ko'rsatilgan faoliyat doirasida, shuningdek litsenziya bitimiga muvofiq manzil (manzillar) bo'yicha amalga oshirish;
- litsenziya talabgori litsenziyalanayotgan faoliyatni amalga oshirish unga mulk huquqi bilan yoki boshqa qonuniy asosda tegishli sanitariya me'yorlari va qoidalalariga muvofiq binolarga ega bo'lishi;

– litsenziyalanadigan aniq faoliyat turini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan, tegashli moddiy-texnik bazadan, asbob-uskunalardan va boshqa texnik vositalardan foydalanish;

– dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, sotish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilish;

– ekologiya va sanitariya-gigiyena me'yorlari va qoidalariga rioya etish.

Dori vositalarini tayyorlashda litsenziat, shuninigdek, dori vositalarini analiz qilish uchun vakolatli nazorat-tahlil laboratoriyasi bilan shartnoma tuzishga majburdir.

Farmatsevtika faoliyatining tegishli turini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik bazaga, asbob-uskunalarga, boshqa texnika vositalari va xodimlarga talablar belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

### **Litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar**

Litsenziya olish uchun litsenziya talabgori litsenziyalovchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) litsenziya berish to'g'risida ariza, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

– yuridik shaxs uchun - yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili, bank muassasasining nomi va bank muassasasidagi hisob raqami);

– jismoniy shaxs uchun – familiyasi, ismi, otasining ismi, fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari;

– yuridik yoki jismoniy shaxs amalga oshirishni mo'ljallayotgan faoliyatning litsenziyalanadigan turi (uning bir qismi) hamda faoliyatning ko'rsatib o'tilgan turi (uning bir qismi) amalga oshiriladigan muddat;

b) yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomanininig notarial tasdiqlangan nusxasi - yuridik

shaxslar uchun; yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi – jismoniy shaxslar uchun;

d) litsenziya berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

e) hududiy sanitariya-epidemiologiya nazorati organining litsenziyalanadigan faoliyat turini amalga oshirish uchun litsenziya talabgoridagi mavjud binolarning sanitariya normalari va qoidalariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi;

f) moddiy-texnika bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalar va xodimlarning mavjudligi to'g'risida ma'lumotnoma;

g) Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi hududiy organlarining farmatsevtika faoliyat turlarining tabiatni muhofaza qilish talablariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi (dori vositalari va tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarish faoliyatini yuritish uchun).

Hujjatlar litsenziya talabgori tomonidan litsenziyalovchi organga bevosita yoxud olinganligi to'g'risidagi bildirishnoma bilan pochta aloqasi vositasini orqali yetkazib beriladi.

Hujjatlar litsenziyalovchi organ ekspert komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan ro'yxat bo'yicha qabul qilinadi, ro'yxatning nusxasi hujjatlar qabul qilib olingan sana to'g'risida belgi qo'yilgan holda litsenziya talabgoriga yuboriladi (topshiriladi). Ekspert komissiya mas'ul kotibi joyida bo'limganligi tufayli hujjatlarning qabul qilinishini rad etishga yo'l qo'yilmaydi. Ekspert komissiya mas'ul kotibi vaqtincha joyida bo'limgan taqdirda uning funksiyalarini belgilangan tartibda litsenziyalovchi organ tomonidan belgilanadigan shaxs bajaradi.

Noto'g'ri yoki buzilgan ma'lumotlar taqdim etilganligi uchun litsenziya talabgori O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

### **Arizalarni ko'rib chiqish va litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish**

Ariza ko'rib chiqilganligi uchun litsenziya talabgoridan qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining besh baravari miqdorida yig'im undiriladi. Litsenziya talabgorlarining arizalari

ko'rib chiqilganligi uchun yig'im summasi litsenziyalovchi organning hisob raqamiga o'tkaziladi. Litsenziya talabgori berilgan arizadan voz kechgan taqdirda to'langan yig'im qaytarilmaydi.

Litsenziya talabgorining barcha zarur hujjatlari ilova qilingan arizasi ular olgan kunda ko'rib chiqish uchun ekspert komissiyaga kiritiladi. Ekspert komissiya o'n besh kun muddatda taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi va ular bo'yicha litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida ekspert xulosasi tayyorlaydi.

Litsenziya talabgorining litsenziya talablari va shartlariga muvofiqligini aniqlash uchun litsenziyalovchi organ ekspert komissiya iltimosiga ko'ra o'z mablag'lari hisobiga:

– litsenziya talabgorida litsenziyalanadigan faoliyat turini amalgaloshirish uchun mavjud sharoitlarni joylarga chiqib baholash;

– tegishli xulosalar tayyorlash uchun shartnomasi asosida ekspertlarni jalb qilish huquqiga ega.

Litsenziyalovchi organ besh kun muddatda ekspert komissiya xulosasi asosida litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu qaror qabul qilishning umumiy muddati ariza va barcha zarur hujjatlar olingan kundan boshlab 20 kundan ortiq bo'imasligi kerak.

Litsenziyalovchi organ tegishli qaror qabul qilingandan keyin uch kun muddatda litsenziya talabgorini qabul qilingan qaror to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi. Litsenziya berishga qaror qilinganligi to'g'risidagi bildirishnomasi litsenziya talabgoriga bank hisob raqami rekvizitlari, davlat boji to'lash muddati ko'rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi.

Litsenziya litsenziya talabgori tomonidan davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandan va litsenziya bitimi imzolanganidan keyin uch kun muddatda beriladi.

Litsenziya bitimi litsenziyalovchi olgan va litsenziyatning huquq va majburiyatlarni belgilovchi hujjat hisoblanadi, unda quyidagilar bo'lishi kerak:

– bitimni imzolagan shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, egallab turgan lavozimi;

– litsenziya asosida amalga oshiriladigan farmatsevtika faoliyati turi (uning bir qismi)ning nomi;

- dorixona muassasasi mudiri (rahbari)ning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- litsenziatga qo‘yiladigan litsenziya talablari va shartlari;
- litsenziyaning amal qilish muddati, uning amal qilish muddati tugaydigan sana ko‘rsatilgan holda;
- litsenziyalanadigan faoliyat turi va amalga oshiriladigan manzil (manzillar);
- litsenziya bitimi talablari va shartlari buzilganligi uchun tomonlarning javobgarligi;
- litsenziyat tomonidan litsenziya bitimi talablari va shartlari bajarilishini litsenziyalovchi organ tomonidan nazorat qilish tartibi;
- farmatsevtika faoliyati xususiyatlariga taalluqli boshqa shartlar;
- tomonlarning rekvizitlari.

Litsenziya qayta rasmiylashtirilgan yoki filial ochilgan taqdirda litsenziya bitimiga o‘zgartirish yoki qo‘srimchalar kiritiladi yoki yangi litsenziya bitimi tuziladi. Litsenziya bitimi ikki nusxada – litsenziyat va litsenziyalovchi organ uchun bir nusxadan tuziladi.

Litsenziyalar maxsus blankalarda rasmiylashtiriladi. Litsenziyalar blankalari qat’iy hisobda turadigan hujjatlar hisoblanadi, hisobga olish seriyasi, tartib raqami va himoyalanganlik darajasiga ega bo‘lishi kerak.

Agar litsenziyat litsenziya berish to‘g‘risida qaror qabul qiliniganligi haqidagi bildirishnomha yuborilgan (topshirilgan) vaqtidan boshlab uch oy mobaynida litsenziyalovchi organiga litsenziya berilganligi uchun davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etmasa yoxud litsenziya bitimini imzolamasa, litsenziyalovchi organ litsenziyani bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqlidir.

### **Litsenziya berishni rad etish**

Litsenziya berish «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha rad etilishi mumkin.

Litsenziya talabgori litsenziyalovchi organning litsenziya berishni rad etilishi to'g'risidagi qarori, shuningdek litsenziyalovchi organ mansabдор shaxsining xatti-harakati (harakatsizligi) yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga egadir.

Litsenziya berish rad etilishi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda rad etish to'g'risidagi bildirishnoma litsenziya talabgoriga rad etishning aniq sabablari va litsenziya talabgori ko'rsatib o'tilgan sabablarni bartaraf etish hujjatlarni takroran ko'rib chiqishga taqdim etish uchun yetarli bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi.

Litsenziya talabgori tomonidan litsenziya berish rad etilishiga asos bo'lgan sabablar bartarasf etilgan taqdirda, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish litsenziya talabgorining arizasi barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda olingan kundan boshlab o'n kundan ortiq bo'limgan muddatda amalga oshiriladi. Bunda takroran taqdim etilgan hujjatlar ular qabul qilingan kunda ko'rib chiqish uchun ekspert komissiyaga kiritiladi.

Ekspert komissiya taqdim etilgan hujjatlarni olti kundan ortiq bo'limgan muddatda ko'rib chiqadi va ular yuzasidan litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida ekspert xulosasi tayyorlaydi.

Litsenziyalovchi organ ekspert komissiya xulosasi asosida to'rt kun muddatda litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Litsenziya talabgorlarining arizalari takroran ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi. Litsenziya berish rad etilganligi to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin berilgan ariza yangidan berilgan ariza hisoblanadi.

### **Litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish**

Yuridik shaxs – litsenziyat qayta tashkil etilgan, uning nomi yoki joylashgan joyi (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, litsenziyat qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bir hafta muddatda litsenziyalovchi organga ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar ilova qilingan holda litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart.

Jismoniy shaxs – litsenziatning familiyasi, ismi, otasining ismi yoki yashash joyi o‘zgargan taqdirda, litsenziat qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyin bir hafta muddatda litsenziyalovchi organga ko‘rsatib o‘tilgan ma’lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar va amaldagi litsenziyaning asl nusxasi ilova qilingan holda litsenziyani qayta rasmiylashtirish to‘g‘risida ariza berishi shart.

Litsenziat litsenziya qayta rasmiylashtirilgunga qadar unda ko‘rsatilgan faoliyatni ilgari berilgan litsenziya asosida amalga oshiriladi.

Litsenziyalovchi organ taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqib kiritilayotgan o‘zgartirishlarni hisobga olgan yangi blankada litsenziyani rasmiylashtiradi va amaldagi litsenziya o‘rniga beradi. Ayni vaqtida litsenziya bitimiga tegishli o‘zgartirishlar rasmiylashtiriladi va litsenziyalar reyestriga teishli o‘zgartirishlar kiritiladi.

Litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish litsenziyalovchi organ tomonidan tegishli hujjatlar ilova qilingan holda litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish to‘g‘risida ariza olingan kundan boshlab besh kun mobaynida amalga oshiriladi.

Litsenziyalarni qayta rasmiylashtirishda litsenziya talabgorining litsenziya berish to‘g‘risidagi arizasi ko‘rib chiqilganligi uchun to‘lanadigan summaning yarmi miqdorida yig‘im undiriladi. Yig‘im summasi litsenziyalovchi organ hisob raqamiga o‘tkaziladi.

### **Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish**

Litsenziyaning amal qilish muddati tugagandan keyin litsenziya litsenziat arizasiga ko‘ra uzaytirilishi mumkin. Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish litsenziya olish uchun nazarda tutilgan tartibda amalgा oshiriladi.

Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ariza litsenziyalovchi organga litsenziyaning amal qilish muddati o‘tgunga qadar ikki oydan kechikmay berilishi kerak.

### **Dublikat berish**

Litsenziya yo‘qotib qo‘yilgan yoki u yaroqsiz holga kelib qolgan taqdirda uning dublikati beriladi. Dublikat olish uchun litsenziat

litsenziyalovchi organga ariza va litsenziya yo'qotib qo'yganligini tasdiqllovchi hujjat bilan murojaat qiladi, shuningdek, litsenziya bergenlik uchun undiriladigan to'lov summasining yarmi miqdorida to'lov to'langanligi to'g'risidagi hujjatni taqdim etadi. Yig'im summasi litsenziyalovchi organ hisob raqamiga o'tkaziladi.

## **Litsenziya bitimini talablariga rioya etilishini nazorat qilish**

Litsenziya bitimi talablariga rioya etilishi ustidan nazorat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda litsenziyalovchi organ tomonidan amalga oshiriladi.

Litsenziyalovchi organ o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

– litsenziyat tomonidan litsenziya talablari va litsenziya bitimlari shartlariga rioya etilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejali tekshirish;

– litsenziya talablari va shartlari litsenziyat tomonidan buzilganligidan dalolat beruvchi hollar mavjud bo'lgan taqdirda qonunda belgilangan tartibda rejadan tashqari tekshirish;

– litsenziyatdan zarur axborotni belgilangan tartibda so'rash va olish:

– tekshirishlar natijalari asosida, litsenziya talablari va shartlarining aniq buzilishlarini ko'rsatgan holda dalolatnomalar (ma'lumotnomalar) tuzish;

– litsenziyatga aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlar chiqarish, bunday buzilishlarni bartaraf etishga majbur bo'lgan muddatlarni belgilash;

– litsenziyaning amal qilishini to'xtatib qo'yish, to'xtatish yoki uni bekor qilish to'g'risidagi qaror chiqarish;

– xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan farmatsevtika faoliyatini litsenziyasiz amalga oshirish hollari aniqlangan taqdirda materiallarni qonun hujjatlarida belgilangan choralar ko'rish uchun belgilangan tartibda yuritish.

Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirishda litsenziyalovchi organ xodimlari tomonidan ikki nusxada

dalolatnama tuziladi, ularning bittasi litsenziyatga beriladi, ikkinchi nusxasi litsenziyalovchi organda qoladi.

Litsenziya berilganligi uchun davlat boji. Farmatsevtika faoliyatini amalgaga oshirishga litsenziya berilganliga yoki ularning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun kam oylik ish haqining o'n baravari miqdorida davlat boji undiriladi. Davlat boji summasi respublika budjetiga o'tkaziladi.

### **1-ilova**

#### **Blits-so'rov uchun savollar**

O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika faoliyatini litsenziyalanadigan turlari.

Farmatsevtik faoliyatni litsenziyalash kim tomonidan amalgaga oshiriladi?

Litsenziya olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar to'plami.

Litsenziya olish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish kim tomonidan amalgaga oshiriladi?

Litsenziya talab va shartlari.

Litsenziya bitimi talablariga rioya etilishini nazorat qilish.

Litsenziya berishni rad etish haqida qaror qabul qilish.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirish.

### **2-ilova**

#### **Guruuh bilan ishlash qoidaları (pedagogik texnologiya «Bumerang» usulidan foydalilaniladi)**

Guruhning har bir a'zosi:

- o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar to'g'risida faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtiroy etishlari lozim.

## Guruhsar uchun topshiriqlar

### *I guruh vazifasi*

- 1.Tibbiy faoliyatni va farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi nizom.
- 2.Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.

### *II guruh vazifasi*

- 1.Farmatsevtika faoliyatining litsenziyalanadigan turlari.
- 2.Litsenziya talablari va shartlari.

### *III guruh vazifasi*

- 1.Litsenziya berishni rad etish haqida qaror qabul qilish.
- 2.Litsenziyanı qayta rasmiylashtirish.

### *Test savollari*

**1. Farmatsevtik faoliyatni litsenziyalash kim tomonidan amalga oshiriladi?**

- A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan.
- B. \*O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan.
- C. Respublika «Dori-darmon» aksionerlik kompaniyasi.
- D. Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi.

**2. Hujjatlarni litsenziyalovchi organda kim tomonidan ro'yxat bo'yicha qabul qilinadi?**

- A. Ma'sul kotib tomonidan.
- B. \* Maxsus komissiya tomonidan.
- C. Maxsus bo'lim tomonidan.
- D. Maxsus xodim tomonidan.

**3. Farmatsevtik faoliyat uchun litsenziya olish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish kim tomonidan amalga oshiriladi?**

- A. \* Ekspert komissiya.
- B. Maxsus bo'lim.
- C. Litsenziya hay'ati.
- D. To'g'ri javob yo'q.

**4. Litsenziya olishdagi hujjatlar to'plamiga kiramagan hujjatlar?**

- A. \* Ariza, guvohnoma. SES xulosasi va chizmasi, moddiy texnik bazasi, to'lov hujjati.
- B. Moddiy-texnik bazasi, SES xulosasi, to'lov hujjati.
- C. Ariza, moddiy-texnik bazasi to'grisidagi hujjat, to'lov hujjati.
- D. Moddiy-texnik bazasi, to'lov hujjati.

**5. Hay'at a'zolari nimalarga asoslangan holda tahlil ishlarini olib boradilar?**

- A. O'zRSSV buyruqlariga binoan.
- B. Hay'at raisi ko'rsatmalariga asosan.
- C. Hay'at qaroriga muvofiq.
- D. \* Barcha javoblar to'g'ri.

**6. Litsenziya bu:**

- A. \* Maxsus hisobdagи hujjat bo'lib, o'zining takrorlanmas tartib raqamiga ega.
- B. Dalolatnoma.
- C. Chiqim hujjati.
- D. Kirim hujjati.

**7. Litsenziya hay'ati qanday guruhdan iborat?**

- A. Hay'at raisi.
- B. Hay'at a'zolari.
- C. Texnik guruh.
- D. \* Barcha javoblar to'g'ri.

**8. Litsenziya hay'ati tarkibiga kimlar kiradi?**

- A. O'zRSSV vakillari.
- B. Respublika hududida farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanuvchi vakillar.
- C. Boshqa mas'ul yuridik shaxslarning vakillari.
- D. \* Hamma javoblar to'g'ri.

## **9. Litsenziya blankalari qanday hujjat hisoblanadi?**

A. Qat iy hisobda turadigan hujjat bo'lib, hisobga olish seriyasiga ega.

B. Tartib raqamiga ega.

C. Himoyalanganlik darajasiga ega.

D. \* Barcha javoblar to'g'ri.

## **10. Dorixona muassalari o'z ish faoliyatlarini qanday me'yirlarga rioya qilgan holda olib boradilar?**

A. \* SanPiN me'yirlariga.

B. Ekologiya me'yirlariga.

C. Gigiyena me'yirlariga.

D. Biologik me'yirlariga.

## **BAHOLASH KO'RSATKICHLARI VA MEZONLARI**

No	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball «5» a'llo
1	O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyatini litsenziyalanadigan turlari.	1
2	Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari	1
3	Tibbiy faoliyatni va farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqidagi qaror	1
4	Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar muomalasi	1
5	Litsenziya olish uchun dorixonanining moddiy texnika bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalar va xodimlarning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnomada qanday ma'lumotlar bo'lishi kerak?	1

### **Mustaqil bajarish uchun vazifalar**

1-vazifa. Quyidagi ma'lumotlarni hisobga olgan holda farmatsevtika faoliyatiga litsenziya olish uchun hujjatlar to'plamini tayyorlang:

- «Farmako» xususiy firmasining dorixonasi;
  - faoliyat turi: dori vositalari bilan chakana savdo qilish, dori tayyorlash;
  - pochta manzili: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Olmazor ko‘chasi 10-uy;
  - dorixona manzili: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, 14-sonli poliklinika;
  - hisob raqami 20208000404299837001 O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati Milliy bankining shahar bo‘limida;
  - MFO 00451;
  - INN 207550042;
  - Tel: 144-20-42
- 2-vazifa. Quyidagi ma’lumotlar asosida farmatsevtika faoliyatiga litsenziya olish uchun hujjatlar to‘plamini tayyorlang:
- ulgurji farmatsevtik firma MCHJ «Tibtexnika»;
  - faoliyat turi: tibbyot buyumlari bilan ulgurji savdo qilish;
  - pochta manzili: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani, Bobur ko‘cha 51-uy;
  - ombor manzili: Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Qibray 45-uy;
  - hisob raqami 20208000824299922085 «Turon» banki;
  - MFO 00358;
  - INN 203225025;
  - Tel: 54-36-28;
- 3-vazifa. Quyidagi dalillar asosida farmatsevtika faoliyatiga litsenziya olish uchun hujjatlar to‘plamini tayyorlang:
- XF «Tabib»ning «Salomatlik» dorixonasining filiali;
  - faoliyat turi: dori vositalaribilan chakana savdo;
  - dorixona manzili: Toshkent sh., Uchtepa tumani, Farhod ko‘cha 27-uy;
  - filial manzili: Toshkent shahar, Uchtepa tumani 10-son poliklinika;
  - hisob raqami 20208000404299837001;
  - MFO 00515;
  - INN 201580502;

- Tel: 74-85-96;

4-vazifa. Ilovada keltirilgan shakl bo'yicha «Farmako» xususiy firmasining mavjud moddiy-texnika bazasi, jihozlari, boshqa texnik vositalar va shtat soni haqida ma'lumotnoma tuzing.

5-vazifa. O'qituvchi tomonidan berilgan hujjatlar to'plami asosida farmatsevtik faoliyatini litsenziyalash bo'yicha espert xulosasini tuzing.

### 5-ilova

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING FARMATSEVTIKA FAOLIYATI BILAN SHUG'ULLANISH UCHUN LITSENZIYA BERISH KENGASHI RAISI ga.....

### A R I Z A

Sizdan \_\_\_\_\_ dorixonasiga

(firma nomi)

litsenziya berishingizni so'raymiz.

Faoliyat turi – \_\_\_\_\_

Pochta manzili –

Faoliyatni amalga oshirish manzili: \_\_\_\_\_

X/r.: \_\_\_\_\_

MFO: \_\_\_\_\_

Tel INN: \_\_\_\_\_

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

1. Guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi.
2. SES xulosasi va chizma.
3. Moddiy-texnika bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalar va xodimlarning mavjudligi to'grisidagi ma'lumotnoma.
4. To'lov hujjati.

Rahbar imzo \_\_\_\_\_  
(f.i.o)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
 SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING  
 FARMATSEVTIKA FAOLIYATI BILAN SHUG'ULLANISH  
 UCHUN LITSENZIYA BERISH KENGASHI RAISI

ga.....

### A R I Z A

(filial ochish uchun)

Sizdan \_\_\_\_\_ ga farmatsevtika

(litsenziyat nomi)

faoliyati bilan shug'ullanish uchun berilgan litsenziya  
 asosida uning \_\_\_\_\_ da

(filial manzili)

tashkil etilayotgan, tayyor turdag'i dori-darmonlar va tibbiy  
 buyumlar bilan chakana savdo qiluvchi-filiali faoliyati uchun ruxsat  
 berishingizni so'rayman.

Litsenziyatning pochta manzili:

INN:

tel:

Bank rekvizitlari:

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

1. Litsenziya nusxasi
2. SES xulosasi chizmasi bilan.
3. Moddiy-texnika bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalar  
 va xodimlarning mayjudligi to'g'risidagi ma'lumotnoma.
4. To'lov hujjati.

Rahbar      imzo      Ismi va familiyasi

Moddiy-texnik baza, asbob-uskunalar, texnik vositalar mavjudligi  
va farmatsevtik xodimlari to`g`risida

**MA`LUMOTNOMA**

(Ushbu ma`lumotnomada yoritilishi tavsiya etiladigan savollar)

1. Yuridik shaxs (litsenziya talabgori) to`g`risida ma`lumotlar:

- nomi, tashkiliy huquqiy shakli, joylashgan manzili.

2. Faoliyatni amalga oshirish uchun tanlangan bino to`g`risida:

- manzili, turar yoki noturar joy, bir qavatli yoki ko`p qavatli binoning birinchi qavati va h.k.;

- yuridik shaxsning binoga egalik huquqi – xususiy mulk yoki boshqa huquqiy asosda (ijara, ishonchnoma va h.k.), ushbu hujjatlar nomi, ro`yxat raqamlari va sanasi ko`rsatilgan holda.

3. Moddiy-texnika bazasining mavjudligi:

- faoliyatni amalga oshirish uchun tanlangan bino (dorixona, dorixona shaxobchasi yoki dori-darmon omborxonasi);

- jihoz (mebellari) – vitrinalar, stellajlar, shkaflar, tagliklar, xonalarni tozalashda ishlatiladigan vositalarni saqlash uchun shkaf, xodimlarning kiyimlari uchun shkaf, stol-stullar;

- asbob-uskunalar -- termometr, psixrometr yoki gigrometr va h.k.;

- texnik vositalar –sovitgich, konditsioner, dori tayyorlash va qadoqlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar.

5. Xodimlar to`g`risida:

- jami nechta xodim ishlaydi. Mas`ul xodim – (dorixona, shaxobcha yoki omborxona mudirining) familiyasi, ismi va otasining ismi, qaysi ta`lim muassasini bitirgan, ixtisosligi, diplom nomeri, seriyasi, berilgan sanasi, qaysi buyruqqa asosan qabul qilingan, ish stoji, malaka oshirganligi, sertifikati).

Rahbar imzo Ismi va familiyasi

## LITSENZIYA BITIMI

« « 200 \_\_\_\_-yil son Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi farmatsevtika faoliyat bilan shug'ullanish uchun litsenziya berishni amalga oshiruvchi organ (keyinchalik matnda «Litsenziyalovchi organ» deb yuritiladi) nomidan vazirning Birinchi muovini, litsenziya Kengashi raisi, Nizom asosida ish olib boruvchi \_\_\_\_\_ bir tomondan va \_\_\_\_\_ (keyinchalik matnda «Litsenziyat» deb yuritiladi) nomidan ustav asosida ish olib boruvchi \_\_\_\_\_

(lavozimi, ismi-sharifi)

ikkinci tomondan, litsenziya shartnomasini quyidagi mazmun va shartlarda tuzdilar.

### I. BITIMNING MOHIYATI

1.1. Litsenziyalovchi organning \_\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_-son qarori bilan litsenziyatga farmatsevtika faoliyatining quyidagi turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziya beriladi: \_\_\_\_\_

1.2 Dorixona mudiri f.i.o.

1.3 Litsenziyaning amal qilish muddati:

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_ 200 \_\_\_\_-yildan « \_\_\_\_ » \_\_\_\_ 200 \_\_\_\_-yilgacha.

1.4. Faoliyatni amalga oshirish manzili (manzillari):  
\_\_\_\_\_

### II. «LITSENZIAT»NING MAJBURIYATLARI:

2.1

- faoliyat yuritishda farmatsevtika to'g'risidagi qonun hujjatlariga qat'iy rioxva etish;

- faoliyatni litsenziyada ko'rsatilgan faoliyat doirasida, shuningdek, litsenziya bitimiga muvofiq manzil (manzillar) bo'yicha amalga oshirish;

- litsenziya talabgori litsenziyalanayotgan faoliyatni amalga oshirish unga mulk huquqi bilan yoki boshqa qonuniy asosda tegishli sanitariya normalari va qoidalariga muvofiq binolarga ega bo'lishi;

- litsenziyalanadigan aniq faoliyat turini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan tegishli moddiy-texnik bazadan, asbob-uskunalardan va boshqa texnik vositalardan foydalananish;
- dori vositalari va tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, sotish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlar talablariga rioya qilish.

2.2. Yuridik shaxs sifatida yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda litsenziyalovchi organni xabardor qiladi.

2.3. Nomi, joylashgan manzili (jismoni shaxslar uchun – familiyasi yoki turar joyi) o'zgargan takdirda, bir haftalik muddatda litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida tegishli hujjatlar ilova etilgan ariza bilan litsenziyalovchi organga murojaat etadi.

2.4. Litsenziyalovchi organning litsenziyani amal qilishni to'xtatib turish qarorini olgan kundan boshlab, to amal qilinishi qayta tiklash qarorida belgilangan kunga qadar faolyatini to'xtatib turadi.

2.5. Dorixona mudiri o'zgargan taqdirda «Litsenziat» litsenziyalovchi organga yangi dorixona mudiri diplomi notarial tasdiqlangan nusxasi va ishga qabul qilinganligi to'g'risidagi buyruqdan ko'chirmani topshiradi va litsenziya shartnomasiga tegishli o'zgarishlar kiritiladi.

### III. «LITSENIYALOVCHI ORGAN» MAJBURIYATLARI:

3.1. Litsenziatning litsenziyani qayta rasmiylashtirish, amal qilishini tugatish, bekor qilish, amal qilish muddatini uzaytirish, faoliyat turini o'zgartirish yoki kengaytirish (filiallar tashkil etish) to'g'risidagi arizalarni qonunda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqadi va qabul qilingan qarorlar to'g'risida litsenziatni qonunda belgilangan muddatlarda xabardor qiladi.

## **IV. LITSENZIATNI LITSENZIYA TALAB VA SHARTLARIGA RIOYA ETISHINI NAZORAT QILISH TARTIBI**

4.1. Litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat litsenziyalovchi organ tomonidan amalga oshiriladi.

4.2. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat amalga oshirilayotganda litsenziyalovchi organlar o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

- litsenziatlar litsenziya talablari va shartlariga rioya etayotganligi ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejali tekshiruvlar o'tkazish;

- litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlari buzilganligidan guvohlik beruvchi dalillar mavjud bo'lgan hollarda, litsenziat talablari va shartlariga rioya etayotganligi ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejadan tashqari tekshiruvlar o'tkazish;

- litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan tekshiruvlar o'tkazilayotganda yuzaga keladigan masalalar bo'yicha litsenziatdan zarur ma'lumotlarni talab qilish va olish;

- tekshiruv natijalari asosida litsenziat yo'l qo'ygan litsenziya talablari va shartlarining aniq qoida buzilishlarini ko'rsatgan holda dalolatnomalar (ma'lumotnomalar) tuzish;

- litsenziat zimmasiga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlar chiqarish, bunday qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddatlarini belgilash;

- litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish.

## **V. LITSENZIYA TALABLARI VA SHARTLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK**

«Litsenziat»ning javobgarligi:

5.1. Litsenziat mazkur litsenziya bitimining 2.1-2.5. bandlariда qayd etilgan talablari va shartlarini bajarmagan holda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida javobgardir.

«Litsenziyalovchi organ» javobgarligi:

5.2. Litsenziyalovchi organ mazkur litsenziya bitimini 3.6. bandlarida qayd etilgan talab va shartlarini bajarmagan holda

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida javobgardir.

## VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Bitimni tuzish va uni bajarishda yuzaga keladigan nizolar belgilangan tartibda xo'jalik sudi tomonidan hal qilinadi.

## VII. BITIMNING MUDDATI

7.1. Mazkur bitim ikki nusxada tuzilgan bo'lib, imzolangan va muhr bosilgan kundan kuchga kiradi, tomonlarda bir nusxadan saqlanadi va litsenziya amal qilish muddatiga qadar bo'lgan muddat ichida amal qiladi.

## VIII. YAKUNIY BITIM

8.1. Litsenziya bitimiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish o'zaro kelishilgan holda yozma ravishda amalga oshiriladi.

8.2. Ushbu litsenziya bitimining huquq va majburiyatlariga tegishli, lekin bitim matniga kirmay qolgan holatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Sog'liqni saqlash vazirligining litsenziyalash tarmog'iga doir buyruqlari asosida amalga oshiriladi.

«LITSENZIYALOVCHI ORGAN» «LITSENZIAT»

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

Manzil:

700011, Tashkent sh, Navoiy kuch.,

12

Tel: 41-18-01, 41-17-01

Faks: 41-17-01

Kengash raisi \_\_\_\_\_

Kelishildi:

Bosh yuriskonsult: \_\_\_\_\_

Tayyorladi: \_\_\_\_\_

M.U

Manzil: \_\_\_\_\_

Faks:

X/r

BMM(MFO)

STIR (INN)

Muassasa rahbari: \_\_\_\_\_

(F.I.SH.)

M.U. \_\_\_\_\_

(Imzo)

## ADABIYOTLAR

1. E.R.Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, Ye. B. Juravlyova, M.Z Islomova.. Farmatsevtika ishini tashkil qilish(lotin alifbosida darslik) Professor A.N. Yunusxo'jayevning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, 2007, 224b.
2. E.R.Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, Ye. B. Juravlyova, M.Z Islomova. Farmatsevtika ishini tashkil qilish (kirill alifbosida darslik) Professor A.N. Yunusxo'jayevning umumiy tahriri osida. - Toshkent, 2007, 223b.
3. E.R.Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, Ye. B. Juravlyova, M.Z Islomova. Farmatsevtika ishini tashkil qilish. Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2008,192 b.
4. A.N Yunusxo'jayev tahriri ostida X.S Zaynudinov va boshq. Farmatsevtika ishini tashkil etish: Elektron o'quv darslik. – T., 2005.
5. 2000-y. 25-may «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati 1-kitob. Toshkent 2001.106-120 betlar.
6. «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni 1997-y. 25-aprel. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati 1-kitob. Toshkent 2001.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil. 13-may «Farmatsevtika faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 91-son qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2010-yil. 11-iyun «Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish» to'g'risidagi 182-son buyrug'i.

### 3-MAVZU. TURLI MULKCHILIK SHAKLIDAGI DORIXONALAR ISHINI TASHKIL QILISH

#### Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

O'quv soati: 2 soat	Talabalar soni: 45-60 ta
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborotli, vizual ma'ruza.
O'quv mashg'ulotning rejasit:	<p>1. Turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar va ularning vazifalari.</p> <p>2 Dorixona muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy- lashtirish.</p> <p>3. Qishloq vrachlik punktida dorixona shaxobchasini tashkil qilish.</p>
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	Talabalarni turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar, dorixona shaxobchalari va ularning vazifalari bilan tanishtirish.
Pedagogik vazifalar:	<p>O'quv faoliyatining natijalari:</p> <p><i>Talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar va ularning vazifalari bilan tanishtirish;</li> <li>• Dorixona muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy- lashtirish haqida ma'lumot berish;</li> <li>• Qishloq vrachlik punktida dorixona shaxobchasini tashkil qilish to'g'risida axborot berish.</li> </ul>
O'qitish uslubi va texnikasi	Axborotli, vizual ma'ruza, tezkor - so'rov
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv ko'rsatmalar,

	proyektor, prezintatsiya
O'qitish shakli	Ommaviy
O'qitish sharoitlari	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona

### Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Bosqich-lar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
	1.1. Ma'ruza mavzusi va maqsadini aytadi, talabalarga kutilayotgan natijalar yetkaziladi. Axborotli, vizual ma'ruza shaklida borishini ma'lum qiladi.	1.1. Tinglay-dilar, yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (65 daq)	2.1 O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. (1,2,3,4 -ilova) 2.2. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.	2.1. Eshitadilar 2.2. Tinglay-dilar, daftarga ko'chirib oladilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daq)	3.1 Mavzudagi umumiy tushunchalardan tezkor-so'rov o'tkaziladi.(4- ilova) 3.2. Mavzu bo'yicha yakun qiladi, savollarga javob beradi	3.1 Savollarga tezkor javob berishadi; 3.2.Savollar berishadi.

## Vizual materiallar Me'yoriy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasining 11-mart 1994-yildagi  
«Dorixona muassasalarini davlat  
tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish»  
to'g'risidagi 132-sonli qarori


O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni saqlash  
vazirligining 27-dekabr 2002-yildagi «Qishloq  
vrachlik punktidagi dorixona shaxobchasi  
tashkil qilish» to'g'risidagi 576-sonli buyrug'i.

O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni saqlash  
vazirligining 30-iyun 2004-yildagi «Dorixona  
muassasalarining moddiy-tekhnika bazasi,  
asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalari va  
xodimlariga bo'lgan talablar asosiy holatlar  
tarminoq standartini tasdiqlash haqida» 304-  
sonli buyrug'i.


## Turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar

- 1. • *Aksiyador*
- 2. • *Xususiy*
- 3. • *Mas'uliyati cheklangan*

## Turli mulkchilik shaklidagi dorixonalarning vazifalari



## TEZKOR-SO'ROV UCHUN SAVOLLAR



<b>3-MAVZU</b>	<b>Turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar ishini tashkil qilish</b>
<b>AMALIY MASHG'ULOTNI O'QITISH TEXNOLOGIYASI</b>	
<i>O'quv soati:</i> 4 soat	<i>Talabalar soni:</i> 10-12 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Amaliy mashg'ulot
<i>Amaliy mashg'ulotining rejasি</i>	<p>1. Turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar va ularning vazifalari.</p> <p>2. Dorixona muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish.</p> <p>3. Qishloq vrachlik punktida dorixonasi shaxobchasini tashkil qilish.</p>
<i>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</i> Talabalarni turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar, dorixona shaxobchalari va ularning vazifalari bilan tanishtirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> <i>Talaba:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>– Turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar va ularning vazifalari bilan tanishtirish;</li> <li>– Dorixona muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish haqida ma'lumot berish;</li> <li>– Qishloq vrachlik punktida dorixona shaxobchasini tashkil qilish to'g'risida axborot berish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– Turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar va ularning vazifalari bilan tanishadi;</li> <li>– Dorixona muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish haqida ma'lumotoladi;</li> <li>– Qishloq vrachlik punktida dorixona shaxobchasini tashkil qilish to'g'risida axborot oladi.</li> </ul>
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Munozara, «Bumerang» va «Klaster» usuli
<i>O'qitish vositalari</i>	Darslik, o'quv ko'rsatmalar, ko'rgazmali materiallar, qaror va buyruqlar

<i>O'qitish shakli</i>	Guruuh va jamoa
<i>O'qitish sharoitlari</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan xona

## AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK KARTASI

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
	1.1. Mashg'ulot mavzusini va maqsadini aytadi, talabalarga kutilayotgan natijalar yetkaziladi. Mashg'ulot «Bumerang», «Klaster» usullarini qo'llash shaklidagi borishini ma'lum qiladi.	1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy bosqich (110 daq)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi. (2,3-ilova) 2.2. Guruhga test savollarini tarqatadi (4-ilova ) 2.3. Baholash mezoni bilan tanishtiradi. (1-ilova) 2.4. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (darslik, ma'ruza matni, o'quv uslubiy ko'rsatma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. 2.5. Ishni tugallagan talaba ish natijalarini to'g'rilingini tekshirib va kamchiliklarini to'g'rilib turadi.	2.1.Savollarga javob beradi. 2.2.Test savollariga javob beradi 2.3.Baholash mezonlari bilan tanishadi. 2.4.Vazifani bajarishda o'quv materiallaridan foydalanishadi 2.5.Tekshirtirib bo'lgach ish daftariga xulosa yozadi.

3-bosqich. Yakuniy (30 daq)	<p>3.1. Mavzu to'g'risida yakuniy xulosa chiqaradi. Olingen bilimlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tibori qaratiladi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beriladi</p>	<p>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</p>
-----------------------------------	---	--

### Vizual materiallar

O'zbekiston Respublikasida Dori vositalari va farmatsevtik faoliyat to'g'risidagi Qonun 1997-yil 25-aprelda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan. Shu qonunga asosan farmatsevtik faoliyat bilan shug'ullanish faqatgina oliy ma'lumotli farmatsevtgagina ruxsat etiladi.

Aholini va DPMlarni dori vositalari bilan ta'minlash ishlarini turli dorixona muassasalari olib boradi. Dorixona muassasalariga dorixonalar, dorixona shaxobchalari, tibbiyot texnikasi magazinlari, optika magazinlari, dorixona omborlari, tibbiyot texnikasi bazalari kiradi.

Dorixona Sog'liqni saqlash muassasasi hisoblanib, uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- aholini va DPMlar, boshqa tashkilotlarni dori-darmonlar, tibbiyot texnikasi buyumlari, sanitariya-gigiyena buyumlari, bemorni parvarishi uchun ishlataladigan buyumlar, bog'lov materiallari dezinfeksiya vositalari va boshqa buyumlar bilan ta'minlash;

- aholidan qabul qilingan retseptlar asosida dorilar tayyorlash, ularning sifatini nazorat qilish, retseptsiz berishga ruxsat etilgan dori vositalarini (sanitariya gigiyena buyumlari, bemorlar parvarishi uchun ishlataladigan buyumlar, shifobaxsh suvlari, dezinfeksiya vositalari) bilan savdo qilish;

- o'ziga biriktirilgan DPMlarni dori vositalari, tibbiyot maqsadida ishlataladigan buyumlar bilan ta'minlash;

– shifokor va boshqa tibbiyot xodimlariga dori-darmonlar, ularning qo'llanilishi ularni o'rmini bosuvchi dori vositalari to'g'risida axborot berish;

– zarurat tug'ilganda aholiga birinchi tibbiy yordam ko'tsatish.

Dorixonalar ko'p qavatlari binolarning birinchi qavatida yoki alohida qurilgan binolarda joylashgan bo'lishi shart. Dorixonalarda kutish zali, assistentlar xonasi, dorilarni aseptik sharoitda tayyorlaydigan xona, qadoqlash xonasi, tovar-moddiy boyliklarni saqlash xonasi bo'ladi. Dorixonada yuqori samaradorlikka erishish uchun mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishni yo'lga qo'yish kerak. Shuningdek sanitariya rejimi va farmatsevtik tartib qoidalariga amal qilish lozim.

• Shunga asosan hozirgi kunda dorixonalarning 3 ta mulkchilik shakli xususiy, aksionerlik va jamoa dorixonalari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi hukumati iqtisodiyotini barqarorlashtirish hamda bozor munosabatlariiga o'tish bo'yicha belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur sharoitlardan biri aholini, shu jumladan, dorixona xodimlarining fael ishchanligini rag'batlantirish lozimligini e'tiborga olib, Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-martdagi 132-sonli qarori tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqi saqlash vazirligining 2002-yil 27-dekabrdagi 576-sonli buyrug'iiga asosan, qishloq aholisini, ayniqsa tog'li o'lka-hududida joylashgan qishloqdagilarni dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida qishloq vrachlik punktida dorixona shaxobchalarini ochish maqsadga muvofiqdir.

Dorixona shaxobchasining asosiy vazifasi aholiga tayyor dori vositalari, sanitariya-gigiyena va bemorlar parvarishida qo'llaniladigan buyumlar, dorivor giyoqlar, bog'lov materiallari va boshqa tibbiyot buyumlarini sotishdan iboratdir:

– dorixona shaxobchasi o'z faoliyatini yuritish uchun kerakli jihozlar (shkaf, vitrina, stellaj, muzlatgich, stol, stul va h.k.) bilan jihozlanishi hamda tegishli qo'llanma va buyruqlar bilan ta'minlanishi lozim;

– dorixona shaxobchasining mudiri lavozimiga qishloq vrachlik punkti xodimlari tarkibidagi o'rta tibbiyot ma'lumotli shaxs

(o'rindoshlik asosida) yoki shaxobchani ta'minlovchi xo'jalik hisobidagi dorixona xodimi tayinlanishi mumkin;

– dorixona shaxobchasining mudiri hududiy Sog'liqni Saqlashning bo'limi hamda dorixona shaxobchasining dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlovchi xo'jalik hisobidagi dorixona o'rtasidagi kelishuvga muvofiq buyruq asosida tayinlanadi;

– dorixona shaxobchasining mudiri qishloq vrachlik punkti xodimlaridan tayinlansa, tuman Sog'liqni saqlash bo'limining kafolat xatiga binoan dorixona shaxobchasining mudiri va ta'minlovchi dorixona mudiri o'rtasida moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma tuziladi. Bu holda dorixona shaxobchasi tayyor dori vositalari, bog'lov materiallari va boshqa tibbiyot buyumlari bilan dorixona tomonidan ta'minlanishi tuman Sog'liqni saqlash bo'limi bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi;

– dorixona shaxobchasining mudiri unga berilgan barcha tovar-moddiy boyliklarga to'liq moddiy javobgar hisoblanadi hamda belgilangan tartibda va muddatda dorixonaga oylik topshiradi.

Dorixona shaxobchasi o'zining asosiy vazifalarini bajarishda quyidagilarga amal qilishi lozim:

– aholiga sifati kafolatlangan va O'zbekiston Respublikasida tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat etilgan dori vositalari va tibbiyot buyumlarini sotish;

– O'zbekiston Respublikasining «Dori vositalari farmatsiyika faoliyati to'g'risida» gi, «Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida» gi Qonunlariga va boshqa amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan qoidalarga rioya qilish.

## **(Pedagogik texnologiya Bumerang usulidan foydalaniлади) Guruh bilan ishlash qoidalari**

Guruhnинг har bir a'зоси:

- o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar to`g'risida faol hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhnинг baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

### **Guruхlar uchun topshiriqlar**

#### ***I guruh vazifasi***

1. Dorixonaning vazifalari.
2. Turli mulkchilik shaklidagi dorixona shaxobchalarini.


#### ***II guruh vazifasi***

1. Xususiy aksiyador va jamoa dorixonalari, ularning bir-biridan farqlarini, dorixona shaxobchasi, uning vazifalarini bajarishda amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalarni o'rgatish.
2. Aksiya, uning turlari

#### ***III guruh vazifasi***

1. Dorixona shtati.
2. Dorixona shaxobchasi, uning vazifasi

## Klaster usulida turli mulkchilik shaklidagi dorixonalarining tasviri



## Test savollari

**1. Aksiyadorlik dorixonasining asosiy vazifasi:**

- A. Dori vositalari bilan ta'minlash.
- B. Aholini dori vositalari bilan ta'minlash.
- C. Sog'liqni saqlash muassasalarini dori vositalari bilan ta'minlash.
- D. Sog'liqni saqlash muassasalarini va aholini dori vositalari va tibbiy texnika mahsulotlari bilan ta'minlash.
- E. hamma javoblar to'g'ri.

**2. Dorixonaning ustav fondi deganda nimani tushunasiz?**

- A. Asosiy va aylanma mablag'lardan iborat tovar-mulk.
- B. Asosiy mablag'lardan iborat tovar-mulk.
- C. Aylanma mablag'lardan iborat tovar-mulk.
- D. Dorixonaning tovar-mulki.
- E. Dorixonaning shtati.

**3. Aksiyaderlik dorixonasi qachondan boshlab yuridik shaxs huquqiga ega bo'ladi ?**

- A. O'z nomlari yozilgan to'rtburchakli muhrga, bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa schetlarga ega bo'lgan hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab.
- B. O'z nomlari yozilgan uchburchakli muhrga ega bo'lgan vaqtdan boshlab.
- C. Boshqa schetlarga ega bo'lgan vaqtdan boshlab.
- D. Faqat hisob-kitob schetlariga ega bo'lgan vaqtdan boshlab.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

**4. Aksiya bu?**

- A. Aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda, jamiyatning foydasiga.
- B. Jamiyatning ustav kapitaliga qo'shilgan mablag'ni tasdiqlovchi qimmatli qog'oz.
- C. Nominal qiymatni to'lash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz.
- D. Veksel.
- E. Obligatsiya.
- F. Depozit sertifikati.

**5. Xususiy dorixona boshqa dorixonalardan qanday ko'rsatkichi bilan farqlanadi?**

- A. Ishchilar soni bilan.
- B. Boshqarish prinsiplari bilan.
- C. Mustaqil balansga va bankdagi hisob raqamiga ega bo'lishi bilan.
- D. Mustaqil bo'Imagan balansi bilan.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

**6. Dividend bu ?**

- A. Har bir aksiyaga to'g'ri keladigan foydaning bir qismi.
- B. Aksiyadorlar orasida taqsimlanadigan foydaning bir qismi.
- C. Har bir aksiyaga to'g'ri keladigan va aksiyadorlar orasida taqsimlanadigan foydaning bir qismi.

- D. Aksiya.
- E. Veksel.

**8. Aksiya egalariga berilgan huquqlar hajmiga qarab aksiyalar necha xil bo'ladi?**

- A. 2 xil.
- B. 10 xil.
- C. 4 xil.
- D. 3 xil.
- E. 8 xil.

**9. Xususiy dorixonada sanitariya kuni qanday muddatda o'tkaziladi ?**

- A. Har 5 yilda.
- B. Har yili.
- C. Har oyda.
- D. Har 10 yilda.
- E. Har chorakda.

**10. Xususiy dorixona boshqa dorixonalardan qanday ko'rsatkichi bilan farqlanadi?**

- A. Ishchilar soni va ish hajmi bilan.
- B. Boshqarish prinsiplari bilan.
- C. Mustaqil balansga va bankdagi hisob raqamiga asosan.
- D. Mustaqil bo'Imagan balansga.
- E. Ish hajmi bilan.

**11. Xususiy dorixonada sanitariya kuni qanday muddatda o'tkaziladi?**

- A. Har kuni.
- B. Har 10 kunda.
- C. Har oyda.
- D. Har smenada.
- E. Har yili.

**12. Dorixona shaxobchasini DPM maydonida ochishiga ruxsat etiladimi?**

- A. Bosh shifokorning ruxsati zarur.
- B. Ruxsat etilmaydi.
- C. Soliq idorasining ruxsati kerak.
- D. dorixona rahbari tashabbusi zarur.
- E. ruxsat etiladi.

## **BAHOLASH KO'RSATKICHLARI VA MEZONLARI**

No	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball «5» a'llo
1	Turli mulkchilik shaklidagi dorixona va shaxobchalari ularning vazifalari bilan tanishtirish.	1
2	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori va O'Z.RSSVning «Qishloq vrachlik punktida dorixona shaxobchasini tashkil qilish « to'g'risidagi buyrug'i bilan tanishtirish.	1
3	Dorixona xonalarining tarkibi, ularni faoliyat turiga qarab jihozlanishi.	1
4	Dorixonalarning taskiliy tuzilishi	1
5	Dorixona xodimlarining lavozim nomenklaturasi	1

## **Mustaqil bajarish uchun vazifalar**

1. Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi Qonun haqida ish daftaringizga yozing (O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati 1-kitob 5-13- betlar).
2. Dorixonada mavjud bo'lgan bo'limlarni e'tiborga olib, ularning tashkiliy tuzilishini daftaringizga yozing.
3. Aksionerlik, jamoa va xususiy dorixonalar, ularning bir-biridan farqlarini yangi pedagogik texnologiyalardan Klaster usulidan foydalanib ish daftaringizga yozing.
4. Aksionerlik dorixonalar muassasalari funksiyalarining sxemasini chizing (1-ilova).
5. [www.doridarmon.uz](http://www.doridarmon.uz) saytiga kirib O'zbekistondagi dorixonalar tarixiga oid ma'lumotlarni o'rganib chiqing.

### **Aksiyador dorixona muassasalari funksiyalarining sxemasi**

Aholi va DPMlarni dori darmonlarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish	O'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasining qonun va me'yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshirish
O'z ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatlarini mustaqil belgilash	O'z faoliyatlarini to'liq xo'jalik hisobi asosida mustaqil amalga oshirish
Ishlab chiqarish va savdo faoliyatları	Sharmomada ko'rsatilgan muddatda o'zlarining ishlab chiqarish, xo'jalik savdo turi faoliyatlarini o'zgartirmaslik
Davlat, kooperativ jamoa korxonalari firmalari, alohida shaxslar bilan tovar yetkazib berish bo'yich shartnomalar tuzish	Aholiga tovarlarni erkin shartnomaviy narxlarda sotish va boshqa xizmatlar ko'rsatish
Tadbirkorlikni rivojlantirish asosida dori darmonlarni ko'paytirish	Talabalar va kursantlar uchun ishlab chiqarish amalyoti va stajirovka o'tish bazasi

Aksiya va obligatsiyalarni chiqarish (mehnat jamoalariga) va boshqa aksiyadorga tarqatish	Mulk tarkibiga o'zgartirishlarni mustaqil kiritish
--	---

6. Dorixona mudiri muovini moddiy javobgarligi haqida shartnoma tuzing.

### Shartnoma

(to'liq moddiy javobgarlik haqida)

Moddiy boyliklar saqlanishini ta'minlash maqsadida keyingi o'rinda «Ish beruvchi» deb nomlangan «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasi raisi A.Komilov 4-dorixona mudiri muovini lavozimiga tavsiya etilgan M.Ya.Yakubov keyingi o'rinda «Ishchi» deb nomlangan shaxs bilan quyidagi tartibda shartnoma tuzildi.

1. Lavozimni egallagan ishchi dori-darmonlar va tibbiyot mahsulotlarining qabul qilib olish, saqlash va berish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'liq moddiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, tovar moddiy boyliklarini saqlashda quyidagi vazifalar bajarilishi shart:

a) muassasa tomonidan saqlash yoki boshqa maqsadlarda berilgan moddiy boyliklarga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak, zarar ko'rmaslik choralarini topish kerak;

b) moddiy boyliklarni saqlash haqidagi barcha holatlari haqida o'z vaqtida ish beruvchiga axborot berib turish kerak;

d) belgilangan tartibda tovar-pul harakatlari haqida hisob olib berib, ular haqida hisobot tuzib berish shart;

e) inventarizatsiya vaqtida qatnashishi kerak.

2. Ish beruvchining burchlari:

a) moddiy boyliklarni to'liq saqlanishini ta'minlash va normal mehnat qilish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni ishchiga yaratib berishi lozim;

b) ishchining moddiy javobgarligi haqidagi, muassasaga keltirilishi mumkin bo'lgan zararlar haqidagi qonunlar hamda moddiy boyliklarning amaldagi yo'riqnomalari, me'yorlari, saqlash, qabul qilish, qayta ishslash, sotish kabilalar haqidagi hujjatlar bilan ishchini tanishtirish shart.

## **Mustaqil bajarish uchun vazifalar**

1. Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi Qonun haqida ish daftaringizga yozing (O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati 1-kitob 5-13- betlar).
2. Dorixonada mavjud bo'lgan bo'limlarni e'tiborga olib, ularning tashkiliy tuzilishini daftaringizga yozing.
3. Aksionerlik, jamoa va xususiy dorixonalar, ularning bir-biridan farqlarini yangi pedagogik texnologiyalardan Klaster usulidan foydalanib ish daftaringizga yozing.
4. Aksionerlik dorixonalar muassasalari funksiyalarining sxemasini chizing (I-ilova).
5. [www.doridarmo.uz](http://www.doridarmo.uz) saytiga kirib O'zbekistondagi dorixonalar tarixiga oid ma'lumotlarni o'rganib chiqing.

### **Aksiyador dorixona muassasalari funksiyalarining sxemasi**

Aholi va DPMlarni dori darmonlarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish	O'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasining qonun va me'yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshirish
O'z ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatlarini mustaqil belgilash	O'z faoliyatlarini to'liq xo'jalik hisobi asosida mustaqil amalga oshirish
Ishlab chiqarish va savdo faoliyatları	Sharmomada ko'rsatilgan muddatda o'zlarining ishlab chiqarish, xo'jalik savdo turi faoliyatlarini o'zgartirmaslik
Davlat, kooperativ jamoa korxonalari firmalari, alohida shaxslar bilan tovar yetkazib berish bo'yich shartnomalar tuzish	Aholiga tovarlarni erkin shartnomaviy narxlarda sotish va boshqa xizmatlar ko'rsatish
Tadbirkorlikni rivojlantirish asosida dori darmonlarni ko'paytirish	Talabalar va kursantlar uchun ishlab chiqarish amalyoti va stajirovka o'tish bazasi

Aksiya va obligatsiyalarni chiqarish (mehnat jamoalariga) va boshqa aksiyadorga tarqatish	Mulk tarkibiga o'zgartirishlarni mustaqil kiritish
--	---

6. Dorixona mudiri muovini moddiy javobgarligi haqida shartnoma tuzing.

### Shartnoma

(to'liq moddiy javobgarlik haqida)

Moddiy boyliklar saqlanishini ta'minlash maqsadida keyingi o'rinda «Ish beruvchi» deb nomlangan «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasi raisi A.Komilov 4-dorixona mudiri muovini lavozimiga tavsiya etilgan M.Ya.Yakubov keyingi o'rinda «Ishchi» deb nomlangan shaxs bilan quyidagi tartibda shartnoma tuzildi.

1. Lavozimni egallagan ishchi dori-darmonlar va tibbiyot mahsulotlarining qabul qilib olish, saqlash va berish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'liq moddiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, tovar moddiy boyliklarini saqlashda quyidagi vazifalar bajarilishi shart:

a) muassasa tomonidan saqlash yoki boshqa maqsadlarda berilgan moddiy boyliklarga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak, zarar ko'rnaslik choralarini topish kerak;

b) moddiy boyliklarni saqlash haqidagi barcha holatlar haqida o'z vaqtida ish beruvchiga axborot berib turish kerak;

d) belgilangan tartibda tovar-pul harakatlari haqida hisob olib borib, ular haqida hisobot tuzib berish shart;

e) inventarizatsiya vaqtida qatnashishi kerak.

2. Ish beruvchining burchlari:

a) moddiy boyliklarni to'liq saqlanishini ta'minlash va normal mehnat qilish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni ishchiga yaratib berishi lozim;

b) ishchining moddiy javobgarligi haqidagi, muassasaga keltirilishi mumkin bo'lgan zararlar haqidagi qonunlar hamda moddiy boyliklarning amaldagi yo'riqnomalari, me'yorlari, saqlash, qabul qilish, qayta ishlash, sotish kabilalar haqidagi hujjatlar bilan ishchini tanishtirish shart.

3. Ishchining aybi bilan moddiy javobgarlikni saqlash ta'minlanmagan holatlarda, zarar ko'rish aniqlangan bo'lsa, bu zararni qoplash amaldagi qonunlarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi

4. Ishchining aybi bo'lmasa, u moddiy javobgar bo'lmaydi.

5. Ushbu shartnoma butun ish vaqtida o'zining ta'sir kuchiga ega.

6. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuziladi, 1-nusxasi ish beruvchida, ikkinchisi ishchida bo'ladi.

Ish beruvchi Ishchi

Toshkent.sh 5 Toshkandiy

32-uy imzo 20-fevral 2004-yil

«Dori-darmon»AK

Toshkent.sh

Oxunboboyev maydoni

Uy II

Imzo

20-fevral 2015-yil

## 4-MAVZU. DORI VOSITALARI RETSEPTSIZ SAVDOSINI TASHKIL QILISH

### Ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi

O‘quv soati: 2 soat	Talabalar soni: 45-60 ta
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Axborotli, vizual ma’ruza
O‘quv mashg‘ulotining rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zRSSVning «Shifokor retseptsiz sotiladigan dori vositalarining ro‘yxati.</li> <li>2. Xalqaro amaliyotda dori vositalari turkumlanishi prinsiplari.</li> <li>3. ATS turkumlanish tizimi.</li> <li>4. OTS – vositalar tizimi retseptsiz sotiladigan vositalariga qo‘yilgan asosiy talablar, ishlab chiqaruvchi firmalar va ularning rivojlanish istiqbollari.</li> <li>5. Dori vositalarini retseptsiz berish va dorixona assortimenti.</li> <li>6. Farmatsevtik tovarlarni shtrixli kodlash tizimi va markalash.</li> </ol>
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:	Talabalarga Dori vositalarini retseptsiz berish va dorixona assortimentini o‘rgatish.
Pedagogik vazifalar:	<p><i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p><i>Talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• O‘zRSSVning «Shifokor retseptsiz sotiladigan dori vositalarining ro‘yxati bilan tanishish.</li> <li>• ATS turkumlanish tizimi bilan tanishtirish.</li> <li>• OTS – vositalar tizimi</li> </ul>

retseptsiz sotiladigan vositalariga qo'yilgan asosiy talablar, ishlab chiqaruvchi firmalar va ularning rivojlanish istiqbollarini o'rgatish.	retseptsiz sotiladigan vositalariga qo'yilgan asosiy talablar, ishlab chiqaruvchi firmalar va ularning rivojlanish istiqbollarini mazmunini yoritadi.
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Dori vositalarini retseptsiz berish va dorixona assortimentini o'rgatish.</li> <li>• Farmatsevtik tovarlarni shtrixli kodlash istiqbollarini bilan tanishtirish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Dori vositalarini retseptsiz berish va dorixona assortimentini o'rganishdi.</li> <li>• Farmatsevtik tovarlarni shtrixli kodlash va markalash tizimini tavsiflaydi.</li> </ul>
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Axborotli, vizual ma'ruza.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, o'quv ko'rsatmalar, proyektor
<i>O'qitish shakli</i>	Ommaviy
<i>O'qitish sharoitlari</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona


### MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK KARTASI

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni		Talaba
	O'qituvchi		
	1.1. Mashg'ulot mavzusini va maqsadini aytadi, talabalarga kutilayotgan natijalar yetkaziladi; Mashg'ulot axborotli ma'ruza shaklida borishini ma'lum qilinadi		1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar va ma'ruza matnlarini oladilar.
2-bosqich. Asosiy (65 daq.)	2.1 O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi (1,2,3-ilova). 2.2. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.		2.1. Eshitadilar. 2.2. Tinglaydilar, daftarga

		ko'chirib oladilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1.Mavzudagi umumiy tushunchalardan tezkor-so'rov o'tkaziladi. (4-ilova)  3.2.Mavzu bo'yicha yakun qiladi, Savollarga javob beradi	3.1. Sa-vollarga tezkor javob berishadi; 3.2.Eshitadi aniq-lashtiradi.

### Vizual materiallar ATS turkumlanish tizimini tavsiflash.

1-ilova



2-ilova


### Dori vositalarini retseptsiz berish va dorixona assortimenti

Retseptsiz dorilarni berish (dunyo bo'yicha atama qabul qilingan Over the counter drug – OTC – drug) dorixona asosini tashkil etadi. Tibbiy buyumlar ham dorixona assortimentida muhim o'rinn tutadi: bog'lov materiallari, kasallarni parvarish qilishda ishlafiladigan buyumlar, parafarmatsevtik vositalar, mineral suvlar, ko'zoynakli optika buyumlari

## Farmatsevtik tovarlarni shtrixli kodlash va markalash haqida qisqacha ma'lumot

Shtrixli kodlash tovarning narxi, saqlash muddati va boshqa zarur ma'lumotlarni olishda qo'llaniladi. Berilgan kod bo'yicha zarur parametr (narxi, soni, yetkazib beruvchi qadoqlash turi, saqlash muddati va boshqa)lar haqida kerakli ma'lumot olinadi. Farmatsevtika mahsulotlarini markalash qoidalarini Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi vakolatli organi Dori vositalari va tibbiy texnika sisatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi belgilaydi.

### Tezkor-so'rov



<b>4-MAVZU</b>	<b>Dori vositalari retseptsiz savdosini tashkil qilish</b>
<b>Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi</b>	
<i>O‘quv soati:</i> 4 soat	<i>Talabalari soni:</i> 10-12 ta
<i>O‘quv mashg‘uloti shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot
<i>Amaliy mashg‘ulotining rejasি</i>	<p>1. O‘zRSSVning «Shifokor retseptisiz» sotiladigan dori vositalarining ro‘yxati.</p> <p>2. Xalqaro amaliyotda dori vositalari turkumlanishining prinsiplari.</p> <p>3. ATS turkumlanish tizimi.</p> <p>4.OTS – vositalar tizimi retseptsiz sotiladigan vositalariga qo‘yilgan asosiy talablar, ishlab chiqaruvchi firmalar va ularning rivojlanish istiqbollari.</p> <p>5.Dori vositalarini retseptsiz berish va dorixona assortimenti.</p> <p>6.Farmatsevtik tovarlarni shtrixli kodlash tizimi va markalash.</p>
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> Talabalarga Dori vositalarini retseptsiz berish va dorixona assortimentini o‘rgatish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• O‘zRSSVning «Shifokor retseptisiz» sotiladigan dori vositalarining ro‘yxati bilan tanishtirish.</li> <li>• ATS turkumlanish tizimi bilan tanishtirish.</li> <li>• OTS – vositalar tizimi retseptsiz sotiladigan vositalariga qo‘yilgan asosiy talablar, ishlab chiqaruvchi firmalar va ularning rivojlanish istiqbollari bilan tanishtirish.</li> </ul>	<i>Talaba:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• O‘zRSSVning «Shifokor retseptisiz» sotiladigan dori vositalarining ro‘yxatini o‘rganadi.</li> <li>• ATS turkumlanish tizimi bilan tanishadi.</li> <li>• OTS – vositalar tizimi retseptsiz sotiladigan vositalariga qo‘yilgan asosiy talablar, ishlab chiqaruvchi firmalar va ularning rivojlanish istiqbollari bilan tanishadi.</li> <li>• Dori vositalarini retseptsiz</li> </ul>

<ul style="list-style-type: none"> <li>Dori vositalarini retseptsiz berish va dorixona assortimentini o'rgatish.</li> <li>Farmatsevtik tovarlarni shtrixli kodlash va markalash tizimi bilan tanishishadi.</li> </ul>	<p>berish va dorixona assortimentini o'rganadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Farmatsevtik tovarlarni shtrixli kodlash va markalash tizimi bilan tanishishadi.</li> </ul>
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Munozara. Bumerang usuli,
<i>O'qitish vositalari</i>	Darslik, o'quv ko'rsatmalar, ko'rgazmali materiallar, qaror va buyruqlar
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoaviy
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan xona

### Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (20 daq.)	<p>1.1. Mavzuning maqsadi, rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va 1.2. dolzarbligini asoslaydi.</p>	1.1 Tinglaydilar, yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (110 daq.)	<p>2.1. Talabalar javobini tinglaydi, tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi.</p> <p>2.2. Talabalarni № ta guruhga ajratadi. Guruhga «Bumerang» usullari bo'yicha berilgan savollarni tarqatadi. Baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova )</p> <p>2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (darslik, ma'ruza matni, o'quv uslubiy ko'rsatma) lardan foydalаниш mumkinligini eslatadi.</p> <p>2.4. Ishni tugallagan talaba ish natijalarini to'g'riligini tekshirib va</p>	<p>2.1. Savollar beradi.</p> <p>2.2.O'quv topshiriqlari, baholash mezonlari bilan tanishadi.</p> <p>2.3.Vazifani bajarishda o'quv materiallari (darslik, ma'ruza matni, o'quv uslubiy ko'rsatma)</p>

	kamchiliklarini to'g'rilab turadi.	laridan foydalanadi. 2.4. Tekshirtirib bo'lgach ish daftariga xulosa yozadi.
3-bosqich. Yakuniy (30 daq.)	3.1. Mavzu to'g'risida yakun qiladi, olingan bilimlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tibori qaratiladi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beriladi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi  3.2. Topshiriqni yozib oladi.

### Vizual materiallar

Shifokor retseptisiz beriladigan dori vositalari dorixona chakana savdosining asosi hisoblanadi. Masalan, retseptsiz sotiladigan dori va boshqa mahsulotlar dorixona aylanamasining hozirgi kunda 80-90% ini tashkil etadi. Bunga quyidagi omillar ta'sir qilmoqda:

- dori vositalarining assortimentini ortib borishi;
- aholining bilim darajasi va saviyasini o'sishi;
- o'zini va oila a'zolarining sog'lig'iga e'tiborli bo'lish;
- sog'lom turmush tarziga ega bo'lish.

Retseptsiz dorilarni berish (dunyo bo'yicha atama qabul qilingan over the counter drug – OTC – drug) dorixona asosini tashkil etadi. Sog'liqni saqlash tizimida davlatning olib borgan siyosati, har bir odamning dori vositalarini tanlab olish huquqi, sog'lig'iga bo'lgan javobgarligi dorixonadagi bu yo'nalishning ahamiyatini tobora oshirmoqda. Rivojlangan davlatlarda kasallikka chalingan odamlar zamonaviy dori vositalari, biologik faol moddalar va boshqa usullar yordamida o'z-o'zini davolash bilan shug'ullanib, shu omillar ta'sirida bir qator mamlakatlarda o'z-o'zini davolash «javobgarligi» konsepsiysi Sog'liqni saqlash ishlarini davlat siyosati miqyosida olib borilmoqda.

Retseptsiz beriladigan dori vositalarini ratsional qo'llanilishi o'z-o'zini davolash javobgarligida quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- ✓ *shifokor retsepti talab etilmaydigan dori vositasini olish tartibini aniqlash;*
- ✓ *iste'molchining ko'proq ma'lumot olishi uchun o'zgacha usullarni ishlab chiqish;*
- ✓ *retseptsiz beriladigan dori vositalari reklamasiga bo'lgan talablarni ishlab chiqish;*
- ✓ *mustaqil ta'lim olish;*
- ✓ *qayd qilish tartibi.*

Retseptsiz dori vositalarining savdosi, odatda, dorixonada alohida bo'lim tashkil etib olib boriladi. Bu bo'lim savdo zalida joylashadi va jihozlanishi sanitariya hamda texnik me'yorlarga mos bo'lishi kerak. Dorixona assortimentini yaqqol ko'rsatish va reklama qilish uchun savdo zalida alohida vitrinali stol ochish mumkin.

Bo'limni farmatsevt boshqaradi, bo'limda oliy va o'rta maxsus ma'lumotli farmatsevtlar ishlaydi.

**Tibbiy buyumlar ham dorixona assortimentida muhim o'rinn tutadi:**

**Bog'lov materiallari.** Bog'lov materiallarining asosiy funksional ahamiyati yaraning ikkilamchi infeksiyadan himoya qilish, tezroq bitib ketishi uchun sharoit yaratishdir. Asosiy bog'lov materiallariga doka, dokali bint va paxta kiradi.

**Kasallarni parvarish qilishda ishlataladigan buyumlar.**

Ularga quyidagi vositalar kiradi:

1. Rezinali grelkalar, Esmarx krujkasi, kompresli klyonkalar, belbog'lar, bandajlar, tibbiyot bankalari, ko'zni yuvish uchun vannalar va boshqalar.
2. Yotib qolgan kasallarning hojati uchun zarur buyumlar.
3. Kasalning shaxsiy gigiyenasi uchun zarur buyumlar (matraslar, choyshablar, rezina matoli buyumlar).
4. Dori vositasini qabul qilish uchun idishlar.

**Gigiyena va kosmetika vositalari.** Bu guruhga: atirsovun, pasta va tish kukunlari, suyuq parfyumeriya vositalari, kosmetik kremlar va boshqa tovarlar kiradi.

Mineral suvlar deb, tarkibida noorganik mineral tuzlar va ionlar bo'lib, odam organizmiga shifobaxsh xusuiyati bo'lgan, gaz bilan boyitilgan, biologik faol, spetsifik xususiyatlari mavjud bo'lgan tabiiy suvga aytildi. Minerallashtirish darajasiga qarab (1 dan 10g/l) va (1 dan 15g/l)ga bo'linadi. Faol komponentlar saqlanishiga qarab suvlari: uglerod saqlovchi («Borjomi», «Narzan», «Essentuki»), temir moddali («Arman»), mishyakli («Vayxir»), borli («Lazarevskaya»), kremniyli («Djava»), bryumli («Yurmala»), organik moddalar saqlovchi («Naftusiya») turlari mavjud.

Mineral suv idishlarining markirovkasida: ishlab chiqargan korxona nomi, uning tovar belgisi, suv turi, uning guruhi, buлоq nomi yoki nomlanishi, minerallashgani (g/l), ishlatilishi, quylgan vaqt, saqlanish muddati, standart ko'satkichi yoziladi.

**Ko'zoynakli optik buyumlar.** Asosiy ko'z korreksiyasi va himoyasi uchun qo'llaniladigan vositalar ko'zoynaklar hisoblanadi. Davlat standartiga binoan 4 ta asosiy ko'zoynakli linzalar turi mavjud: A – afokal, O – bir fokalli, B – bifokalli, T – trifokal.

Shtrixli kodlash tovarning narxi, saqlash muddati va boshqa zarur ma'lumotlarni olishda hamda savdoni avtomatlashtirilgan tizimlarida qo'llaniladi. Dori vositasi haqidagi ma'lumot va saqlash uchun elektron holatda kod qo'yiladi. Berilgan kod bo'yicha zarur parametr (narx, soni, yetkazib beruvchi, qadoqlash turi, saqlash muddati va boshqa) lar haqida kerakli ma'lumot olinadi. Odatda, bu kodlar maxsus qoidalar bo'yicha dori ishlab chiqaruvchi tomonidan ro'yxatga olinadi. Bu qoidalar mahsulotlarni tovarli nomerlashni Xalqaro assotsiyasi tomonidan tasdiqlangan.

Ishlab chiqaruvchi firmalardan tashqari ayrim hollarda tovariarni shtrix kodlar bilan distribyuterlar, dorixonalar ham markalaydi.

Dorixonalar faoliyatida shtrixli kodlash tizimini joriy etilishi dori vositalari va tibbiy buyumlarni qalbakilashtirish hollarining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Farmatsevtika mahsulotlarini markalash

Farmatsevtika mahsulotlarini markalash qoidalarini Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi vakolatli organi Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi belgilaydi. U har

bir vositada barcha zarur ma'lumotlar bo'lgan annotatsiya — qo'shimcha qilinadigan varaqqa bo'lishini belgilaydi. Bu ma'lumot ustki yorliqda berilsa, bunday holda annotatsiya zarur emas. Annotatsiya iste'molchi uchun tushunarli tilda vositani qisqacha xarakteristikasi asosida tuziladi. U quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak:

- vositaning savdo va xalqaro nomi;
- ishlab chiqaruvchi firma nomi;
- tarkibi, ishlab chiqarish shakli, dori vositasi dozasi (yordamchi moddalarning nomi ham yoziladi);
- qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar;
- qo'llash usuli, dozasi;
- to'g'ri kelmaslik shartlari;
- qo'llashda ogoh bo'lishlik;
- ovqat, spirtli ichimliklar va boshqa dorilar bilan o'zaro ta'siri;
- dozasi oshib ketganda, bajarilishi lozim bo'lgan harakatlar;
- vositani saqlash qoidasi va uning yaroqsizligini aniqlash.

Ikkilamchi o'ramda u yo'q bo'lsa, birlamchi o'ramda quyidagilar aniq va ravshan yozilgan bo'lishi kerak:

- vositaning savdo va xalqaro nomi;
- tarkibi, dozasi, faol ingrediyyentlar va yordamchi moddalar bo'yicha ma'lumot bilan vositaning chiqarilish shakli;
- qo'llash usuli;
- maxsus ko'rsatkichlari;
- qo'llash muddati (oy, yil);
- maxsus saqlash sharoitlari;
- dori vositasini savdo litsenziyasi egasi, manzili va nomi;
- savdo litsenziya nomeri;
- dori vositasini ishlab chiqarish seriyasi, nomeri.

## Bunda OTS vositalari uchun ishlash ko'rsatmalari ham bo'lishi kerak

*1-ilova*

### Bumerang usuli. Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruhnинг har bir а'зоси:

- о'з шерикларининг фикрларини хурмат qилишлари lozim;
- berilgan topshiriqlar to'g'risida faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- о'зларига yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtiroy etishlari lozim.

*2-ilova*

### Guruhlар uchun topshiriqlar

#### *I guruh vazifasi*

- 1.O'ZRSSV ning 2003-yil 29 -dekabrdagi «Shifokor retseptsiz sotiladigan dori vositalarining ro'yxatini tasdiqlash» to'grisidagi 71-sonli buyrug'i.
- 2.Xalqaro amaliyotda dori vositalari turkumlanishini prinsiplari.

#### *II guruh vazifasi*

- 1.OTS Turkumlanish tizimi
- 2.OTS – vositalar tizimi retseptsiz sotiladigan vositalariga qo'yilgan asosiy talablar, ishlab chiqaruvchi firmalar va ularning rivojlanish istiqbollari.

#### *III guruh vazifasi*

- 1.Dori vositalarini retseptsiz berish va dorixona assortimenti.
- 2.Farmatsevtika tovarlarni shtrixli kodlash tizimi va markalash

## BAHOLASH KO'RSATKICHLARI VA MEZONLARI


No	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball «5» a'llo
1	Retseptsiz beriladigan dori	1

	vositalarining ro'yxati. Retseptsiz savdo bo'limining asosiy vazifalari.	
2	Retseptsiz savdo bo'limining tuzilishi va jihozlanishi. Retseptsiz savdo bo'limida farmatsevtlarning vazifalari.	1
3	OTS vositalariga bo'lgan talablar. Farmatsevtika mahsulotlarini kedlash va markalash. Dori vositasini birlamchi va ikkilamchi o'ramdagi ma'lumotlari	1
4	Retseptsiz sotiladigan dori vositalarining dorixona aylanmasiga ta'sir qiluvchi omillari	1
5	Retseptsiz beriladigan dori vositalarini ratsional qo'llanilishi o'z-o'zini davolash javobgarligidagi asosiy yo'naliishlari. Retseptsiz sotiladigan dori vositalari bozorining muomalasi	1


### Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1. Retseptsiz beriladigan dori vositalari ro'yxatini muhokama qiling.
2. OTS vositalariga bo'lgan umumiyl talablar bilan tanishing (1-ilova).
3. Bo'limning tuzilishi va jihozlanishini, dori vositalarini saqlash tartibini o'rGANING.
4. O'qituvchi tomonidan berilgan dori vositasini birlamchi va ikkilamchi o'ramdagi ma'lumotlar bilan tanishing.
5. Retseptsiz sotiladigan dori vositalarini bozori muomalasini muhokama qiling (2-ilova).

## OTS – vositalariga qo'yiladigan talablar



## Retseptsiz sotiladigan dori vositalarini bozori muomalasi.



## **Adabiyotlar**

1. E.R Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, B. Ye. Juravlyova, M.Z Islomova Farmatsevtika ishini tashkil qilish(lotin alifbosida darslik) Professor A.N. Yunusxo'jayevning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, 2007, 224b.
2. E.R Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, B. Ye. Juravlyova, M.Z Islomova Farmatsevtika ishini tashkil qilish (kiril alifbosida darslik) Professor A.N. Yunusxo'jayevning umumiy tahriri osida. – Toshkent, 2007, 223b.
3. E.R Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, B. Ye. Juravlyova, M.Z Islomova Farmatsevtika ishini tashkil qilish. Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2008, 192 b.
4. A.N Yunusxo'jayev tahriri ostida X.S. Zaynudinov va boshq. Farmatsevtika ishini tashkil etish: Elektron o'quv darslik. – T., 2005.
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirligi «Shifokor retseptisiz sotiladigan dori vositalarining ro'yxatini tasdiqlash haqida» gi buyrug'i 2013-yil 17-iyul 229-son.

## 5-MAVZU. DORIXONALARDA RETSEPTURA BO‘LIMI ISHINI TASHKIL QILISH

### Ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi

<i>Vaqti-2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 50-60ta</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotning shakli</i>	Axborotli ma’ruza, vizual ma’ruza
<i>Ma’ruza mashg‘ulotning rejasি</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Retseptura bo‘limining asosiy vazifalari.</li> <li>2. Farmatsevt – texnolog ish joyini jihozlash.</li> <li>3. Farmatsevt – texnologning vazifalari.</li> <li>4. Retsept va uning blankalari.</li> </ol>

*O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:* Talabalarga dorixonadagi retseptura bo‘limi uning vazifalari, farmatsevt-texnolog ish joyining jihozlanishi, retsept va uning blankalari bilan tanishtirish.


<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> <i>Talaba:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Retseptura bo‘limining asosiy vazifalari haqidagi ma’lumotlar berish.</li> <li>• Farmatsevt – texnolog ish joyini jihozlash ishlarini o‘rgatish.</li> <li>• Farmatsevt-texnologning vazifalari bilan tanishtirish.</li> <li>• Retsept va uning blankalarini rasmiylashtirish tartibi bilan bog‘liq masalalarni o‘rgatish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Retseptura bo‘limining asosiy vazifalarini o‘rganadi.</li> <li>• Farmatsevt – texnolog ish joyini jihozlanishini o‘rganadi.</li> <li>• Farmatsevt – texnologning vazifalari bilan tanishadi.</li> <li>• Retsept va uning blankalarini rasmiylashtirishni o‘rganishadi.</li> </ul>
<i>O‘qitish ushibi va texnikasi</i>	Axborotli, vizual ma’ruza
<i>O‘qitish vositalari</i>	Ma’ruza matni, o‘quv-ko‘rsatmalari, proyektor, tarqatma materiallar
<i>O‘qitish shakllari</i>	Ommaviy
<i>O‘qitish shart-sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan xona

## MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEKNOLOGIK KARTASI

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 daq)	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalarini e'lon qiladi, mashg'ulot vizual ma'ruza shaklida borishini ma'lum qilinadi.	1.1. Tinglaydilar, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy (65 daq)	2.1.O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. (1,2,3,4,5- ilova) 2.2.Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'qidlaydi.	2.1.Eshitadi, Ilovalar mazmunini muhokama qiladi. 2.2. Eshitadi va yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 daq)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.2.Faoi ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.	3.1. O'yaydi, javob beradi. 3.2.Eshitadi, aniqlashtiradi. Topshiriqni yozib oladi.

*1-ilova*

### Me'yoriy hujjat



Dorixona va davolash muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2010-yil 29-iyunda 2118-sen bilan ro'yxatdan o'tgan. Sog'liqni saqlash vazirligining 2010-yil 18-iyundagi 191-sontli buyrug'i «Davolash-profilaktika muassasalarida dori vositalarini tayinlash hamda bermorning dori vositalarini qabul qilish, saqlash va qo'llash tartibi, shuningdek dorixona muassasalarini tomonidan aholiga dori vositalarini retsept asosida berish to'grisida» Nizomni amaliyotda tafbiq etish

## Retseptura bo'limining vazifalari

1. • DPM dan kelgan talabnomalar kelgan retseptlarni qabul qilish
2. • Talabnomalar va retseptlar asosida dori vositalarini tayyorlash.
3. • Tayyorlangan dori vositalar sifatini nazorat qilish
4. • Tayyorlangan dori vositalarni rasmiylashtirish va bemorlarga berish

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
RO'YXATDAN O'TKAZILDI**

**2010-yil 29-iyun**

**2118-son**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI**

**«DAVOLASH-PROFILAKTIKA MUASSASALARIDA DORI  
VOSIRTALARINI TAYINLASH HAMDA BEMORNING DORI  
VOSITALARINI QABUL QILISH, SAQLASH VA QO'LLASH  
TARTIBI, SHUNINGDEK DORIXONA MUSSASALARI  
TOMONIDA AHOLIGA DORI VOSITALARINI RETSEPT  
ASOSIDA BERISH TO'G'RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH  
HAQIDA»**

**BUYRUQ**

**2010-yil 9-iyuldan kuchga kiradi**

**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
Idoraviy me'yoriy hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish boshqarmasi**

## Retsept blanki

<input checked="" type="checkbox"/>			<input checked="" type="checkbox"/>
(davolash- profilaktika muassasasining nomi va rekvizitlari ko'rsatilgan shtampi o'rni)	(Nodavlat davolash- profilaktika muassasasi litzenziyasining tartib raqami, berilgan sanasi, amal qilish muddati)	- qirgishchizig'i ..	(Nodav- lat davo- lash- profi- laktika muassa- sasi lit- senziya- sining tartib ra- qami, berilgan sanasi, amal qi- lish mud- dati)
RETSEPT			RETSEPTNING yirtma koreshog'i

Kattalarga		Bolalarga
(keraksizi o'chirilsin)		
Retsept yozilgan sana		
kun	oy	yil
Bemorning F.I.O.: _____ _____ _____ _____ _____		Bemorning yoshi: _____ _____ _____ _____ _____
Shifokorning F.I.O.: _____ _____ _____ _____		
Kasallik tarixi №: _____ _____ _____		
Rp: _____  (savdo nomi)  _____ _____ _____		
(xalqaro patentlanmagan nomi) _____ _____ _____		

Kattalarga	Bola-larga
(keraksizi o'chirilsin)	
Retsept yozilgan sana	
kun	oy
_____	_____
Bemorning F.I.O.: _____ _____ _____ _____ _____	
Bemorning yoshi _____ _____ _____ _____	
Shifokorning F.I.O.: _____ _____ _____ _____	
Kasallik tarixi №: _____ _____ _____	
Rp: _____  (savdo nomi)  _____ _____ _____	
(xalqaro patentlanmagan nomi) _____ _____ _____	

D.S.	
Shifokorning imzosi _____ tel: _____ (Shifokorning shaxsiy muhri o'rni)	(xalqaro patentlan- magan nomi) D.S. _____
Retseptning amal qilish muddati _____ —	Berilayotgan dori vositasining nomi va seriyasi: _____  Farmatsevt xodimning F.I.O.: _____  (imzosi) (Dorixona shtampi o'rni)

Izoh:

Retsept blankining o'lchami – 105X148 mm.

Retseptning yirtma koreshogi o'lchami – 70X148 mm.

**Dorixona muassasasida retseptlarni qayd etish**  
**JURNALI**

**Dorixona muassasasi nomi**

T/r	Sa-na	Be-mor-ning familiyasi, ismi va otasi-ning ismi	Ret-septni bergen davo-lash-profi-laktika muassa-sasining nomi hamda davo-lovchi shifo-korning famili-yasi, ismi va otasi-ning ismi	Dori vosita-sining nomi, miq-dori va dozasi	Dori vosita-sining shakhi	Dori vosita-sining narxi	Be-mor-ning man-zili tele-fon ra-qami	Izoh
-----	-------	---	---	---	---------------------------	--------------------------	---------------------------------------	------

<b>5-MAVZU</b>	<b>Dorixonalarda retseptura bo'limi ishini tashkil qilish</b>
<b>Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi</b>	
<i>O'quv soati:</i> 4 soat	<i>Talabalari soni:</i> 10-12ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
<i>Amaliy mashg'ulotining rejasি</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Retseptura bo'limining asosiy vazifalari.</li> <li>2. Farmatsevt – texnolog ish joyini jihozlash.</li> <li>3. Farmatsevt – texnologning vazifalari.</li> <li>4. Retsept va uning blankalari.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Talabalarga dorixonadagi retseptura bo'limi uning vazifalari, farmatsevt-texnolog ish joyining jihozlanishi, retsept va uning blankalari bilan tanishtiriladi.
<i>Pedagogik vazifular:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> <i>Talaba:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Retseptura bo'limining asosiy vazifalari haqidagi ma'lumotlar berish.</li> <li>• Farmatsevt – texnolog ish joyini jihozlashishlarini o'rgatish.</li> <li>• Farmatsevt-texnologning vazifalari bilan tanishtirish</li> <li>• Retsept va uning blankalarini rasmiylashtirish tartibi bilan bog'liq masalalarni o'rgatish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Retseptura bo'limining asosiy vazifalari haqidagi ma'lumotlar berish.</li> <li>• Farmatsevt – texnolog ish joyini jihozlashishlarini o'rgatish.</li> <li>• Farmatsevt-texnologning vazifalari bilan tanishish.</li> <li>• Retsept va uning blankalarini rasmiylashtirish tartibi bilan bog'liq masalalarni o'rganishadi.</li> </ul>
<i>O'qitish ushibi va texnikasi</i>	Munozara, «Bumerang» usuli
<i>O'qitish vositalari</i>	Darslik, o'quv ko'rsatmalar, ko'rgazmali materiallar, qaror va buyruqlar
<i>O'qitish shakli</i>	Guruh va jamoa
<i>O'qitish sharoitlari</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan xona

## AMALIY MASHG'ULOTNING TEKNOLOGIK KARTASI

Bosqichlar, Vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (20 daq)	<p>1.1. Mavzuning maqsadi, rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarligini asoslaydi.</p>	1.1 Tinglaydilar, yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (110 daq)	<p>2.1. Talabalar javobini tinglaydi, tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. (2.3-ilova)</p> <p>2.2. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (darslik, ma'ruza matni, o'quv uslubiy ko'rsatma) dan foydalanish mumkinligini eslatadi.</p> <p>2.3. Ishni tugallagan talaba ish natijalarini to'g'riligini tekshirib va kamchiliklarini to'g'rilab turadi.</p>	<p>2.1 Savollar beradi.</p> <p>2.2. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (darslik, ma'ruza matni, o'quv uslubiy ko'rsatma) lardan foydalanadi.</p> <p>2.3. Tekshirib bo'lgach ish daftariga xulosa yozadi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (30 min)	<p>3.1. Mavzu to'g'risida yakun qiladi, olingan bilimlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi.</p> <p>3.2. Mustaqil ishlarni beradi. Faol ishtiroy etgan talabalarni rag'batlantiradi.</p>	<p>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.</p> <p>3.2. Topshiriqlarni yozib oladi.</p>

## Vizual materiallar

### Retseptura bo‘limining asosiy vazifalari:

1. DPM (davolash-profilaktika muassasasi)dan kelgan talabnomalar va aholidan kelgan individual retseptlarni qabul qilish.
2. DPMdan kelgan talabnomalar va aholidan kelgan retseptlar asosida dori vositalarini tayyorlash.
3. Tayyorlangan dori vositalari sifatini nazorat qilish.
4. DPM talabnomalari va aholidan kelgan retseptlar asosida tayyorlangan dori vositalarini rasmiylashtirish va bemorlarga berish.

Retsept qabul qiluvchi farmatsevt - texnolog xonasida tumbali stol, shkaf, tayyor dorilar uchun vertushka, tarkibida «A» ro‘yxatdagи dorilar uchun shkaf,sovutgichlar bo‘ladi. Retsept qabul qiluvchi farmatsevt — texnolog stolida hisoblash mashinasi, muhrlar to‘plami hujjatlar, preyskurt, Davlat farmakopeyasining eng so‘nggi nashri, I martali va sutkali dozalar jadvali, moddalarining eruvchanlik jadvali, dori vositalarining nomutanosiblik jadvali, buyruqlar, dori vositalarini sinonimlari ro‘yxati, noto‘g‘ri yozilgan retseptlarni qayd qilish jurnalni bo‘ladi.

Retsept qabul qiluvchi farmatsevt - texnologning vazifalari quyidagilardan iborat:

- retseptlarni, talabnomalarni qabul qilish;
- retseptlar to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tekshirish;
- retsept ingrediyyentlarining mutanosibligini tekshirish;
- bemor yoshiga ahamiyat berish;
- yozilgan dozalarni tekshirish;
- dori vositasi narxini aniqlash;
- tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish;
- kelgan retseptlarni hisobini olib, tayyorlash uchun assistentlar xonasiga berish;
- retseptlarni shifokorlar tomonidan to‘g‘ri yozilganligini tekshirish;
- DPM rahbarlari bilan bog‘lanib turish;

– dorixonaga kelgan retseptlarda dorixonada mavjud bo‘lmagan dori vositalarini qayd qilib borish va dorixona mudiri yoki muovinlariga shu haqida axborot berish.

Farmatsevt - texnolog qabul qilgan retseptlarning hisobini «Retseptura daftarchasi» yoki «Kvitansiya daftarchasi»da olib boradi.

Kvitansiya daftarchasi uch qismidan iborat bo‘ladi.

Retseptda zaharli, narkotik, etil spirti yozilgan bo‘lsa dori vositasini tayyorlovchi farmatsevt e’tibor berishi uchun tagiga qizil qalam bilan chizib qo‘yish kerak.

Shifokor tomonidan zaharli, narkotik va kuchli ta’sir etuvchi moddalarning dozasi oshirib yozilgan bo‘lsa, 1 martalik yuqori dozaning yarim miqdorida tayyorlab beriladi. Retsept bu shifokorning farmatsevtga yozma murojaatidir. Retseptlar bemorlarning yoshini, dori vositalari uchun haq to‘lash tartibini va unda yozilgan dori vositalari tarkibidagi moddalar ta’sirini hisobga olgan holda yoziladi.

*2-ilo va*

### **Bumerang usuli. Guruh bilani shlash qoidalari**

Guruhnинг har bir a’zosi:

- o‘z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar to‘g‘risida faoli, hamkorlikda va mas’uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o‘zlariga yordam kerak bo‘lganda so‘rashlari mumkin;
- yordam so‘raganlarga ko‘mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

## Guruhlar uchun topshiriqlar

### *I guruh vazifasi*

1. Retseptura bo'limining asosiy vazifalari.
2. Farmatsevt – texnolog ish joyini jihozlash.

### *II guruh vazifasi*

1. Farmatsevt – texnologning vazifalari.
2. Retsept va uning blankalar.

### *III guruh vazifasi*

1. Retsept yozishda tibbiyot xodimlari tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklar.
2. Retseptni taksirovka va ekspertiza qilish.

## BAHOLASH KO'RSATKICHLARI VA MEZONLARI

№	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball «5» a'lo
1	Sog'liqni saqlash vazirligining Davolash-profilaktika muassasalarida dori vositalarini tayinlash hamda bemorning dori vositalarini qabul qilish, saqlash va qo'llash tartibi, shuningdek dorixona muassasalari tomonidan aholiga dori vositalarini retsept asosida berish qoidalar	1
2	Dori vositalarini tayinlash, Davolash-profilaktika muassasalarida bemorning dori vositalarini qabul qilish, saqlash va qo'llash.	1
3	Dorixona muassasalari tomonidan aholiga dori vositalarini retsept asosida berish.	1
4	Dori vositalarining xavfli kombinatsiyalar	1

	ro'yxati, Retsept blankasi muhokamasi.	
5	Asosiy retseptura qisqartmalari DPMlarda retsept blankalarini berishni qayd qilish jurnali, bir-biriga nomutanosib dori vositalar ro'yxati.	1

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1. Quyidagi retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

25 yoshli Asqarovga

Oling: Askorbin kislota 2,0

Natriy bromid 4,0 Glukoza 120,0 Tozalangan suv 300 ml gacha Aralashtiring. Bering. Belgilang.

3 yoshli go'dak Valiyevga

Oling: Askorbin kislota 0,1

Rutin 0,02,

Kalsiy glyukonat 0,2

Poroshok hosil qiling, aralashtiring.

Shunday dozalardan 20 dona bering.

1 yoshli go'dak Aliyev B.ga

Oling: Bor kislota 1,0

Salitsil kislota 5,0

Rux oksidi 25,0

Talk 50,0

Poroshok hosil qiling, aralashtiring.

Bering. Belgilang. Bolani terisiga sepiladi (prisipka)

45 yoshli onkologik bemor Salimovga

Oling: Promedolning 2%li eritmasi 1 ml dan

Shunday dozadagi ampuladan 10 ta dona oling

Belgilang: 1 ml dan oraliq vaqtida

18 yoshli A.Karimov.ga

Oling: Dimedrol 0,01

Efedrin gidroxlorid 1,0

Shaftoli moyi 5,0

Yalpiz moyi 5,0

Aralashtiring.

Bering. Belgilang. Burun tomchisi 2-3 tomchidan 3-4 marta tomiziladi.

7 yoshli bemor I.Kim. ga Oling: Levomitsetin 0,25  
Bor kislota 0,2  
Etil spirtini 70%li eritmasidan 10 ml gacha  
Aralashtiring: Belgilang. Bering.  
6 yoshli bemor Toshmatov I. ga  
Oling: Natriy gidrokarbonat  
Natriy tetraborat 6,0 dan  
Natriy xlorid 3,0  
Mental 0,04  
Poroshok hosil qilish uchun aralashtiring  
Bering. Belgilang. 1 osh qoshiq 1 stakan suvda eritilib chayiladi  
45 yoshli onkologik bemor Po'latovga  
Oling: Tiamin bromid 0,01  
Askorbin kislota 0,01  
Glukoza 0,2  
Shunday dozadan 20 ta bering  
Poroshok hosil qilish uchun aralashtiring  
Belgilang kuniga 2 marta 1 ta ichiladi.  
60 yoshli nafaqaxo'r A. Hakimovga  
Oling: Dimedrol 0,02  
Bor kislota 0,2  
Tozalangan suv 10 ml  
Aralashtiring. Bering.  
Belgilang. Ko'z tomchisi 1.2 tomchidan 3-4 marta har ikkala ko'zga tomiziladi. 70 yoshli nafaqaxo'r Alimovga  
Oling: Seduksen tabletka  
Shunday dozadan 30 dona bering  
Belgilang: Ita tabletka kuniga 3 mahal  
2. Retseptlardagi nomutanosib dori vositalarini aniqlang.  
3. Retseptlardagi dori vositalarini dozalarini tekshiring.

## **Adabiyotlar**

1. E.R.Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, Ye.B. Juravlyova, M.Z Islomova Farmatsevtika ishini tashkil qilish (lotin alifbosida darslik) Professor A.N. Yunusxo'jayevning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, 2007, 224b.
2. E.R.Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, Ye.B. Juravlyova, M.Z Islomova Farmatsevtika ishini tashkil qilish Professor A.N. Yunusxo'jayevning umumiy tahriri osida. – Toshkent, 2007, 223b.
3. E.R.Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, Ye.B.Juravlyova, M.Z Islomova. Farmatsevtika ishini tashkil qilish. Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2008, 192 b.
4. A.N Yunusxo'jayev tahriri ostida X.S. Zaynudinov va boshq. Farmatsevtika ishini tashkil etish: Elektron o'quv darslik. – T., 2005.
5. O'zR SSVning 2010-yil 18-iyundagi 191-sonli buyrug'i «DPMlarda dori vositalarini tayinlash hamda bemorning dori vositalarini qabul qilish, saqlash va qo'llash tartibi, shuningdek, dorixona muassasalari tomonidan aholiga dori vositalarini retsept asosida berish to'g'risidagi nizom».
6. O'zR SSVning 26-mart 2010-yildagi 95-sonli «Qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo'q qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida».
7. O'zR VM ning 2009-yil 8-yanvardagi «O'zR da giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni muomalasi bilan bog'liq faoliyati uchun hisobotlar yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 6-son qarorini amalgaga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida».
8. O'zR SSVning 2008-yil 30-yanvardagi 36-sonli buyrug'i «Dori vositalarining nojo'ya ta'sirlarini qayd etish va monitoringi bo'yicha nizomni tasdiqlash to'g'risida».
9. O'zR SSVning 2009-yil 20-maydag'i 157-sonli buyrug'i. «Farmatsevt kadrlar lavozim nomenklaturasi va lavozim nizomlarini tasdiqlash to'g'risida».

10. O'zR SSVning 2009 -yil 1- iyundagi 162-sonli buyrug'i. «O'zRdagi farmatsevt kadrlar malakasini oshirishni takomil-lashtirish chora-tadbirlari to'g'risida».

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 22-iyuldagи «Shaxslarning ayrim toifalarini imtiyozli asosda dori vositalari bilan ta'minlash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 204-sonli qarori.

## 6-MAVZU. DORIXONALARDA RETSEPTLARNI QABUL QILISH VA UALAR ASOSIDA DORI VOSITALARINI BERISH


### Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

<i>O'quv soati:</i> 2 soat	<i>Talabalar soni:</i> 50-60 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Axborotli, vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Retsept funksiyalari.</li> <li>2. Retsept yozishning umumiyligini qoidalari.</li> <li>3. Retsept qabul qilish va dori vositalarini berish ishlarini tashkil qilish.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maysadi:</i>	Talabalarga retsept funksiyalari, retsept yozishning umumiyligini qoidalari, retsept qabul qilish va dori vositalarini berish ishlarini tashkil qilishni o'rgatish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p><i>Talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Retsept funksiyalari o'rgatish.</li> <li>• Retsept yozishning umumiyligini qoidalari bilan tanishitish.</li> <li>• Retsept qabul qilish va dori vositalarini berish ishlarini tashkil qilishni o'rgatish.</li> </ul> <p><i>O'qitish uslubi va texnikasi</i></p> <p><i>O'qitish vositalari</i></p>
<i>O'qitish shakli</i>	Axborotli, vizual ma'ruza
<i>O'qitish sharoitlari</i>	Darslik, ma'ruza matni, o'quv ko'rsatmalar, ko'rgazmali materiallar, qaror va buyruqlar
	Ommaviy
	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan xona


Ma’ruza mashg’ulotining texnologik kartasi		
Bosqichlar, Vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O’qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 daq)	1.1. Mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi, o’quv mashg’ulotidan kutilayotgan natijalarni e’lon qiladi, mashg’ulot axborotli, vizual ma’ruza shaklida borishini ma’lum qilinadi.	1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (65 daq)	2.1. O’qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayonetishda davom etadi. (1.2-ilova) 2.2. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e’tibor qilishni va yozib olishlarini ta’kidlaydi.	2.1. Savollar beradi. 2.2. Tinglaydilar, daftarga ko’chirib oladilar
3-bosqich. Yakuniy (10 daq)	3.1. Mavzu to’g’risida yakun qiladi, olingan bilimlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e’tibori qaratiladi. Savollarga javob beradi	3.1. Savollar berishadi

**I-ilova**

*Vizual materiallar  
Retsept funksiyalari*



## **Retsept yozishning umumiy qoidalari**



## **Blits-so'rov**

- 
1. Retsept funksiyalari
  2. Retsept turlari
  3. Retsept qabul qilish tartibi
  4. Retsept yozish qoidalari

<b>6-MAVZU</b>	<b>Dorixonalarda retseptlarni qabul qilish va ular asosida dori vositalarini berish</b>
<b>Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi</b>	
<i>O'quv soati: 4 soat</i>	<i>Talabalari soni: 10-12ta</i>
<i>O'quv mashg'uloti shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
<i>Amaliy mashg'ulotining rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Retsept funksiyalarini.</li> <li>2. Retsept yozishning umumiy qoidalari.</li> <li>3. Retsept qabul qilish va dori vositalarini berish ishlarini tashkil qilish.</li> <li>4. Dorixonada va DPMlarda miqdoriy hisobda turuvchi zaharli moddalar ro'yxati</li> <li>5. Tibbiyotda va ilmiy maqsadlarda ishlatiladigan giyohvandlik dori vositalarining ishlatish me'yordi.</li> <li>6. Respublikaning barcha dorixona muassasalarida bo'lishi majburiy bo'lgan, cheklangan chakana narxlarda sotiladigan dori-darmonlar ro'yxati</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarga retsept funksiyalarini, retsept yozishning umumiy qoidalari, retsept qabul qilish va dori vositalarini berish ishlarini tashkil qilishni o'rgatish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Retsept funksiyalarini o'rgatish;</li> <li>• Retsept yozishning umumiy qoidalari bilan tanishtirish;</li> <li>• Retsept qabul qilish va dori vositalarini berish ishlarini tashkil qilishni o'rgatish;</li> <li>• Dorixonada va DPMlarda miqdoriy hisobda turuvchi zaharli moddalar ro'yxati bilan tanishtirish;</li> <li>• Tibbiyotda va ilmiy maqsadlarda ishlatiladigan giyohvandlik dori vositalarining ishlatish me'yordi.</li> </ul>	<i>Talaba:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Retsept funksiyalarini o'rganadi;</li> <li>• Retsept yozishning umumiy qoidalarini tavsiflaydi;</li> <li>• Retsept qabul qilish va dori vositalarini berish ishlarini tashkil qilishni o'rganadi;</li> <li>• Dorixonada va DPMlarda miqdoriy hisobda turuvchi zaharli moddalar ro'yxati bilan tanishadi;</li> <li>• Tibbiyotda va ilmiy maqsadlarda ishlatiladigan giyohvandlik dori vositalarining ishlatish me'yordi.</li> </ul>

giyohvandlik dori vositalari-ning ishlatish me'yorlari haqida ma'lumot berish; • Dorixona muassasalarida bo'lishi majburiy bo'lgan, cheklangan chakana narxlarda sotiladigan dori-darmonlar ro'yxati haqida axborot berish.	haqida ma'lumotoladi; • Dorixona muassasalarida bo'lishi majburiy bo'lgan, cheklangan chakana narxlarda sotiladigan dori-darmonlar ro'yxati haqida axborot oladi.
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Munozara, «Insert usuli».
<i>O'qitish vositalari</i>	Darslik, o'quv ko'rsatmalar, ko'rgazmali materiallar, qaror va buyruqlar
<i>O'qitish shakli</i>	jamoaviy
<i>O'qitish sharoitlari</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan xona

## AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK KARTASI

Bosqichlar, Vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (20 daq)	1.1. Mavzuning maqsadi, rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi.	1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (110 daq)	2.1. Talabalar javobini tinglaydi, tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. 2.2. Talabalarni 2 guruhga bo'ladi har biriga vazifa beradi, «Insert usuli» yordamida ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarning aytilishini taklif etiladi (2-ilova). 2.3. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi. Baholash mezonlarini	2.1. Savollar beradi.  2.2.O'quv natijalarini taqdim qiladilar;  2.3.Savollar beradi;

	<p>ham namoyish qiladi (1-ilova).</p> <p>2.4. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (darslik, ma'ruza matni, o'quv uslubiy ko'rsatma) dan foydalanish mumkinligini eslatadi.</p> <p>Guruhlarda ishboshlashda taklif etadi;</p> <p>2.5. Ishni tugallagan talaba ish natijalarini to'g'rilingini tekshirib va kamchiliklarni to'g'rilib turadi.</p>	<p>2.4. Vazifani bajarishda o'quv materillaridan foydalanishadi, javoblarni to'ldiradi;</p> <p>2.5. Ishni tugallagan talaba ish natijalarini to'g'rilingini o'qituvchidan tekshirib bilgach ish daftariga xulosa yozadi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (30 daq)	<p>3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi;</p> <p>3.2. Mustaqil ishlar bo'yicha vazifa beradi.</p>	<p>3.1. Eshitadi;</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</p>

### Vizual materiallar

O'zR SSVning 2010-yil 18-iyundagi 191-sonli buyrug'i «DPMlarda dori vositalarini tayinlash hamda bemorning dori vositalarini qabul qilish, saqlash va qo'llash tartibi, shuningdek, dorixona muassasalari tomonidan aholiga dori vositalarini retsept asosida berish to'g'risidagi nizom «nizomga muvofiq uch xil retseptura blankalari mavjud.

- Bolalar va kattalar uchun to'liq narxdagi dori vositasini olish uchun yoziladigan 1-shakl.
- Bepul dori vositalari va gangituvchi xususiyatiga ega bo'lgan dori vositalari uchun yoziladigan 2-shakl.

– Pushti rangli faqat narkotik dori vositalari yozish uchun tavsiya etiladigan 3-shakl.

– Birinchi shakldagi retsept blankasiga quyidagi dori vositalari yoziladi:

- zaharli dori vositalari va ularning preparatlari;
- uxlatuvchi dori vositalari;
- neyroleptik, antidepressiv preparatlari;
- steroid gormonlar;
- trankvilizatorlar;
- astmaga qarshi vositalar;
- oksixinolin hosilalari;
- zamanixa tindirmasi;
- etil sperti saqlagan dori vositalari;
- kuchli ta'sir etuvchi moddalar;
- antibiotiklar;
- sulfanilamid preparatlari;

Ikkinci shakldagi retsept blankasiga gangituvchi xususiyatga ega bo'lgan dori vositalaridan tashqari (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2-dekabr 1997-yilda tasdiqlangan 532-sonli va 2002-yil 31-may 188-sonli qarorlari) bepul beriladigan dori vositalari yoziladi. Agar shu shaxs istiqomat qiladigan tuman sog'liqni saqlash bo'limi bilan dorixona shartnomaga tuzgan bo'lsagina, bu dori vositalari bepul tarzda beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 22-iyuldagagi «Shaxslarning ayrim toifalarini imtiyozli asosda dori vositalari bilan ta'minlash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 204-sonli qarorining 1-ilovasida 532-sonli qarordagi ambulatoriyada davolanishda dori vositalari bilan imtiyozli ta'minlanish huquqiga ega bo'lgan shaxslar toifalari ro'yxati keltirilgan.

Uchinchi shakldagi retsept blankasiga faqat narkotik dori vositalarini yozish tavsiya etilgan.

Ba'zi narkotik, uxlatuvchi va psixotrop dori vositalarini 1 dona retseptga beriladigan me'yori belgilangan, ularni quyidagi yozilgan miqdordan oshirishga ruxsat etilmaydi:

№	Dori preparatlarining nomi	Me'yori
1	Alnagon	20 tabl
2	Kodein	0,2 g
3	Barabamil (poroshokda)	2,0 g
4	Buprenorfın tabl. 0,2 mg	20 tabl
5	Buprenorfın ampulada 0,3 mg	20 amp.
6	Buprenorfın ampulada 0,5 mg	10 amp
7	Kodtermops, Kodterpin	20 tabl.
8	Kokain gidroxlorid	0,1 g
9	Morfin gidroxlorid, morfilong	0,lg
10	Omnopon	ОД g
11	Promedol	0,25 g
12	Paxikarpin gidroyodid	Ug
13	Uxlatuvchi preparatlar	10-] 2 tabl,
14	Fepranon 0,0025	50 draje
15	Etaminal natriy	1=0 g
16	Estotsin tabl	12 tabl.
17	Etilmorfin gidroxlorid (dionin)	0,2 g
18	Efedrin gidroxlorid	0,6 g
19	Pentazotsin (fortral) 30 va 50 mg	10 tabl
20	Pentazotsin (fortral) 3% 1 mg	10 amp.

Dorixonada va DPMlarda miqdoriy hisobda turuvchi zaharli moddalar ro'yxati:

1. Atropinsulfat
2. Mishyak angividrid
3. Natriy arsenat kristallari
4. Simob diyodid
5. Simob oksitsianid
6. Simob sianid

7. Kumush nitrat (lyapis)

8. Strixnin nitrat

9. Dikain

*1-ilova*

### **«Insert usuli» Guruh bilan ishlash qoidalari**

Insert – samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib mustaqil o‘qib o‘rganishda yordam beradi. Bunda amaliy mashg‘ulot mavzulari, kitob va boshqa materiallar talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib «V»; +; -; +belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi:

#### *Matnni belgilash tizimi*

*(V)- men bilgan narsani tasdiqlaydi.*

*(+)- Yangi ma’lumot.*

*(-)- men bilgan narsaga zid.*


*(?) meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo’shimcha ma’lumot zarur.*

#### *Insert jadvali*

Tushunchalar	V	+		
Retsept				
Retsept qabul qilish				
Dori vositalarni berish				

## 2-ilova

Dorixonada va DPMlarda miqdoriy hisobda turuvchi zaharli moddalar ro'yxati:



## 3-ilova

Tibbiyotda va ilmiy maqsadlarda ishlataladigan giyohvandlik dori vositalarining ishlatish me'yorlari.

morfingidroxlorid	- 0,3
promedol	- 5,0
omnopon	- 0,3
kokain	- 0,2
estotsingidroxlorid	- 0,3
kodein	- 70,3
opiy	- 833,3
fentanil	- 0,006

## 4-ilova

Respublikaning barcha dorixona muassasalarida bo'lishi majburiy bo'lgan, cheklangan chakana narxlarda sotiladigan dori-darmonlar ro'yxati

- |                   |                                 |
|-------------------|---------------------------------|
| 1. Aspirin        | 11. Valeriana suyuqligi         |
| 2. Analgin        | 12. Nitroglitserin              |
| 3. Borlisurtki    | 13. Yod suyuqligi               |
| 4. Har xilbintlar | 14. Inyeksiyalar uchun novokain |
| 5. Tibbiy paxta   | 15. Papaverin                   |
| 6. Validol        | 16. Ammiak eritmasi             |
| 7. Gorchichnik    | 17. Ko'k dori                   |

8. Dimedrol      18. Senadeksin  
9. Dibazol      19. Eufillin  
10. Levomitsetin 20. Ferramid

*5-ilova*

**Test savollari**

**1. Narkotik dori vositalariga yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating**

- A. 1 yil.
- B. 2 yil.
- C. 3 yil.
- D. \*5 yil.

**2. Zaharli dori vositalariga yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating**

- A. \*1 yil.
- B. 2 yil.
- C. 3 yil.
- D. 5 yil.

**3. Etil spirtiga yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating**

- A. \*1 yil.
- B. 2 yil.
- C. 3 yil.
- D. 5 yil.

**4. Bepul beriladigan dori retseptlarini dorixonada saqlash muddatini ko'rsating**

- A. 1 yil.
- B. 2 yil.
- C. \*3 yil.
- D. 5 yil.

**5. Narkotik dori vositalariga yozilgan retseptning yaroqlilik muddatini ko'rsating**

- A. 3 kun.
- B. 5 kun.
- C. \*10 kun.
- D. 1 oy.

**6. Zaharli dori vositalariga yozilgan retseptning yaroqlilik muddatini ko'rsating**

- A. 3 kun.
- B. 5 kun.
- C. \*10 kun.
- D. 1 oy.

**7. Etil spiritiga yozilgan retseptning yaroqlilik muddatini ko'rsating**

- A. 3 kun.
- B. 5 kun.
- C. 10 kun.
- D. \*30 kun.

**8. Bepul berilgan dori retseptlarini yaroqlilik muddatini ko'rsating**

- A. 3 kun.
- B. 5 kun.
- C. 10 kun.
- D. \*30 kun.

**9. Kumush nitrat uchun yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsatining**

- A. 5 yil.
- B. 3 yil.
- C. \*1 yil.
- D. 1 oy.

**BAHOLASH KO'RSATKICHLARI VA  
MEZONLARI**

No	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball «5» a'lo
1	Retsept funksiyalari. Retsept yozishning umumiy qoidalari.	1
2	Retsept qabul qilish va dori vositalarini berish ishlarini tashkil qilish.	1
3	Dorixonada va DPMlarda miqdoriy hisobda turuvchi zaharli moddalar ro'yxati	1

4	Tibbiyotda va ilmiy maqsadlarda ishlataladigan giyohvandiik dori vositalarining ishlatish me'yorlari.	1
5	Respublikaning barcha dorixonada muassasalarida bo'lishi majburiy bo'lgan, cheklangan chakana narxlarda sotiladigan dori-darmonlar ro'yxati	1

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1. Ish daftaringizga retseptlarni qabul qilish va dori vositalarini dorixona muassasalaridan berish tartibini chizing.
2. Yuqoridagi retseptlardan foydalanib, retseptura jurnalini to'ldiring (1-jadval).
3. Retsept asosida bepul beriladigan dori vositalarini tegishli daftarga qayd eting (2-jadval).
4. www.fitq.zn.uzsaytiga kirib, giyohvand va psixotorop dori vositalari bilan tanishib chiqing.

### Retseptura jurnali

*1-jadval*

Sana	Yakka tartibda tayyorlangan dorilar				Ta'rif uchun	Tozalan gan suv uchun	Eslatma
	Retsept	Bemorning F.I.Sh.	Dorining turi	Dorining narxi			

«Dori-darmon» AK  
son dorixona  
bo'lim  
bemorlar kategoriysi

Imtiyozli dorilar berish uchun

retseptlar uchun

/davolash profilaktika muassasasi

raqamli reyestri

200 yil

oyiga

Tartib so'm	Retseptning nomeri, bemor ismi-sharifi	Berilgan dorilarning qiynati	Bemor to'lagan qiymat	Qoplanishi lozim bo'lgan qiymat

JAMI:

Hammasi retseptlar so'm tiyin,  
shuningdek

bemorlar tomonidan to'langan so'm tiyin

To'lash so'm tiyin

Dorixona mudiri /imzo/

Hisobchi /imzo/

Reyestr

Bilan olindi

/lavozimi, ismi-sharifi, imzo, sana/

Tar-tib №	Dori xonaga kelti-rilgan kuni	DPM ning nomi, man-zili, tele-foni	Tib-biyot xodi-mi-ning Fami-liyasi. ismi sharifi	Ret-sept (talab noma) beril-gan sana	Be-mor-ning Familiyasi. ismi sharifi, yoshi	Ret-sept-ning tar-kibi	Ret-sept (ta-lab-noma) ning kam-chilik-lari	Ko'-ril-gan cho-ra-larni qayd etish	Im-zo
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8,	9.	10.

### Adabiyotlar

1. E.R.Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, Ye.B.Juravlyova, M.Z.Islomova Farmatsevtika ishini tashkil qilish (lotin alifbosida darslik) Professor A.N. Yunusxo'jayevning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, 2007, 224b.
2. E.R.Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, Ye.B.Juravlyova, M.Z.Islomova Farmatsevtika ishini tashkil qilish (kirill alifbosida darslik) Professor A.N. Yunusxo'jayevning umumiy tahriri osida. – Toshkent, 2007, 223b.
3. E.R.Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov. A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, Ye.B.Juravlyova, M.Z.Islomova. Farmatsevtika ishini tashkil qilish. Toshkent, «Iqtisod-moliya». 2008, 192 b.
4. A.N Yunusxo'jayev tahriri ostida X.S Zaynudinov va boshq. Farmatsevtika ishini tashkil etish: Elektron o'quv darslik. – T., 2005.
5. O'zR SSVning 2010-yil 18-iyundagi 191-sonli buyrug'i «DPMlarda dori vositalarini tayinlash hamda bemorning dori vositalarini qabul qilish, saqlash va qo'llash tartibi, shuningdek, dorixona muassasalari tomonidan aholiga dori vositalarini retsept asosida berish to'g'risidagi nizom».
6. O'zR Ssvning 26-mart 2010-yildagi 95-sonli «Qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo'q qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida».

7. O'zR VM ning 2009-yil 8-yanvardagi «O'zR da giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni muomalasi bilan bog'liq faoliyati uchun hisobotlar yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 6-sod qarorini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida».

8. O'zR SSV ning 2008-yil 30-yanvardagi 36-sonli buyrug'i «Dori vositalarining nojoya ta'sirlarini qayd etish va monitoringi bo'yicha nizomni tasdiqlash to'g'risida».

9. O'zR SSVning 2009-yil 20-maydagi 157-sonli buyrug'i.

10. «Farmatsevt kadrlar lavozim nomenklaturasi va lavozim nizomlarini tasdiqlash to'g'risida».

11. O'zR SSVning 2009-yil 1 -iyundagi 162-sonli buyrug'i.

12. «O'zRdagi farmatsevt kadrlar malakasini oshirishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida».

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2-dekabr 1997-yilda tasdiqlangan 532-sonli qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 22-iyuldagi «Shaxslarning ayrim toifalarini imtiyozli asosda dori vositalari bilan ta'minlash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 204-sonli qarori.

## 7-MAVZU. DORIXONALARDА RETSEPTLARNI TAKSIROVKA VA EKSPERTIZA QILISH

### Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi


<i>Vaqti:</i> 2 soat	<i>Talabalarni soni:</i> 50-60 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Axborotli, vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza mashg'ulotining rejasি</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Retsept yozishda tibbiyot xodimlari tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklar.</li> <li>2. Retseptni taksirovka va ekspertiza qilish.</li> <li>3. Signatura haqida tushuncha.</li> <li>4. Retseptlarning o'z ta'sir kuchini saqlash muddatları.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarga retsept yozishda tibbiyot xodimlar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklar, retseptni taksirovka va ekspertiza qilish, signatura haqida tushuncha, retseptlarning o'z ta'sir kuchini saqlash muddatlarini o'rgatish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Retsept yozishda tibbiyot xodimlari tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklarni o'rgatish.</li> <li>• Retseptni taksirovka va ekspertiza qilish.</li> <li>• Signatura haqida ma'lumot berish.</li> <li>• Retseptlarning o'z ta'sir kuchini saqlash muddatlarini o'rgatish.</li> </ul>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> <p><i>Talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Retsept yozishda tibbiyot xodimlari tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklarni o'rGANADI.</li> <li>• Retseptni taksirovka va ekspertiza qiladi.</li> <li>• Signatura haqida tushunchaga ega bo'ladi</li> <li>• Retseptlarning o'z ta'sir kuchini saqlash muddatlarini o'rGANADI.</li> </ul>
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Axborotli, vizual ma'ruza
<i>O'qitish vositalari</i>	Darslik, ma'ruza matni, o'quv ko'rsatmalar, ko'rgazmali mate-

	riallar, qaror va buyruqlar
O'qitish shakllari	Ommaviy
O'qitish shart-sharoiti	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan xona

## MA'RUDA MASHG'ULOTINING TEKNOLOGIK KARTASI

Bosqichilar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 daq)	1.1. Ma'ruda mavzusi, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalarni e'lon qiladi, mashg'ulot ko'rgazmali axborotli, vizual ma'ruda shaklida borishini ma'lum qilinadi.	1.1. Tinglayidilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (65 daq)	2.1. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi (1,2,3,4-ilova). 2.2. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.	2.1. Eshitadi. Ilovalar mazmunini muhokama qiladi. 2.2. Eshitadi va yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 daq)	3.1. Mavzu to'g'risida yakun qiladi, olingan bilimlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tibori qaratiladi. 3.2. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.3. Faol ishtirok etgan talabalarни rag'batlantiradi.	3.1. O'ylaydi, javob beradi. 3.2. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.3. Topshiriqni yozib oladi.

**Retsept yozishda tibbiyot xodimlari tomonidan yo'l  
o'yiladigan xatoliklar**



**Retseptni taksirovka va ekspertiza qilish**

Retseptni taksirovka qilish – bu retsept tarkibidagi ingrediyyentlarning har biri narxini hisoblash va haq olish.

Retseptni taksirovka qilish – bu retsept tarkibidagi ingrediyyentlarning har biri narxini hisoblash va haq olish.

**Signatura haqida tushuncha**

Tarkibida zaharli, narkotik moddalar va etil spirti bo'lgan ekstemporal usulda tayyorlangan dori vositalari berishda bemonlarga retsept o'rniiga yuqori qismida sariq yo'li va unda qora shriftdagи «Signatura» degan yozuvni bo'lgan qog'oz beriladi.

**Retseptlarni o'z ta'sir kuchini saqlash muddatlari**

Dorixonada retseptlar o'z ta'sir kuchini saqlash muddatiga ega bo'ladi. arli moddalar bo'lgan dorilar bo'yicha yozilgan retseptlar 10 kun, qolgan dori vositalari uchun 1 oygacha yozib berilgan kundan yaroqli hisoblanadi.

<b>7-MAVZU</b>	<b>Dorixonalarda retseptlarni taksirovka va ekspertiza qilish</b>
<b>Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi</b>	
<i>O'quv soati:</i> 4 soat	<i>Talabalar soni:</i> 10-12ta
<i>O'quv mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
<i>Amaliy mashg'ulotining rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Retsept yozishda tibbiyot xodimlari tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklar.</li> <li>2. Retseptni taksirovka va ekspertiza qilish.</li> <li>3. Signatura haqida tushuncha.</li> <li>4. Retseptlarning o'z ta'sir kuchini saqlash muddatlarini.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Talabalarga retsept yozishda tibbiyot xodimlari tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklar, retseptni taksirovka va ekspertiza qilish, signatura haqida tushuncha, retseptlarning o'z ta'sir kuchini saqlash muddatlarini o'rgatish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> <i>Talaba:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Retsept yozishda tibbiyot xodimlari tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklarni o'rgatish.</li> <li>• Retseptni taksirovka va ekspertiza qilish.</li> <li>• Signatura haqida ma'lumot berish.</li> <li>• Retseptlarning o'z ta'sir kuchini saqlash muddatlarini o'rgatish.</li> </ul>
<i>O'qitish ushubi va texnikasi</i>	Munozara. Bumerang, B.B. Busullari.
<i>O'qitish vositalari</i>	Darslik, o'quv ko'rsatmalar, ko'rgazmali materiallar, qaror, buyruqlar
<i>O'qitish shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, guruh bo'yicha o'qitish sharoitlari.

## AMALIY MASHG'ULOTNING TEKNOLOGIK KARTASI

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (20 daq)	<p>1.1. Mavzuning maqsadi, rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi.</p>	<p>1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar</p>
2-bosqich. Asosiy (110 daq)	<p>2.1. Talabalar javobini tinglaydi, tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi.</p> <p>2.2. Talabalarni 2ta guruhga bo'ladi har biriga vazifa beradi (2.3-ilova).</p> <p>2.3. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi baholash me'zonlarini ham namoyish qiladi (1-ilova).</p> <p>2.4. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (derslik, ma'ruza matni, o'quv uslubiy ko'rsatma)dan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashda taklif etadi.</p> <p>2.5. Talabalarga B.B.B usuli bo'yicha jadvalni tarqatadi va ustunlarni to'ldirishni aytadi (4-ilova).</p> <p>2.6. Ishni tugallagan talabani ish natijalarini to'g'riligini tekshirib va kamchiliklarini to'g'rilab turadi.</p>	<p>2.1. Savollar beradi.</p> <p>2.2. O'quv natijalarini taqdim qiladilar.</p> <p>2.3. Savollar beradi.</p> <p>2.4. Vazifani bajarishda o'quv materillaridan foydalanishadi, javoblarni to'ldiradi.</p> <p>2.5. Jadvalni to'ldiradi va muhokamada ishtiroy etadi.</p> <p>2.6. Tekshirtilib bo'lgach ish daftariiga xulosa yozadi.</p>

3-bosqich Yakuniy (30 daq)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirok etgan talabalarni rag'baltanlantiradi. 3.2 Mustaqil ishlar bo'yicha vazifa beradi	3.1. Eshitadilar 3.2. Topshiriqni yozib oladi.
----------------------------------	---	--

### Vizual materialiar

Retseptini ekspertiza qilish — bu retseptni qabul qilayotganda tekshirish, dozasiga ahamiyat berish, tayyorlash, saqlash va boshqa jarayonlarni har tomonlama nazorat qilish.

Narketik dori vositalari yozilgan retseptlar 7 kun davomida o'z kuchini saqlaydi. Zaharli dori vositalari saqlagan retseptlar ham 10 kun. Qolganlari esa 1 oygacha o'z kuchini saqlaydi.

Dorixonada olib qolinadigan retseptlarning saqlanish muddati belgilangan. Bepul tarzda berilgan dorilar uchun yozilgan retseptlar dorixonada 3-yil, narkotik dorilar uchun yozilgan maxsus pushti rangdagi retsept bosma qeg'izi 5-yil, zaharli hamda etil spirti saqlovchi, bangidevona ta'siriga ega bo'lgan preparatlar, anabolik dori vositalari uchun yozilgan retseptlar bir yil davomida boshqa retseptlar bir oy muddatida saqlanadi.

### 1-ilova

#### Bumerang usuli. Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruhning har bir a'zosi:

- o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar to'g'risida faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raginiarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhn ni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

## Guruhsizlar uchun topshiriqlar

### I guruh vazifasi

O'zR da giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni muomalasi bilan bog'liq faoliyati uchun hisobotlar yuritish tartibi to'g'risidagi nizom haqidagi ma'lumot bering.

### II guruh vazifasi

1. Retseptni taksirovka va ekspertiza qilish.
2. Dorixonada olib qolinadigan retseptlarni saqlash muddatlari.
3. Retsept yozishda tibbiyot xodimlari tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklar.

## B.B. Busuli asosida bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallari

No	Tushuncha	Bilaman «+» Bilmayman «-»	Bildim «+» Bila olmadim «-»
1	Retsept va uning turlari		
2	Retsept yozishda shifokor tomonidan yo'l qo'yilgan xatolik		
3	Retseptni ekspertiza qilish qoidasi		
4	Qaysi holatlarda signatura beriladi?		
5	Retseptlarni saqlash muddatlari		
6	Retseptni taksirovka qilish		
7	Retseptura ishlab chiqarish bo'limida rasmiy lash-tiriladigan hujjatlar		
8	Retseptlarning o'z ta'sir kuchini saqlash muddatlari		

## BAHOLASH KO'RSATKICHLARI VA MEZONLARI

№	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball «5» a'lo
1	Retsept yozishda tibbiyot xodimlari tomonidan yo'1 qo'yiladigan xatoliklar.	1
2	Retseptni taksirovka qilish.	1
3	Signatura haqida tushuncha.	1
4	Retseptlarning o'z ta'sir kuchini saqlash muddatlari.	1
5	Retseptni ekspertiza qilish.	1

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1. Dori vositasi uchun kvitansiya daftarchasini to'ldiring.
2. 5-amaliy mashg'ulot darsidagi lotin tiliga o'girilgan retseptlarni ko'chiring va taksirovka qiling.
2. Berilgan dori vositasi uchun signaturani to'ldirib bemorga bering.
3. Yuqoridagi retseptlardan foydalanib, noto'g'ri yozilgan retseptlarni qayd etish daftarini to'ldiring (3-jadval).

### Notog'ri yozilgan retseptlarni qayd etish daftari

*3-jadval*

Tartib №	Dori- xonaga keltiril- gan kuni	DPM ning nomi, manzili, telefoni	Tib- biyot xodimi- ning Fami- liyasi. ismi sharifi	Retsept (talab noma)	Bemor- ning Fami- liyasi. ismi sana	Ret- sept- ning tarkibi	Ret- sept (talab noma)	Ko'- ril- gan cho- ra- larni qayd etish	Imzo
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10

## Kvitansiya daftarchasi

Dori-xona	«Dori-darmon» DAB					v a	Retsept №		
№ Retsept	Dorixona №					q l	Tay-yor ladim	Tek-shir dim	Ber-diffl
	Retsept №								
Fuqaro	Fuqaro F.I.Sh,								
F.I.Sh.	Sana								
	Miks-tura	Tom-chi	Xab-lar	In-yek-siya	Ku-kun-dori				
so'm			(ichish-ga)		vosi-tal	ichish-			
tiyin					an	ga			
	Su-yuq	Tom-chi	Maz-lar	Sham	Ku-kun				
Dori	dori	lar	lar	cha-lar	dori-				
Vosi-tasi	vosi-tasi	(sirt-ga)			lari				
ning	(sirt-ga)				(sirt-ga)				
shakli									

1-qism 2-qism 3-qism

### Signatura

«Dori-darmon» DAB \_\_\_\_\_

Dorixona N» Retsept №\_\_\_\_\_

Bemorning F.I.Sh. va yoshi \_\_\_\_\_

Rp: \_\_\_\_\_

Shifokorning F.I.Sh. \_\_\_\_\_

Tayyorladi \_\_\_\_\_

Berdi \_\_\_\_\_

Sana \_\_\_\_\_ Narxi \_\_\_\_\_

### Adabiyotlar

1. E.R.Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, Ye.B.Juravlyova, M.Z.Islomova Farmatsevtika ishini tashkil qilish(lotin alifbosida darslik) Professor A.N. Yunusxo'jayevning umumiy tahriri ostida. -- Toshkent, 2007, 224b.

2. E.R.Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, Ye.B.Juravlyova, M.Z.Islomova Farmatsevtika ishini tashkil qilish (kirill alifbosida darslik) Professor A.N. Yunusxo'jayevning umumiy tahriri osida. -Toshkent, 2007, 223b.

3. E.R.Toshmuhamedov, X.S.Zaynudinov, A.M.Komilov, R.A.Muhamedova, Ye.B.Juravlyova, M.Z.Islomova. Farmatsevtika ishini tashkil qilish. Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2008, 192 b.

4. A.N Yunusxo'jayev tahriri ostida X.S Zaynudinov va boshq. Farmatsevtika ishini tashkil etish: Elektron o'quv darslik. – T., 2005.

5. O'zR SSVning 2010-yil 18-iyundagi 191-sonli buyrug'i «DPMlarda dori vositalarini tayinlash hamda bemorning dori vositalarini qabul qilish, saqlash va qo'llash tartibi, shuningdek, dorixona muassasalari tomonidan aholiga dori vositalarini retsept asosida berish to'g'risidagi nizom».

6. O'zR SSVning 26-mart 2010-yildagi 95-sonli «Qo'llash uchun yaroqsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo'q qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqidagi».

7. O'zR VM ning 2009-yil 8-yanvardagi «O'zR da giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni

muomalasi bilan bog'liq faoliyati uchun hisobotlar yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 6-son qarorini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida».

8. O'zR SSV ning 2008-yil 30-yanvardagi 36-sonli buyrug'i «Dori vositalarining nojo'ya ta'sirlarini qayd etish va monitoringi bo'yicha nizomni tasdiqlash to'g'risida».

9. O'zR SSVning 2009-yil 20 -maydag'i 157-souli buyrug'i.

10. «Farmatsevt kadrlar lavozim nomenklaturasi va lavozim nizomlarini tasdiqlash to'g'risida».

11. O'zR SSVning 2009-yil 1-iyandagi 162-sonli buyrug'i.

12. «O'zRdagi farmatsevt kadrlar malakasini oshirishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida».

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2-dekabr 1997-yilda tasdiqlangan 532-sonli qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 22-iyuldag'i «Shaxslarning ayrim toifalarini imtiyozli asosda dori vositalari bilan ta'minlash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 204-sonli qarori.

## 8-MAVZU. DORINONA SHAROITIDA DORI VOSITALARINI TAYYORLASH

### **Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi**

<i>O’quv soati:</i> 2 soat	<i>Talabalari soni:</i> 50-60 ta
<i>O’quv mashg’ulotning shakli</i>	Axborotli, Vizual ma’ruza
<i>Ma’ruza mashg’ulotning rejusi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Dorixona muassasalarining moddiy-texnik bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalari va xodimlarga bo’lgan talablar</li> <li>SanPin haqida tushuncha.</li> <li>Dori vositalarining tashqi bezagi.</li> </ol>
<i>O’quv mashg’ulotining maqsadi:</i>	Talabalarga dorixona muassasalarining moddiy-texnik bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalari va xodimlarga bo’lgan talablar, dorixonani SanPin talablariga javob berishini va dorixona muassasalari tomonidan tayyorlanadigan va idishga joylanadigan dori vositalarni tashqi bezagiga doir qoidalarini o’rgatish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<p><i>O’quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p><i>Talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Dorixona muassasalarining moddiy-texnik bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalari va xodimlarga bo’lgan talablarni o’rganadi;</li> <li>SanPin haqida tushunchaga ega bo’ladi.</li> <li>Dori vositalarining tashqi bezagi haqida axborot berish.</li> </ul>
<i>O’qitish uslubi va texnikasi</i>	Axborotli, Vizual ma’ruza.
<i>O’qitish vositalari</i>	Ma’ruza matni, o’quv ko’rsatkichalar, proyektor.

<i>O'qitish shakli</i>	Ommaviy
<i>O'qitish sharoitlari</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan xona

## MA'RUDA MASHG'ULOTINING TEKNOLOGIK KARTASI

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 daq)	1.1. Mavzuning maqsadi, rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi.	Tinglaydilar, yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (65 daq)	2.1. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. ( 1,2,3,4,5-ilova). 2.2. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.	2.1. Eshitadilar. 2.2. Tinglaydilar, daftarga ko'chirib oladilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daq)	3.1. Mavzuni yakunlaydi, ishtirokchilarni baholaydi va rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriq ni yozib oladi

*1-ilova*

### Bumerang usuli. Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruhning har bir a'zosi:

- o'z sheriklarining fikrlarini burmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;

## Guruhsar uchun topshiriqlar

### *I guruh vazifasi*

- 1.Dorixona muassasalarining moddiy-texnik bazasi, asbob-uskunalari, boshqa texnik vositalari va xodimlarga bo'lgan talablar
- 2.SanPin haqida tushuneha

### *II guruh vazifasi*

- 1.Aseptik blok, xona stollari.
- 2.Dori vositalarining tashqi bezagi

**Dorixona muassasalarining moddiy-texnik bazasi, asbob-uskunalari, boshqa texnik vositalari va xodimlarga bo'lgan talablar. Asosiy holatlar tarmoq standartini tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2004-yil 30-iyundagi 304-soni buyrug'ida dorixona muassasalarining xonalari hamda ularning jihozlanishi, dorixona xodimlariga bo'lgan talablar va boshqa ma'lumotlar keltirilgan.

### **Sanitar qoidalari va me'yorlar aks ettirilgan hujjat haqida**

Санитарные правила и нормы устройства аптек и их филиалов по реализации готовых лекарственных средств и изделий медицинского назначения СанПин № 0243-07 Тошкент 2008.

### **Dorixona muassasalari tomonidan tayyorlanadigan va idishga joylanadigan dori vositalarni tashqi bezagiga doir qoidalari**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqui saqlash vazirligining 2002-yil 15-apreldagi 177-soni buyrug'ida dorixona muassasalari tomonidan tayyorlanadigan va idishga joylanadigan dori vositalarni tashqi bezashda tegishli yorliqlardan foydalanish qoidalari aks ettirilgan.

<b>8-MAVZU</b>	<b>Dorixona sharoitida dori vositalarini tayyorlash</b>
<b>Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi</b>	
<i>O‘quv soati: 4 soat</i>	<i>Talabalari soni: 10-12 ta</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot
<i>Amaliy mashg‘ulotining rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Dorixona muassasalarining moddiy-texnik bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalari va xodimlarga bo‘lgan talablar</li> <li>2. SanPin haqida tushuncha.</li> <li>3. Aseptik sharoitda dori vositalarini tayyorlash.</li> <li>4. Dori vositalarining tashqi bezagi.</li> </ol>
<i>Amaliy mashg‘ulotining maqsadi:</i> Talabalarga dorixona muassasalarining moddiy-texnik bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalari va xodimlarga bo‘lgan talablar, dorixonani SanPin talablariga javob berishini va dorixona muassasalarini tomonidan tayyorlanadigan va idishga joylanadigan dori vositalarni tashqi bezagiga doir qoidalarini o‘rgatish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Dorixona muassasalarining moddiy-texnik bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalari va xodimlarga bo‘lgan talablar bilan tanishtirish;</li> <li>• SanPin haqida tushuncha berish.</li> <li>• Aseptik sharoitda dori vositalarini tayyorlash haqida tushuncha berish;</li> <li>• Dori vositalarining tashqi bezagi haqida axborot berish.</li> </ul>	<p><i>Talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <a href="http://www.fitq.zn.uz">www.fitq.zn.uz</a> saytdan foydalanib, dorixona muassasalarining moddiy-texnik bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalari va xodimlarga bo‘lgan talablar bilan tanishadi;</li> <li>• SanPin haqidagi tarqatma materiallar bilan tanishish va ular asosida vazifalar bajaradi;</li> <li>• Aseptik sharoitda dori vositalarini tayyorlash haqida tushuncha oladi;</li> <li>• <a href="http://www.fitq.zn.uz">www.fitq.zn.uz</a> saytdan foydalanib, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining «Dorixona muassasalari tomonidan</li> </ul>

	tayyorlanadigan va idishga joyلانادigan dori vositalarni tashqi bezagiga doir qoidalari» bilan tanishadi.
O'qitish ushibi va texnikasi	Munozara, tezkor so'rov, Bumerang usuli
O'qitish vositalari	Darslik, o'quv ko'rsatmalar, ko'rgazmali materiallar, qaror va buyruqlar
O'qitish shakli	Jamoaviy
O'qitish sharoitlari	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan xona

## AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK KARTASI

Bosqichlari, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (20 daq)	1.1. Mavzuning maqsadi, rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi.	1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (110 daq)	2.1. «Talabalar» javobini tinglaydi, tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. 2.2. Talabalarni 2 guruhga bo'ladi har biriga vazifa beradi, Bumerang usulidan foydalaniлади (2,3-ilova). 2.3. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi. Baholash mezonlarini xam namoyish qiladi (1-ilova). 2.4. Talabalarga test savollarini tarqatadi (4-ilova). 2.5. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (darslik, ma'ruza matni, o'quv uslubiy ko'rsatma)dan foydalinish	2.1. Savollar beradi. 2.2. Savollarga javob beradi; 2.3. Tanishi-shadi; 2.4. Savollarga javob beradi. 2.5. Vazifani, bajarishda o'quv material-laridan

	mumkinligini eslatadi. 2.6. Ishni tugallagan talaba ish natijalarini to‘g‘riligini tekshirib va kamchiliklarini to‘g‘rilab turadi.	foydalishadi 2.6. Tekshirtirib bo‘lgach ish daftariga xulosa yozadi.
3-bosqich. Yakuniy (30 daq)	3.1. Mashg‘ulotni yakunlaydi, tala-balarni baholaydi va faol ishtirok etgan talabalarni rag‘batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi.	3.1. Tinglay-dilar 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

## 2-ilova

### Bumerang usuli. Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruhning har bir a’zosi:

- o‘z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishi lozim;
- berilgan topshiriqlar to‘g‘risida faol, hamkorlikda va mas’uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o‘zlariga yordam kerak bo‘lganda so‘rashlari mumkin;
- yordam so‘raganlarga ko‘mak berishlari lozim;
- guruhnini baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;

### Vizual materiallar

Bozor iqtisodiyoti siyosati olib borilayotgan bir davrda dorixonalarning deyarli hammasi xususiylashtirilayotgan sharoitda ularning gigiyenik holatiga e’tibor berishni zamonning o‘zi taqozo etadi.

Ma’lumki, dorixonalarning asosiy vazifalari – dorilarni sifatli tayyorlash; aholini, davolash profilaktika muassasalarini, poliklinika va ambulatoriyalarni dori vositalari bilan ta’minlash, aholini kundalik dori vositalariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish. Aholini va turli davolash profilaktika muassasalarini sifatli dori vositalari bilan ta’minlash ko‘p jihatdan dori vositani tayyorlaydigan shaxslarning sanitariya nuqtayi nazardan ularning saviyasiga, maxsus tartib qoida va qonunlar to‘la-to‘kis bajarilishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Dorixonalarning qurilishini tashkil etishda odatda uch guruh xonalar bo‘ladi:

1. Ishlab chiqarish xonalari: dori xarid qilish uchun keladigan shaxslarni kutish xonasi (savdo zali), retseptlarni qabul qilish bo'limi, dori vositalarni tayyorlash – assistentlar xonasi, dori vositasi tayyorlaydigan idishlarni yuvish xonasi, dori vositalarini saqlash xonalari, sterillash xonasi, farmatsevt-analitik xonasi, dorilarni qadoqlash xonalari.

2. Xizmat qilish va xo'jalik ishlari uchun xonalar, dorixona mudirining xonasi, xodimlarning kiyim kiyish va yechinish xonalari, hojatxona va h.k.

3. Yordamchi xo'jalikka oid xonalar – shisha idishlar saqlanadigan xona, taralar, yoqilg'i, hidli dori vositalari va dezinfeksiya moddalari uchun xonalar, garaj va boshqa xonalar.

Dorixona muassasalarining bozor iqtisodiyoti sharoitida sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda ishslashga o'tish, bilimdon mutaxassislarini tayyorlash, aholini va DPMlarni sifatli dori-darmonlar bilan ta'minlashni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish kabi muammolari mavjud.

Dorixonalarda 2,4,6,8 ish joyiga ega bo'lgan assistentlar stollaridan foydalaniladi. Bu stollarda suyuq dori vositalarini, kukunlarni, surtmalarini tayyorlash, nazorat o'tkazish va qadoqlash ishlarini bajarish uchun alohida ish joylari bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2004-yil 30-iyundagi 304-soni «Dorixona muassasalarining moddiy-teknika bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalari va xodimlarga bo'lgan talablar. Asosiy holatlari. Tarmoq standartini tasdiqlash haqidagi buyrug'i chiqdi.

Maskur tarmoq standarti «Dori-darmon davlat aksiyadorlik uyushmasi» Dori vositalari tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi, Toshkent farmatsevtika instituti tomonidan ishlab chiqarilgan.

Ushbu standart mulkchilik shaklidan qat'i nazar chakana, ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi barcha dorixonalar uchun majburiydir.

Ushbu standart shifoxona dorixonalari uchun tarqatilmaydi.

Standartda kirish, termin va atamalar, umumiy holatlari dorixona muassasalarining xonalari va ularning jihozlanishi, dori vositalari qabul qilishga qo'yiladigan talablar, dori vositalarining saqlashga

qo'yiladigan talablar, hisob va hisobot ishlari, dorixona xodimlariga bo'lgan talablar, dorixona faoliyatini ta'minlash, dorixona muassasasini yo'q qilish punktlari mavjud.

San-Pin – bu tayyor dori vositalarini sotishda dorixona qurilishidagi sanitар qoidalar va me'yorlar aks ettirilgan hujjat. Ushbu hujjat 5 ta bo'limdan iborat.

1-bo'lim – umumiy holatlar.

2-bo'lim – dorixona joylashishi va qurilishiga qo'yiladigan talablar.

3-bo'lim – dorixonaning jihozlanishi va xonalariga bo'lgan talablar.

4-bo'lim – dorixona xonalarining sanitар qurilishi.

5-bo'lim – dorixona xodimlarining shaxsiy gigiyenasi va xonalarni tozalashdagi qo'yiladigan sanitар talablar.

Hozirgi kunda San-Pin 0162-04 ishlab chiqarilgan, bundan 5-yil avval, ya'ni 1998-yilda esa San-Pin 0078-98 ishlangan edi.

Dorixona o'z faoliyatini farmatsevtik faoliyatga berilgan litsenziya asosida olib boradi. Farmatsevtik faoliyatni litsenziyalash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 31-oktabrda chiqqan 477-sonli qaroriga muvofiq va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida olib boradi.

Assistantlar, analitiklar va distilatsiya xonalari bir-biriga yaqin joylashtirilishi kerak. Aseptik majmua xonalari texnologik jarayon bosqichlari bilan mos ravishda bevosita bog'liqlikni ta'minlashi kerak. Ishlab chiqarish xonalarining devor va shiplari dizenfeksiya vositalari bilan nam lattada artilishi kerak. Pollar linolium yoki keramik plitkalar bilan qoplanishi kerak.

Aseptik sharoitda dorilar tayyorlash uchun alohida izolatsiyalangan xonalar asosan katta dorixonalarda ajratiladi. Unda quyidagilar bo'lishi kerak: elektr yoki gaz o'tkazgich, vodoprovod jo'mragi va rakovina, elektr plitasi yoki gaz gorelkasi hamda asbob-uskunalar.

Aseptik sharoitida dori tayyorlanadigan xonada qulay sanitariya gigiyena sharoiti yaratish uchun dorilarni sterilizatsiya qilinadigan avtoklavlar va boshqa apparatlar qo'shni xonaga (koktoriyga) joylashtiriladi.

Koktoriy – dorixona xonalaridan biri bo'lib, unda suv haydaladi va assistent ishiga bog'liq bo'lgan har xil farmatsevtik operatsiyalar: damlama va qaynatmalar tayyorlash, dorilarni sterillash, qaynatish, bug'latish ishlari ham bajariladi.

Ba'zi bir dorixonalarda aseptik sharoitda dori tayyorlash uchun maxsus blok-xonalar quriladi. Bloklar uchta seksiyadan iborat bo'ladi:

- a) aseptik xona – bu yerda dori tayyorlanadi;
- b) sterilizatsion xona – bu yerda avtoklav, 2000°C gacha isitadigan quritkich shkaf va boshqa sterilizatsiya apparatlari o'matiladi.
- d) tambur (boksdan oldingi xona) tamburda farmatsevt, sterillangan xalat qalpoqcha, tapochkalarni kiyib, so'ngra aseptik xonaga kiradi.

Stol bokslar. Ba'zi dorixonalarda aseptik sharoitda dorilar tayyorlash uchun maxsus xonalar bo'lmasligi natijasida, dorilarni qisman aseptik sharoitda tayyorlash imkonini beruvchi stol bokslar katta rol o'yaydi. Aseptik sharoitda dorilar tayyorlanadigan xonalarni dorixonalarning boshqa xonalaridan to'liqroq izolatsiya qilish stol bokslar havosini, tozalangan suvni sterilizatsiya qilish maqsadida bakteriotsid lampalar (ultrabinafsha – nurlatkichlar - muvaffaqiyat bilan qo'llanmoqda). Assistant xonaga korjomasiz (xalat, kosinka, qalpoqsiz) kirish mutlago mumkin emas.

Aseptik blok defektar, assistantlar xonasiga kiraverishda dezinfeksiya eritmalar bilan ho'llangan rezina gilamchalari bo'lishi kerak.

Yuvish xonalarida inyeksiya eritmalarini va ko'z tomchilari, ichiladigan dori vositalari sirtqi ishlataladigan dori shakllari uchun alohida rakovinalar bo'lishi kerak.

Rakovinalar har kuni tozalanishi va dizenfeksiya qilinishi shart. Dorixona xodimlari shaxsiy gigiyena qoidalariga rivoja qilishlari shart. Ular ishga tushmaslaridan oldin albatta tibbiy ko'rikdan o'tishlari lozim.

Aseptik blok ventilatsiya bilan jihozlanishi kerak. Havoni zararsizlantirish uchun aseptik blokda, distilatsiya xonasida bakteriotsid nurlatkichlar bo'lishi zarur.

Aseptik blok jihozlari dizenfeksiya eritmalar bilan ho'llangan lattalarda artilishi shart. Aseptik blok dorixonaning boshqa

xonalaridan shlyuzlar orqali ajratilgan bo'lishi kerak. Dorixonadagi yordamchi materiallar (paxta, marli, pergament qog'oz) bikslarda sterilizatsiya qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqi saqlash vazirligining 2002-yil 15-apreldagi 177-soni «Dorixona muassasalarini tomonidan tayyorlanadigan va idishga joylanadigan dori vositalarni tashqi bezagiga doir qoidalari» buyrug'iga asosan ichiladigan dori vositalarining yorliqlari yashil rangda, inyeksiya uchun tayyorlangan dori vositalarining yorliqlari ko'k rangda, ko'z tomchilari, malhamlari uchun yorliqlar pushti rangda, sirtga ishlataladigan dori vositalari uchun to'q sariq rangdagi yorliqlar bosma ko'rinishida, «Bolalardan ehtiyyot qiling» degan ogohlantiruvchi yozuv hanida har bir dori turining tarkibiga qarab «Salqin joyda saqlansin», «Yorug'lik tushmaydigan joyda saqlansin», «ehtiyyotlik bilan ishlatilsin» kabi yozuvlar bo'lishi shart.

### 3-ilova

#### Guruhi uchun topshiriqlar

##### I guruhi vazifasi

- 1.Dorixona muassasalarining moddiy-tehnik bazasi, asbob-uskunalar, boshqa tehnik vositalari va xodimlarga bo'lgan talablar
- 2.SanPit haqida tushuncha.

##### II guruhi vazifasi

- 1.Aseptik blok, xona stollari.
- 2.Dori vositalarining tashqi bezagi.

### 4-ilova

#### Test savollari

##### 1. Dorixonaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

A. Dori vositalarini sifatlari tayyorlash, aholini, davolash profilaktika muassasalarini dori vositalar bilan ta'minlash.

B. Aholining kundalik dori vositalariga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

C. Poliklinika va ambulatoriyalarni dori vositalari bilan ta'minlash.

D. \*Barcha javoblar to'g'ri.

**2. Dori vositalari tayyorlash bilan shug'ullanadigan dorixonaiarda qanday xonalar bo'lishi kerak?**

A. \*Ishlab chiqarish xonalar, xizmat qilish va xo'jalik ishlari uchun xonalar, yordamchi xo'jalikka oid xonalar.

B. Ishlab chiqarish xonalar.

C. Xizmat qilish va xo'jalik ishlari uchun xonalar.

D. Yordamchi xo'jalikka oid xonalar.

**3. Dorixona muassasalarining moddiy-texnik bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalari va xodimlarga bo'lgan talablar qaysi tashkilotlar tomenidan ishlab chiqarilgan?**

A. «Dori-darmon» AK.

B. Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi.

C. Toshkeni Farmatsevtika instituti.

D. \*Hamma javoblar to'g'ri.

**4. San PiN qanday hujjat?**

A. \*Bu tayyor dori vositalarini sotishda dorixona qurilishidagi sanitariya qoidalari va me'yorlari aks ettirilgan rasmiy hujjat.

B. Yuridik hujjat.

C. Shaxsiy hujjat.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

**5. Koktoriy deganda nimani tushunasiz?**

A. \*Dorixona xonalaridan biri bo'lib, unda suv haydaladi va turli farmatsevtik jarayonlar bajariladi.

B. Dorixona xonalaridan biri bo'lib, damlama va qaynatmalar tayyorlanadi.

C. Dorilar sterillanadi.

D. Qaynatish va bug'latish ishlari bajariladi.

**6. Aseptik blok qanday seksiyadan iborat?**

A. Aseptik xona.

B. Sterilizatsiya xonasi.

C. Tambur (boksdan oldingi xona).

D. \*Hamma javoblar to'g'ri.

**7. Aseptik blokda nima maqsadda bakteritsid nurlatkichlar o‘rnataladi.**

- A. Tayyorlash xonalarida havoni zararsizlantirish maqsadida.
- B. Distilatsiya xonalarida havoni zararsizlantirish maqsadida.
- C. Sterilizatsiya xonalarida havoni zararsizlantirish maqsadida.
- D. \*Hamma javoblar to‘g‘ri.

**8. Aseptik sharoitda dori tayyorlash va qadoqlash uchun sterillangan idishlar necha soatdan ortiq saqlanmaydi?**

- A. \*24 soatdan.
- B. 5 soatdan.
- C. 20 soatdan.
- D. 15 soatdan.

**9. Sanitariya kiyimlari bikslarda sterillanadi, ularni bikslarda saqlanish muddatlari qancha?**

- A. \* 3 sutkadan ortmasligi kerak.
- B. 5 sutkadan ortmasligi kerak.
- C. 6 sutkadan ortmasligi kerak.
- D. 2 sutkadan ortmasligi kerak.

**10. Sanitar qoidalar va me’yorlar aks ettirilgan hujjat dorixonalardan tashqari qanday tashkilotlar va korxonalar uchun ishlab chiqarilgan?**

- A. Omborxonalar uchun.
- B. Farmatsevtik korxonalar uchun.
- C. Dorixona shoxobchalari uchun.
- D. \*Hamma javoblar to‘g‘ri.

### **Mustaqil bajarish uchun vazifalar**

**1-vazifa.** O‘zingiz mustaqil ravishda quyidagi retseptlarga o‘xshash boshqa retseptlar yozib tegishli yorliqlar bilan rasmiylashtiring va dorilarni saqlash uchun zarur bo‘lgan tavsiyalarni bering.

1. Rp: Rezortsin 1,0

Vazelini 10,0

M.f.ung

D.S.sirtga

**2-vazifa.** Aseptik sharoitga glukoza kukunidan 5% li 100gr li eritmani 50 ta shisha idishda shifoxona uchun tayyorlab bering.

Dori vositasini tayyorlashni, sterillashni, qadoqlash va shifoxonaga jo'natishni tashkil qiling.

**3-vazifa.** Quyidagi berilgan jadvaldan San Pin 0243-07 asosida dorixona xonalarining sun'iy yoritish ko'rsatkichlarini va tabiiy yorug'lik koeffitsiyentlarini ish daftaringizga qayd eting (1-2-jadval).

**4-vazifa.** Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrasi elektron kutubxonasidan Farmatsevtika ishini tashkil qilish kitobi va undagi SanPin 152-04 hujjatidagi ma'lumotlarni o'rGANING.

#### *1-jadval*

Nº	Dorixonadagi xonalar	Yorug'lik ko'rsatichlari	Yorug'lik manbai
1	Kirish zali	150 75	Lyuminestsent lampa (1.1) Cho'g'lanish lampasi (ch.1)
2	Savdo zalidagi ish joylari xonasi	300 150	1.1 ch.1
3	Termolabil medikamentlarni saqlash	150 75	1.1 ch.1
4	Dori vositarinini saqlash xonalar		1.1 ch.1

#### *2-jadval*

Nº	A. Xonalarning nomlañishi	Minimal tabiiy yorug'lik koeffitsiyenti, %
1	Kutish zali	1,5
2	Ovqatlanish xonasi	1,5

## BAHOLASH KO'RSATKICHLARI VA MEZONLARI

Nº	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball «5» a'llo
1	Dorixona muassasalarining moddiy texnika bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalari va xodimlariga bo'lgan talablar.	1
2	SanPin haqida tushuncha.	1
3	Aseptik sharoitda dori vositalarini tayyorlash.	1
4	Dori vositalarining tashqi bezagi.	1
5	Dorixonaning asosiy vazifalari.	1

## 9-MAVZU. DORIXONA SHAROITIDA DORI VOSITALARI SIFATINI NAZORAT QILISH ISHLARINI TASHKIL QILISH

### Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi

<i>O’quv soati:</i> 2 soat	<i>Talabalar:</i> som: 50-60 ta
<i>O’quv mashg’ulotning shakli</i>	Axborotli, vizual ma’ruza
<i>Ma’ruza mashg’ulotning rejasি</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Dorixona muassasalarida tayyorlangan dori turlarining sifatini baholash.</li> <li>Dori vositalari tibbiyot buyumlarining yaroqlilik muddati.</li> <li>Dorixona sharoitlarida tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini yaxshilash.</li> </ol>
<i>O’quv mashg’ulotining maqsadi:</i>	Talabalarga dorixonada tayyorlanadigan dori vositalari sifatini nazorat qilish usullarini, dorixona muassasalarida tayyorlangan dori turlarining sifatini baholashni o’rgatish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<p><i>O’quv faoliyatining naijalari:</i></p> <p><i>Talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Dorixona muassasalarida tayyorlangan dori turlarining sifatini baholash bo‘yicha qo’llanma haqida ma’lumot oladi.</li> <li>Dori vositalari tibbiyot buyumlarining yaroqlilik muddati to‘g’risida tanishadi.</li> <li>Dorixona sharoitlarida tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini yaxshilash borasidagi me’yoriy hujjatni o’rganadi.</li> </ul>

<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Axborotli, vizual ma'ruba.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruba matni, o'quv ko'rsatmalar, proyektor.
<i>O'qitish shakli</i>	Ommaviy
<i>O'qitish sharoitlari</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan xona

## MA'RUDA MASHG'ULOTINING TEKNOLOGIK KARTASI

<b>Bosqichlar, vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazimuni</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>Talaba</b>
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (5daq)	1.1. Mavzuning maqsadi, rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi.	Tinglaydilar, yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy bosqich (65 daq)	2.1.O'qituvchi vizual mate- riallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. (1,2,3,4-ilova). 2.2. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishiarini ta'kidlaydi.	2.1.O'qiydilar 2.2Tinglaydi- lar, daftarga ko'chirib oladilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daq)	3.1.Mavzu to'g'risida yakun qiladi, oltingan bilimlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tibori qaratiladi. 3.2.Mustaqil ish uchun topshiriq beriladi.	3.1 Savollar berishadi 3.2 Topshiriqni yozib oladi.

### Vizual materitallar

### 1-ilova

«Dorixona muassasalarida tayyorlangan dori turlarining sifatini baholash bo'yicha qo'llanma»ni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2002-yil 29-dekabrdagi 582-sonli buyrug'ida dorixona muassasalarida tayyorlanadigan, qadoqlanadigan dori vositalarining sifatini baholash va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan og'isi me'yorlari aks ettirilgan

### 2-ilova

«Dori vositalari tibbiyot buyumlarining yaroqlilik muddati to'g'risida»

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2000-yil 10-martdagи 109-sonli buyrug'ida dori vositalarining yaroqlilik muddati aks ettirilgan

### 3-ilova

Dorixona sharoitlarida tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini vaxshilash borasida

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2000-yil 21-apreldagi 195-sonli buyrug'ida dori vositalarining sifatini nazorat qilish turlari aks ettirilgan

### 4-ilova

Dori vositalarining sifatini nazorat qilish turlari



<b>9-MAVZU</b>	Dorixona sharoitida dori vositalari sifatini nazorat qilish ishlarini tashkil etish
<b>Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi</b>	
<i>O'quv soati: 4 soat</i>	<i>Talabalarni soni: 10-12 ta</i>
<i>O'quv mashg'uloti shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashurish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
<i>Amaliy mashg'ulotining rejasি</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Dorixona muassasalarida tayyorlangan dori turlarining sifatini baholash.</li> <li>2. Dori vositalari tibbiyot buyumlarining yaroqlilik muddati.</li> <li>3. Dorixona sharoitlarida tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini yaxshilash.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Talabalarga dorixonada tayyorlanadigan dori vositalari sifatini nazorat qilish usullarini, dorixona muassasalarida tayyorlangan dori turlarining sifatini baholashni o'rgatish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Dorixona muassasalarida tayyorlangan dori turlarining sifatini baholashni o'rgatish.</li> <li>• Dori vositalari tibbiyot buyumlarining yaroqlilik muddati haqida ma'lumot berish.</li> <li>• Dorixona sharoitlarida tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini yaxshilash.</li> </ul>
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <a href="http://www.fitq.zn.uz">www.fitq.zn.uz</a> saytiga kirib, Dorixona muassasalarida tayyorlangan dori turlarining sifatini baholash bo'yicha qo'llanma haqida ma'lumot oladi;</li> <li>• <a href="http://www.fitq.zn.uz">www.fitq.zn.uz</a> saytiga kirib, Dori vositalari tibbiyot buyumlarining yaroqlilik muddati to'g'risida tanishadi;</li> <li>• <a href="http://www.fitq.zn.uz">www.fitq.zn.uz</a> saytiga kirib, Dorixona sharoitlarida tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini yaxshilash borasidagi me'yoriy hujjatni o'rganadi.</li> </ul>
<i>O'qitish vositalari</i>	Bumerang usuli, test.
	Darslik, ma'ruba matni, o'quv ko'rsatmalar, ko'rgazmali materiallar, qaror va buyruqlar

<i>O'qitish shakli</i>	Jamoaviy
<i>O'qitish sharoitlari</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan xona

## AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK KARTASI

<b>Bosqichlari, Vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>Talaba</b>
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kи- rish (20 daq)	1.1. Mayzuning maqsadi, rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi.	1.1 Tinglaydilar, yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy bosqich (110 daq)	<p>2.1. Talabalar javobini tinglaydi va savollarga javob beradi.</p> <p>2.2. Talabalarni 2 guruhg'a bo'ladi har biriga vazifa beradi, Bumerang usulidan foydalaniladi (2,3-ilova).</p> <p>2.3. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi. Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi (1-ilova).</p> <p>2.4. Guruhlarga test savollarini tarqatadi (4-ilova).</p> <p>2.5. Vazifani bajarishda o'quv ma- teriallari (darslik, ma'ruba matni, o'quv uslubiy ko'rsatma) laridan foydalanish mumkinligini eslatadi.</p> <p>2.6. Ishni tugallagan talaba ish natijalarini to'g'riligini tekshirib va kamchiliklarini to'g'rilab turadi.</p>	<p>2.1. Savollar beradi.</p> <p>2.2. Savollarga javob beradi.</p> <p>2.3. Tanishishadi.</p> <p>2.4. Test savolla- riga javob beradi.</p> <p>2.5. Vazifani bajarishda o'quv materiallaridan foydalanishadi.</p> <p>2.6. Ishni tugal- lagan talaba ish natijalarini to'g'- riligini o'qituv- chidan tekshirib bilgach ish daf- tariga vazifa bajaradi.</p>

3-bosqich. Yakuniy (30 daq)	<p>3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi;</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beriladi.</p>	<p>3.1. Savollar berishadi.</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</p>
-----------------------------------	--	--

## ***2-ilova***

### **Guruh bilan ishlash qoidalari**

**Guruhnинг har bir a'zosi:**

- o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

### ***Vizual materiallar***

Dorixonada tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini oshirish eng dolzrab zamonaviy masalalardan biridir. Bunga erishish mumkin bo'lgan yo'llardan biri tayyorlangan dorilarni nazorat qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 29-dekabr 2002-yilda tasdiqlangan 583-sonli buyrug'i «Dorixona muassasalarida tayyorlangan dori turlarining sifatini baholash bo'yicha qo'llanma»ni tasdiqlash to'g'risidadir. Ushbu qo'llanma dorixona muassasalarida tayyorlanadigan, qadoqlanadigan dori turlarining sifatini baholash va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan og'ish me'yorlarini belgilaydi hamda dorixona muassasalarida ko'rsatma sifatida foydalaniladi.

Dorixonalarda nazorat analitik xonalari bo'ladi. Xonalarda analitik stollar bo'lib, ular kerakli tartibda jihozlangan bo'lishi shart. Stollar oldida aylanma vertushkalar ularda esa shtanglaslar, shtanglaslarda kerakli reaktivlar bo'ladi. Stollarda analitik torozilar, byuretkalar, zarur bo'lgan eritmalar turishi shart. Dorixonada

tayyorlangan dorilarni sifatini farmatsevt-analitik, farmatsevt-texnologlar nazorat qilib turishlari kerak. Farmatsevt-analitik yoki farmatsevt-texnologlar dori-darmonlardan bo'shagan shtanglaslarini o'zi vaqtida to'ldirib turishlari kerak. Ular assistentlar xonasida dori-darmonlarni amaldagi belgilangan qoidalarga binoan to'g'ri saqlanishini ta'minlab turishlari lozim. Bundan tashqari, farmatsevt - analitik va farmatsevt - texnologlar qadoqlovchilarning ish jarayonlariga rahbarlik qilib, ularni o'rtalaridagi vazifalarini taqsimlab berishlari shart. Dorixonada tayyorlangan dorilar sifatini oshirishni ta'minlaydigan ogohlantiruvchi omillarga alohida e'tibor berish kerak.

Yakka tartibda tayyorlanadigan dori vositalari, tez buziluvchi va turg'un bo'limgan preparatlar, konsentratlar, yarimfabrikatlarni sifat va miqdorini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 21-aprel 2000-yilda tasdiqlangan 195-sonli (Dorixona sharoitlarida tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini yaxshilash borasida) buyrug'iga muvofiq dorixonalarda tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini nazorat qilishning quyidagi turlari mavjud: yozma, orgonoleptik, og'zaki, fizikaviy va kimyoviy nazorat. Bundan tashqari, qabul qilish nazorati ham mavjud. Qabul qilish nazoratida dorixonaga kelib tushgan dori vositalarini qadoqlanishi, markirovkasi va tashqi ko'rinishi tekshiriladi. Agar shubha tug'ilsa bu dori vositasi nazorat tahlil laboratoriyasiga jo'natiladi.

Yozma nazorat. Farmatsevt tomonidan tayyorlangan dori vositasi uchun alohida pasport to'ldiriladi. Pasportda sana, retsept yoki talabnomanining nomeri va har bir ingrediyentning nomi va miqdori, olingan dozalarining soni yoziladi, pasportda tayyorlagan, qadoqlagan va tekshirgan shaxslarning imzosi bo'lishi shart.

Ushbu nazorat turidan dorixonada tayyorlanadigan barcha dori shakllari o'tishi lozim.

Agar dori vositasi yarimfabrikat yoki konsentratlardan tayyorlansa, pasportda olingan miqdor va ularning konsentratsiyasi ko'rsatiladi. Kukunlar, shamchalar tayyorlanganda esa har bir ingrediyentning massasi va ularning miqdori yoziladi.

Organoleptik nazorat. Bu nazoratda dori vositasining tashqi ko‘rinishi, rangi, hidri, ta’mi, bir xil aralashganligi mexanik aralashmalarining yo‘qligi teshiriladi.

Kattalarga tayyorlangan ichish uchun dori vositalarining ba’zi birlari, bolalarga tayyorlangan ichish uchun dori vositalarining hammasining ta’mi tekshiriladi.

Og‘zaki nazorat. Bunda farmatsevt-texnolog dori vositasi tarkibiga kiruvchi birinchi ingrediyentning nomini aytadi. Boshqa murakkab dori aralashmalarida esa farmatsevt ingrediyentlarining nomi va miqdorini esida qolgani bo‘yicha ko‘rsatadi. Ushbu nazorat turi ayrim dori vositalarda o‘tkaziladi. Og‘zaki nazorat 5 ta dori shakli tayyorlanib bo‘lingach olib boriladi.

Fizikaviy nazorat. Bu nazoratda dori shaklining hajmi va umumiy massasi tekshiriladi. Natijalar maxsus jurnallarda qayd etiladi. Yorliqdagagi yozuvning retseptdagagi yozuvga mos kelishi katta e’tibor talab qiladi. Ayniqsa ogohlantiruvchi yorliqlarga e’tibor berish kerak. Masalan «Salqin joyda saqlansin», «Yorug‘lik tushmaydigan joyda saqlansin», «Ehtiyyotlik bilan ishlatsinsin».

Kimyoviy nazorat. Bunda dori vositalarining sifati va miqdori tekshiriladi.

Dorixonada quyidagi dori vositalarini sifati tekshiriladi:

- sterilizatsiya qilingunga qadar barcha inyeksiya eritmali va ko‘z tomchilar;
- yakka tartibda tayyorlangan dori vositalarining ba’zi birlari;
- barcha konsentratlar, yarimfabrikatlarning har bir seriyalari;
- shtanglaslarga quyilgan dori vositalari;
- omborxonadan dorixonaga keltirilgan dori vositalarining ba’zilari;

– tozalangan suv (xloridlar, sulfatlar, kalsiy tuzlarining yo‘qligi).

Quyidagi dori vositalarining miqdori tekshiriladi:

- barcha konsentratlar, yarimfabrikatlarning har bir seriyasi;
- sterilizatsiyaga qadar barcha inyeksiya uchun tayyorlangan dori vositalari;
- tarkibida atropin sulfat, kumush nitrat kabi ingrediyentlar saqlagan ko‘z kasalliklarida ishlataladigan dori vositalari;
- assistent tomonidan smena davomida tayyorlangan ba’zi dori vositalari;

– tez buzuluvechan, turg' un bo'limgan preparatlar.

Dorixonada tayyorlanadigan dorilarning sifatini oshirish yuzasidan quyidagi og'ohlaniruvchi chora-tadbirlarga amal qilishni talab qilinadi:

– dori-darmonlarni qabul qilish jarayonida ularni diqqat bilan tekshirib, sifat yuzasidan shubha tug'ilsa nazora-analitik laboratoriyasiga yuborish;

– amaldagi buyruqlar talablariga muvofiq dorixonada sanitariya va farmatsevtika tartiblariga rivoja qilish;

– ishlab chiqarishda ishlataladigan apparat, asbob-uskunalarining aniq, to'g'ri ishlashini ta'minlash;

– dorixonada dori vositalarining fizik-kimyoviy xossalarni yaroqlilik muddatini e'tiborga olib, muayyan shart-sharoitlarda saqlash (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2000-yil 10-martdagи 109-sonli buyrug'i «Dori vositalari tibbiyot buyumlarining yaroqlilik muddati to'g'risida»);

– dorilar bilan to'ldirilgan shtangaslardagi yorliqlarda tegishli yozuvlarning bo'lishini nazorat qilish;

– dorixonada kelib tushgan retseptlarni yoki talabnomalarini to'g'ri rasmiylashtirilganini tekshirish.

– dorilarni tayyorlash texnologiyasi qoidalariga amal qilish kabiladir.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 318-sonli buyrug'i 2003-yil 4-iyulda chiqqan bo'lib, ushbu buyruq «O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2000-yil 21-apreldagi 195-sonli buyrug'iga qo'shimcha kiritish to'g'risidadir».

## Guruhsiz uchun topshiriqlar.

### I guruh vazifasi

1. Dorixonada tayyorlanadigan dori vositalari sifatini nazorat qilish.
2. Dorixonada nazorat- analitik xonalari

### II guruh vazifasi

1. Dorixona muassasalarida tayyorlangan dori turlarining sifatini baholash.
2. Dorixonada tayyorlangan dorilarning sifatini nazorat qiluvechi farmasevt- analitikning huquq va burchlari

## Test savollari

**1. Turg‘un bo‘limgan dorilar sifati qanday muddatda tekshiriladi?**

- a) Har kuni.
- b) \*Har oyda.
- c) Chorakda bir marta.

**2. Yozma nazorat uchun yozilgan pasport dorixonada qancha muddat saqlanadi?**

- a) 10 kun.
- b) 1 yil.
- c) \*1 oy.

**3. Quyidagi yozilgan retseptning sifati nazorat qilinganda qaysi tur nazorat o’tkazildi?**

Rp:Pilokarpin gidroxloridning 1 % - 10,0 eritmasi

D.S Ko‘z tomchisi 1-2 tomchidan 2-3 marta

- a) Yozma, og‘zaki, organoleptik, kimyoviy.
- b) Yozma, organoleptik.
- c) \*Og‘zaki, kimyoviy.

**4. Quyidagi yozilgan retseptning sifati nazorat qilinganda qaysi tur nazorat o’tkaziladi?**

Rp:Atropin sulfat 0,1

Tozalangan suv 10,0

M.D.S Ko‘z tomchisi

- a) \*Yozma, og'zaki, fizikaviy.
- b) Og'zaki, fizikaviy, kimyoviy.
- c) Og'zaki, organoleptik.

**5. Quyidagi yozilgan retseptning sifati nazorat qilinganda qaysi tur nazorat o'tkazildi?**

Rp: Efedrin gidroxlorid

Dimedrol aa 0,025

M.f.pulv.

D.t.d.№10

S. 1 ta dan 3 mahal

- a) Og'zaki, kimyoviy.
- b) Fizikaviy, kimyoviy.
- c) \* Yozma, eg'zaki, fizikaviy, kimyoviy.

**6. Quyidagi yozilgan retseptning sifati nazorat qilinganda qaysi tur nazorat o'tkaziladi?**

Rp:Dikain eritmasi 0,5 % - 50

Adrenalin gidroxlorid eritmasi 0,1 % - 3

M.D.S. ko'z praktikasida

- a) Yozma, organoleptik, og'zaki, kimyoviy.
- b) Fizikaviy, kimyoviy.
- c) \*Yozma, og'zaki, fizikaviy, kimyoviy.

**7. Quyidagi yozilgan retseptning sifati nazorat qilinganda qaysi tur nazorat o'tkaziladi?**

Rp: Riboflavin 0,01

Tiamin bromid 0,02

Askorbin kislotasi 0,05

Qand 0,3

M.f.pulv

D.t.d №30

S. 1 tadan 3 marta

- a) Yozma, og'zaki, fizikaviy.
- b) Yozma, organoleptik.
- c) \*Yozma, og'zaki, fizikaviy, organoleptik.

**8. Kimyoviy nazorat turida dori vositalarining qaysi ko'rsatkichlari tekshiriladi?**

a) Chinligi.

b) Miqdori.

c) \*A va B javoblar to‘g‘ri.

9. Fizikaviy nazorat turida dori vositalarining qaysi ko‘rsatkichlari tekshiriladi?

a) Hajmi.

b) Umumiy massasi.

c) \* A va B javoblar to‘g‘ri.

10. Organoleptik nazorat turida dori vositalarining qaysi ko‘rsatkichlari tekshiriladi?

a) Dori vositasining tashqi ko‘rinishi.

b) Rangi, hidi, ta’mi.

c) \*Barcha javoblar to‘g‘ri.

### Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1-vazifa. Sizning fikringizcha quyidagi retserptlarda dorixonada tayyorlangan dorilar sifatini nazorat qilishning qaysi turlarini olib borish mumkin.

1.Rp: Levomitsetin 0,25

Bor kislotasi 0.1

Etil spirti 70% 100 ml gacha

M.D.S 2 tomchidan kuniga 3 martadan ikkita qulogqqa tomizing.

2.Rp: Albutsid 30% 10.0

D.S ko‘z tomchilari

3. Rp: Sitral 1%-3.0

Magniy sulfat 6.0

Natriy bromid 6.0

Valeriana tindirmasi 6.0

Glukoza 20.0

Tozalangan suv 200

M.D.S tinchlantrish uchu vosita

Dorilar sifatini baholab, tekshirib, natijalarni tegishli daftarga qayd qiling (1,2,3-jadvallar).

2-vazifa. O‘zingiz mustaqil ravishda quyidagi retseptlarga o‘xshash boshqa retseptlar yozib, tegishli ogohlantiruvchi yorliqlar bilan rasmiylashtiring va dorixona sharoitida dori vositalarini saqlash uchun zarur bo‘lgan tavsiyalarni bering.

1.Rp: Atropin sulfat 1.0

Xlorid kislota 0.1 M 10 ml

Inyeksiya uchun suv 1 l gacha

Tashqi bezashda ishlataladigan «Inyeksiya uchun» yorligiga eritmaning konseentratsiyasi yoziladi. tagidan qizil qalam bilan chiziladi, undov belgisi qo'yiladi. «Ehtiyyotlik bilan» degan ogohlantiruvchi yozuv yopishtiriladi.

4-vazifa. Tozalangan suv sifatini nazorat qilishni qayd etish daftarini to'ldiring, bunda tekshiruv natijalari qoniqarli ekanligini hisobga oling (4-jadval).

5-vazifa. Dyuretkalar qurilmalaridagi eritmalar haqiqiyligi tekshirish natijalarini qayd etsh daftarini to'ldiring. Bunda haqiqiyligini tekshirish uchun qilingan reaksiyaning hammasi ijobji natija bergenligini e'tiborga oling (5- jadval).

6-vazifa. Dorilar sifatini baholab me'yordan og'ishini aniqlang. Vazifani bajarishda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 583-sonli buyrug'idan foydalaning. (FITQ kafedra [www.fitq.zn.uz](http://www.fitq.zn.uz) saytiga kirib «O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati» III kitob)

Rp: Askorbin kislotasi 0.1

Glukoza 0.2

Tekshirish natijasida bu dori oq rang, nordon tamli bir dona kukunining og'irligi 0.29 gr ekanligi aniqlandi.

### Organoleptik, fizik va kimyoviy hamda sifat nazorat natijalarini qayd etish daftari

I-jadval

Na-zorat qilin-gan sana	Tartib no-meri shu-nning o'zi analiz №	Dori tur-ning tar-kibi	Shart- li belgisi	Ret-sept №	Nazorat natijalarini			Dori tayyor-lovchi-laming familiyasi, ismi, sharifi	Tek-shi-ruvchi-ning imzosi
					Orga-nolep-tik	Fi-zik	Haqi-qiyligi		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

**Dorixonada qadoqlangan dorilarni va sanoat korxonalarida tayyorlangan mahsulotlarni organoliptik, fizik va kimyoviy va sifat nazorat natijalarini qayd etish daftari**

*2-jadval*

Na-zorat qilin-gan sana	Tartib nome-ri shu-ning o'zi analiz №	Qa-doq-lan-gan seriya	Qa-doq-lan-gan seriya	Tay-yor-langan zavod-nomini	Qadoq-lovchi-ning familiyasini, ismi, sharifi №	Nazorat natijalari		Natija qoniqar-li yoki qoniqar-siz	Tek-shi-ruv im-zosi
						sifatlari	Aniq-lana-digan modda		
1	2	3	4	5	6		7	8	9

**Dori vositalari haqiqiyligini nazorat qilish natijalarini qayd etish daftari**

*3-jadval*

Na-zorat qilin-gan sana	Tartib nomeri shu-ning o'zi analiz №	No-mi	Tayyor-langan zavod-ning seriya №	To'ldi-rilayotgan shtanglas-ning	Imzolar			
					Aniq-lana-digan modda	Natija	To'ldi-ruvchi	Tek-shi-ruvchi
1	2	3	4	5	6	7	8	9

**Tozalangan suv sifatini nazorat qilish natijalarini qayd etish daftari**

*4-jadval*

Olin-gan san	Na-zorat qilin-gan sana	Tartib nomeri shu-ning o'zi analiz №	Bal-lon yoki Byu-ret-ka	Yot aralashmalarni tekshirish natijalari							Qoni-qar-li yoki qoni-qar-siz	Tek-shi-ruv-chining im-zosi
				CI	SO4	K+	NH4+	Qayta-ruv-chi-modda	Ko'-mir angid-ridi			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	

**Byuretkalar qurilmasidagi eritmalar haqiqiyligini tekshirish  
natijalarini qayd etish daftari**

**5-jadval**

sana	Tartib №	Byuretkalardagi eritmalar nomi					
		Natriy bro- mid- ning 20 % li eritmasi	Natriy benzoat- ning 10 % li eritmasi	Vodorod xlorid- ning 5 % li eritmasi	Natriy karbonat- ning 5 % li eritmasi	Vale- riana dam- lamasi	Tek- shi- ruv- ching im- zosi
1	2	3	4	5	6	7	8

**BAHOLASH KO'RSATKICHLARI VA MEZONLARI**

№	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball «5» a'lo
1	Dorixonada nazorat - analitik xonalari.	
2	Dorixonada dorilar sifatini nazorat qilishni tashkil etish	
3	Dorixonada tayyorlangan dorilarning sifatini nazorat qiluvchi farmatsevt-analitikning huquq va burchlari	1
4	Farmatsevt-texnologning huquq va burchlari.	
5	Dorixonada tayyorlangan dorilarning sifatini baholashning hisobini olib boruvchi hujjatlar	

## **Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan testlar**

**1. Farmatsevtika korxonalarida mahsulot sifatini tekshirishda qanday nazorat turlari mavjud?**

- a) \*Dori vositalarini qabul qilishdagi nazorat, ishlab chiqarish jarayonidagi nazorat, texnik nazorat.
- b) Gigiyenik nazorat, sifat nazorati, texnik nazorat.
- c) Biologik nazorat, kimyoviy nazorat.
- d) Kimyoviy nazorat, texnik nazorat, qabul qilishdagi nazorat.

**2. Nazorat analitik laboratoriyasida qanday xonalar mavjud?**

- a) \* Optik xona, tortish xonasi, defektar xonasi, metodik xona, analistik zal.
- b) Assistantlar xonasi, zaxupa bo'limi; dori vositalarini tortish xonasi.
- c) Metodik xona, analistik zal, qabul bo'limi; assistantlar xonasi.
- d) Assistantlar xonasi, defektar xonasi.

**3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasining vazifalari nimalardan iborat.**

- a) \*Dori vositalar va diagnostik vositalar, tibbiy texnik va tibbiy buyumlar sifati ustidan davlat nazoratini o'tkazish va amalgamoshirish.
- b) Dori vositalar, tibbiy buyumlar, davolash oziq-ovqatlar va tibbiy texnikani ekspertizadan o'tkazuvenchi, standartlashtiruvchi muassasa va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga rahbarlik qilish.
- c) Dori vositalarini saqlash, dozasini aniqlash.
- d) Dori vositalarini guruhlarga ajratish, tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga rahbarlik qilish

**4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasining tarkibida qanday qo'mitalar mavjud?**

- a) \*Farmakologiya qo'mitasi, Farmakopeya qo'mitasi, narkotiklar nazorati qo'mitasi, yangi tibbiy texnika qo'mitasi.

- b) Farmakopeya qo'mitasi, qayd etish bo'limi yangi tibbiy texnika qo'mitasi.
- c) Narkotiklar nazorati qo'mitasi, Farmakopeya qo'mitasi, Metrologiya bo'limi, yangi tibbiy texnika qo'mitasi.
- d) Tibbiy texnika qo'mitasi, sertifikatsiya bo'limi.

#### **5. Dori vositalarining standartizatsiyasi va ekspertizasi Davlat markazi qanday laboratoriyalardan tashkil topgan?**

- a) \* Dori vositalari sifatini nazorat qilish va standartlash laboratoriysi, vaksina, zardob preparatlari va mikrobiologik tahlil laboratoriysi, farmako-toksikologik tahlil laboratoriysi, tibbiy uskunalar va tibbiy buyumlar sifatini nazorat qilish laboratoriysi.
- b) O'lchov laboratoriysi, tibbiy texnika sifatini nazorat qilish laboratoriysi.
- c) Nazorat analitik laboratoriysi, o'lchov laboratoriysi.
- d) Zardob preparatlari laboratoriysi, sifatini nazorat qilish laboratoriysi.

#### **6. O'z.R Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi qanday bo'limlardan tashkil topgan?**

farmatsevtika, qayd etish byurosi, metrologiya bo'limi, farmatsevtika faoliyatini muvofiqlashtiruvchi xalqaro standartlar bo'yicha malaka oshirish kurslari bo'limi, ilmiy-uslubiy va axborot bo'limi.

- b) Farmatsevtik nazorat bo'lini, metrologiya bo'limlari.
- c) Metrologiya bo'limlari, ro'yxatdan o'tqazish bo'limi.
- d) Metrologiya bo'limi, sertifikatsiya bo'limi, tibbiy texnika bo'limi.

#### **7. Sertifikatlashtirish sektorining vazifalari nimadan iborat?**

- a) \*Tibbiy texnika va buyumlari hamda dori vositalariga muvofiqlik sertifikatini berish.
- b) Muvofiqlik sertifikatini berish.
- c) Farmatsevtik faoliyat uchun litsenziya berish.
- d) Guvohnoma berish.

**8. Qaysi qo‘mita «O‘zfarmsanoat» DAK ixtiyoridan qayta Sog‘lini saqlash vazirligi tizimi tasarrufiga o‘tkazildi?**

- a) Farmakopeya qo‘mitasi.
- b) \*Farmakologiya qo‘mitasi.
- c) Yangi tibbiy texnika nazorati qo‘mitasi.
- d) Narkotiklar nazorati qo‘mitasi.

**9. Yangi dori vositalarini ishlab chiqarishga, tibbiy amaliyatda qo‘llashga kim ruxsat beradi?**

- a) O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lini saqlash vazirligi.
- b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, farmakopeya qo‘mitasi.
- c) \*O‘zbekiston Respublikasi Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi.
- d) «O‘zfarmsanoat» davlat aksionerlik konserni.

**10. Qaysi qo‘mita dori vositalarining o‘ziga xos ta’sirini o‘rganadi?**

- a) Toksikologiya qo‘mitasi.
- b) \*Farmakologiya qo‘mitasi.
- c) Farmakopeya qo‘mitasi, Narkotiklar nazorati qo‘mitasi.
- d) Yangi tibbiy texnika nazorati qo‘mitasi.

**11. Qaysi qo‘mita dori vositalarining o‘ziga xos zaharliligini o‘rganadi?**

- a) \*Toksikologiya qo‘mitasi, narkotiklar nazorati qo‘mitasi.
- b) Farmakologiya qo‘mitasi.
- c) Yangi tibbiy texnika nazorati qo‘mitasi.
- d) Narkotiklar nazorati qo‘mitasi.

**12. Nazorat analitik laboratoriyasining optik xonasida qanday o‘lchov asboblar bo‘ladi?**

- a) \*Refraktometr, fotokolorimetr, potensiometr, spektrofotometr.
- b) Quritgich shkaf.
- c) Havo tortuvchi shkaf, spektrofotometr.
- d) Hamma javoblar to‘g‘ri.

**13. Tozalangan suv tahlil natijalarini qayd etish daftarining SES ga topshirilish muddati qancha?**

- a) \*Chorakda 2 marta.
- b) Har kuni.
- c) Har yili.
- d) Smenada.

**14. Nazorat analitik laboratoriya tomonidan sifatini nazorat qilish uchun elingan dori vositalari to‘g‘risida qanday hujjat rasmiylashtiriladi?**

- a) \*Dalolatnoma.
- b) Talabnoma.
- c) Buyurtma-talabnoma.
- d) Hisob hujjatlari.

**15. Nazorat analitik laboratoriyasining bajaradigan vazifasi nimadan iborat?**

- a) Dori vositalarini iste‘molchiga yetkazib berish.
- b) Dori vositalarini saqlash.
- c) \*Dori vositalarining sifatini nazorat qilish.
- d) Yangi dori vositalarini ishlab chiqarish.

**16. Titrlangan eritmalar asosan qaysi xonada bo‘lishi kerak?**

- a) Defektar xonasida.
- b) \*Assistentlar xonasida.
- c) Retseptura ishlab chiqarish xonasida.
- d) Tozalangan suv haydaydigan xonada.

**17. Shifoxona dorixonasidagi farmatsevt texnologning asosiy vazifasi nimadan iborat?**

- a) \*Bo‘limlardan talabnomalarni qabul qilish, dorilar sifatini nazorat qilish, aseptik xonada tayyorlangan dori vositalar sifatini nazorat qilish.
- b) Dori vositalarini saqlash aseptik xonada tayyorlaydigan dori vositalar sifatini hodimlar shaxsiy gigiyenasini nazorat qilish.

- c) Dori vositalirini guruqlariga ajratish.
- d) Faqat dori vositalarini nazorat qilish.

**18. Dorixonada yuqori samaradorlikka erishish uchun asosan qanday ishni amalga oshirish kerak ?**

- a) \*Faqat sanitariya tartibiga rioya qilish lozim.
- b) Faqat farmatsevt tartibini o'matish shart.
- c) Faqat tovar turini ko'paytirish kerak.
- d) Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish kerak.

**19. Dorixonada maxsus litsenziyasiz qanday dori vositalarini tayyorlash, qabul qilish, saqlash va sotish taqiqlanadi ?**

- a) \*Zaharli moddalarni, giyohvand dori vositalarini.
- b) Zardoblarni.
- c) Dorivor o'simliklarni.
- d) Hamma javoblar to'g'ri.

**20. «Dori-darmon» AKning tarkibi qanday?**

- a) \*Respublika hududidagi «Dori-darmon» ochiq aksiyadorlik jamiyatları, nazorat analistik laboratoriyalari, dorixona omborxonaları.
- b) Xususiy dorixonalar va dorixona omborxonaları.
- c) Aksiyadorlik dorixonaları va nazorat analistik laboratoriyalari.
- d) Nazorat analistik laboratoriyalari.

**21. O'zfarmsanoat «Davlat aksiyadorligi» konserninining vazifasi nimadan iborat?**

- a) \*Farmatsevtik sanoatini kompleks rivojlantirish, mahsulotlar sifatini ta'minlash dori vositalarini yaratish, ishlab chiqarish jarayonini yo'lga quyish, dori vositalariga va tibbiyot buyumlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish.
- b) Dori vositalarini yaratish, ishlab chiqarish jarayonini yo'lga quyish, aholining va DPMlarning dori vositalariga va tibbiyot buyumlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, modernizatsiya qilish.
- c) Dori vositalarini sifatini nazorat qilish.

d) Dori vositali yaroqlilik muddatini uzaytirish dori vositalari chinligini aniqlash.

**22. Logistika boylimining vazifasi nimadan iborat?**

- a) \*Tovarni kelishidan to dorixonaga yetkazib berishini.
- b) Nazorat qiladi.
- c) Faqat dori vositalari narxini tekshiradi.
- d) Dori vositalar sifatini nazorat qiladi.

**23. Narkotik dori vositalariga yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.**

- a) 1 oy.
- b) 1 yil.
- c) \*5 yil.
- d) 3 yil.

**24. Zaharli dori vositalariga yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.**

- a) 2 oy.
- b) 1 oy.
- c) \*1 yil.
- d) 5 yil.

**25. Etil spirtiga yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.**

- a) 1 oy.
- b) 2 oy.
- c) \*1 yil.
- d) 5 yil.

**26. Bepul beriladigan dori retseptlarini dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.**

- a) 2 oy.
- b) 1 yil.
- c) \*3 yil
- d) 5 yil.

**27. Bepul berilgan dori retseptlarini yaroqliik muddatini ko'rsating.**

- a) 10 kun.
- b) \*30 kun.
- c) 1 yil.
- d) 3 yil.

**28. Zaharli dori vositalariga qaysi dori kiradi?**

- a) Pentalgin.
- b) Nozepam.
- c) \*Kumush nitrati.
- d) Fepranon.

**29. Retseptura bo'limida qanday ishlar bajariladi?**

- a) Ta'minotchilardan kelgan dori vositalarini qabul qilish.
- b) Ta'minotchilardan kelgan dori vositalarini sifatini nazorat qilish.
- c) \*Bemorlarga retsept asosida tayyor dorilarni berish.
- d) Retseptlar va talabnomalarni qabul qilish, dorilarni tayyorchash, sifatini nazorat qilish va berish.

**30. Onkologik kasal dorixonadan oladigan dori vositasi uchun qanday haq to'laydi.**

- a) 20% haq to'laydi.
- b) 50% haq to'laydi.
- c) \*Bepul oladi.
- d) 80% haq to'laydi.

**31. Ulug' Vatan urushi qatnashchisi dorixonadan dorini olishda qanday haq to'laydi.**

- a) \*Bepul oladi.
- b) 100% haq to'laydi.
- c) 20% haq to'laydi.
- d) 80% haq to'laydi.

**32. Qandli diabet kasali dorixonadan dorini olishda qanday haq to'laydi.**

- a) \*Bepul oladi.
- b) 80% haq to'laydi.
- c) 50% haq to'laydi.
- d) 100% haq to'laydi.

**33. Ambulatoriyaga qatnab davolanuvchi bemonlarga sof holdagi etil spirti necha ml beriladi.**

- a) \*50.
- b) 100.
- c) 150.
- d) 200.

**34. Xususiy dorixona bepul berilgan dori retseptlarini yaroqlilik muddatini ko'rsating.**

- a) 5 kun.
- b) Berilmaydi.
- c) \*30 kun.
- d) 1 yil

**35. Turg'un bo'limgan dorilar sifati qanday muddatda tekshiriladi?**

- a) \*Har kuni.
- b) Har oyda.
- c) Chorakda bir marta.
- d) 6 oyda.

**36. Yozma nazorat uchun yozilgan pasport dorixonada qancha muddatda saqlanadi:**

- a) 1 kun.
- b) 10 kun.
- c) \*1 oy.
- d) Saqlanmaysdi.

**37. Retsept orqali tayyorlangan ko'z tomchilari dorixonada qancha muddatda saqlanadi?**

- a) 1 oy.
- b) 10 kun.
- c) \*3 kun.
- d) 2 kun.

**38. Dorixonadan analizga olingan dori-darmonlarga qanday hujjat rasmiylashtiriladi?**

- a) Talabnoma.
- b) \*Dalolatnoma.
- c) Schyot.
- d) Hisobot.

**39. Quyidagi yozilgan retseptning sisati nazorat qilinganda qaysi tur nazorat o'tqaziladi?**

Rp: Tincturae Valerianae

Tincturae Convallariae aa 7,5

M.D.S. 20-30 tomchidan 3 marta

- a) Yozma, organoleptik.
- b) \*Yozma, organoleptik, og'zaki, fizik.
- c) Fizikaviy, kimyoviy.
- d) Yozma, og'zaki, fizikaviy.

**40. Quyidagi yozilgan retseptning sisati nazorat qilinganda qaysi tur nazoratdan o'tkaziladi?**

Rp: Riboflavini 0,01

Tiamini bromidi 0,02

Acidi ascorbinici 0,05

Sacchari 0,3

M.f.pulv. D.t.d. №30

S. 1 tadan 3 marta

- a) Fizikaviy, kimyoviy.
- b) Yozma, og'zaki, fizikaviy.
- c) \*Yozma, organoleptik.
- d) Yozma, og'zaki, fizikaviy, organoleptik.

**41. Inyeksiya uchun ishlataladigan suyuq dorilarning sifati tekshirilganda qaysi tur nazorat o'tkaziladi?**

- a) \*Yozma, og'zaki, organoleptik, fizik, kimyoviy.
- b) Kimyoviy, yozma, organoleptik.
- c) Yozma, og'zaki, organoleptik, kimyoviy.
- d) Yozma, og'zaki, fizikaviy.

**42. Retseptura bo'limida retseptlar bo'yicha dorilarni kim tayyorlaydi**

- a) \*Farmatsevt – texnolog.
- b) Farmatsevt – analitik.
- c) Farmatsevt – assistent.
- d) Qadoqlovchi.

**43. Fizikaviy nazorat kim tomonidan o'tqaziladi?**

- a) Farmatsevt – texnolog.
- b) \*Farmatsevt – analitik.
- c) Farmatsevt – assistent.
- d) Qadoqlovchi.

**44. Dorixonada tayyorlangan dorilar sifatini nazorat qilish bo'yicha hisobot qayerga topshiriladi?**

- a) Bojxona qo'mitasiga.
- b) \*Nazorat analistik laboratoriyasiga.
- c) Markaziy dorixonaga.
- d) Sanitariya epidemiologiya stansiyasi.

**45. Dorixonada tayyorlangan dorilar sifatini nazorat qilish bo'yicha nazorat analistik laboratoriyasiga hisobot qanday muddatda topshiriladi.**

- a) \*Oyda.
- b) Chorakda.
- c) Yilda.
- d) Har kuni.

**46. Assistentlar xonasidagi dorilar solingan shtanglaslarda nimalar ko'rsatilgan bo'ladi?**

- a) Dorining nomi, sanasi.
- b) Dorining yaroqlilik muddati, shtanglaslarni to'ldirgan shaxsni imzosi.
- c) \*Dorini nomi, to'ldirilgan sana, to'ldirgan va chinligini tekshirgan shaxsning imzosi.
- d) Shtanglasni to'ldirgan shaxsning imzosi.

**47. Yozma nazorat uchun yozilgan pasportda nimalar ko'rsatiladi?**

- a) \*Sana, retsept nomeri, dori moddani nomi va miqdori, dozasi, tayyorlangan qadoqlagan va tekshirgan shaxsning imzosi.
- b) Dori moddani nomi.
- c) Sifatini nazorat qilgan shaxsning imzosi.
- d) Retsept nomeri, sana va dorining nomi va miqdori.

**48. Yozma nazorat qaysi dori turlariga o'tkaziladi.**

